

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Magistratura bo'limi

Qo'lyozma huquqida

UDK :

JO'RAYEVA NILUFAR SHUXRAT QIZI

**Particularités ethnoculturelles des euphémismes dans les langues
franco-ouzbèk (Fransuz va o'zbek tillarida evfemizmlarning
milliy-madaniy xususiyatlari)**

Mutaxassislik: 5A120102 Lingvistika (Fransuz tili)

Magistrlik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar :

F.f.d, Jo'rayeva M.M.

Buxoro – 2020

**Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti Nemis va
fransuz tillari kafedrasida bajarilgan**

Ilmiy rahbar:

(Ilmiy darajasi va unvoni, Ism-sharifi)

Kafedra mudiri:

(Ilmiy darajasi va unvoni, Ism-sharifi)

Magistratura bo'limi boshlig'i:

(Ilmiy darajasi va unvoni, Ism-sharifi)

MUNDARIJA:

KIRISH	3
I BOB TILSHUNOSLIKDA EVFEMIZM TUSHUNCHASI HAQIDAGI NAZARIY QARASHLAR.....	9
1.1. Tabu va evfemizm tushunchalari xususida mulohazalar.....	9
1.2. O'zbek tilshunosligida evfemizm hodisasi.....	20
1.3. Zamonaviy fransuz tilshunosligida evfemizm va tabu hodisalari.....	25
I bob bo'yicha xulosa.....	35
II BOB. FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA EVFEMIZMLARNING QIYOSIY-TARIXIY TALQINI.....	36
2.1. Evfemizm lingvokulturologik fenomen sifatida.....	36
2.2. O'zbek tilshunosligida evfemizmlarning tasniflanishi.....	40
2.3. Evfemizmlarning gender xususiyatlari.....	48
II bob bo'yicha xulosa.....	53
III BOB. FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA EVFEMIZMLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	54
3.1. Til va madaniyat mushtarakligi.....	54
3.2. Fransuz tilshunosligida evfemizm qo'llanadigan sohalar va ularning tahlili.....	59
3.3 Fransuz va o'zbek evfemizmlarining gender xoslanishdagi milliy-madaniy jihatlar.....	75
III bob bo'yicha xulosa.....	94
UMUMIY XULOSALAR.....	95
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	98

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi. Jahon tilshunosligida lisoniy imkoniyatlardan amaliy foydalanish, evfemizm tushunchasi bilan bog'liq hodisalar, evfemizmlarning nutqda qo'llanilishi, ularga xos turli xususiyatlarni tadqiq qilish alohida e'tiborni talab etadi.

Bugungi kunda muloqot madaniyati, neyrolingvistika, etnolingvistika, yurisingvistika, gender tilshunoslik, ortologiya, lingvistik ekspertiza sohalarida ko'plab izlanishlar olib borilmoqda.

Ma'lumki, insonning bilish qobiliyati uning lisoniy qobiliyati bilan hamohangdir. Til eng asosiy muloqot jarayon bo'lganligi sababli, olamni bilishda biz unga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilamiz. Til va madaniyat munosabati, uning ijtimoiy hayotda aks etishi, evfemizmlarning nutq odobi, til madaniyati, muloqot samaradorligi kabi ijtimoiy hayot zaruratiga aylangan jihatlarni yoritib berish tilning o'ziga xos qirralarini ochib beradi, nazariy asoslarini tadqiq etishga imkon yaratadi.

Ma'naviy kamolotga erishishda madaniy meros bo'lmish tildan o'rinli, oqilona va samarali foydalanish, uni chuqurroq o'rganish va undan bahramand bo'lish lozimdir.

Mazkur sohaning asosiy obyekti – til va madaniyatning uzviy bog'liqligi, ularning o'zaro uyg'unlashuvi, bog'lanishi hamda ta'siri yaxlit tizim sifatida o'rganilar ekan, "... adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibot – bu avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q"¹.

Binobarin, axloqiy va madaniy jihatdan qo'llanilishi nomuvofiq so'zlar o'rnida ishlatiladigan evfemizmlarni tadqiq etish, уларнинг milliy-madaniy

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miziyoeyevning "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir" mavzusida O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi/ Xalq so'zi. – Toshkent, 2017, 4 avgust.

xususiyatlarini ochib berish, ikki tilning o'ziga xos o'xshashlik va differentsial belgilariga e'tiborni qaratish, ularga zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashish, ularni ilmiy-nazariy asoslash, ma'lum xulosalarga kelish dolzarblik kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida evfemizmlarning shakllanish omillari, tarixiy ildizlari va taraqqiyot bosqichlari alohida terminologik qatlam sifatida shakllanib borayotgani, ularning etimologik omillari, xususiyatlari, ichki ko'rinishlari bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. Bu esa, o'z o'rnida zamon bilan hamnafas, davr ruhiga mos tadqiqot olib borish hamda turli amaliy tajriba o'tkazishni talab qiladi.

Jadallik bilan jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar boshqa sohalarda bo'lgani kabi tilshunoslik oldiga ham, xususan o'zbek va fransuz tilshunosligi oldiga qator vazifalarni qo'yib, o'zbek tilshunosligining jahon lingvistikasi bilan integratsiyalashuv jarayoniga keng yo'l ochmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bilamizki, insonning nutq faoliyati asosan axloqiy normalarga rioya qiladi. Ma'lumotlar asosida evfemizm grekcha *euphemeo* - "yaxshi, yumshoq gapiraman" ma'nosini anglatib, axloqiy va madaniy jihatdan qo'llanilishi ta'qiqlangan yoki noqulay deb topilgan so'zlar o'rniga boshqa so'z va iboralarning qo'llanishi evfemizmlar deb ataladi.

Tabu va evfemizmlar haligacha fransuz tilshunosligida chuqur tadqiq qilinmagan, terminologiyasi shakllantirilmagan mavzulardan biridir. Fransiyada bu mavzuga doir ko'pgina maqolalar yozilgan, g'arb tilshunoslari bu mavzuda birqancha izlanishlar olib bormoqda. Shu o'rinda tabu va evfemizmlar bilan bog'liq tilshunoslik muammolarining yechimida ko'proq izohlar, atamalar, atamashunoslikka doir muammolar o'rta chiqmoqda.

Faktlar evfemiyaning endi nutqiy qatlam sifatida bir butun holda sistemali o'rganish, uning barcha nutqiy- botiniy imkoniyatlarini ochish namoyon qilish, funksional-uslubiy xususiyatlarini tasvirlash, xususan vazifaviy uslub turlariga

nisbatan munosabatlarini yoritish bugungi uslubshunosligimizning eng muhim va dolzarb muammolaridan ekanligini ko'rsatadi. G'. Abdurahmonovning "Endilikga adabiyotshunos va tilshunoslar oldida turgan muhim masalalardan biri adabiy uslub bilan nutq uslublarining umumiy va xususiy tomonlarini ochishdir"² degan fikri ham ushbu mavzuni dolzarbligini belgilaydi.

Ishning o'rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda evfemizm va uning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi muhim ilmiy-nazariy qarashlarni ilgari surgan jahon hamda o'zbek tilshunos olimlarining o'zni katta. Jahon tilshunosligida O.M.Freydenbarg tahriri ostida chop etilgan *"Античные теории языкознания и стиля"* nomli asarda "evfemizm" tushunchasi Demokrit, Platon, Aristotel tomonidan ham tilga olinganligi haqida ma'lumot beriladi. Evfemizmlar XII-XV asrlarda ingliz tilida paydo bo'lgan. XIV asrlarda fransuz madaniyatida urf bo'la boshlaydi. Dunyo tilshunosligida evfemizm hodisasi e'tirof etilgan va jiddiy o'rganilgan ishlar XX asrning so'nggi 10 yilligida yuzaga kelgan: rus tilshunosligida V.Z.Sannikov, V.P.Moskvin, E.P. Senechkina, L.A. Bulaxovskiy, B.A.Larin, L.P. Krisinlar olib borgan tadqiqotlar, ingliz tilshunosligida J.S. Nimen va J. Silverning ishlari shunday tadqiqotlar sirasiga kiradi.

O'zbek tilshunosligida evfemizm atamasi 1963-64 yillarda N.Ismatullayevning *"Hozirgi o'zbek tilida evfemizmlar"* nomli dissertatsiyasi orqali o'rnashdi. Bu hodisa evfemizmsunos olim A. Omonturdiyev tomonidan uslubshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida keng doirada o'rganilgan. O'zbek nutqining evfemik asoslari uning *"Evfemik vositalarning funksional-uslubiy xususiyatlari"* mavzuidagi dissertatsiyasida atroflicha tahlil qilingan. Nutqning madaniyligini ta'minlovchi, o'zbek nutqiga o'ziga xos ko'rk, joziba bag'ishlovchi evfemizmlar xususidagi asosiy fikr-mulohazalar olimning *"O'zbek nutqining evfemik asoslari"*, *"Professional nutq evfemikasi"* nomli

² Abdurahmonov G'. Hozirgi zamon o'zbek tilining adabiy usullari haqida. O'zbek tili va adabiyoti.1992. – B. 28 – 36

monografiyalarida, „Bir so‘z lug‘ati“, „So‘z qo‘llash san‘ati“, „O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati“ kabi ishlarida o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, professor M. Mirtojievning “O‘zbek tili semasiologiyasi” monografiyasida evfemizmlarning lisoniy xususiyatlari haqida asosli mulohazalar bildirilgan. A.E.Mamatov esa „O‘zbek tili shakllanishi masalalari“ mavzuidagi doktorlik ishida frazeologizmlarning shakllanishiga evfemik va disfemik birliklarning ta‘siri masalasiga alohida to‘xtalgan. Bundan tashqari, X. Qodirova, Z.Xolmanova, D.Rustamovalarning tadqiqotlarida evfemizmlar uslubiy, leksik-semantik, lingvomadaniy jihatlar tadqiq etilgan.

Bu borada fransuz tilida tabu va evfemizmlar tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar soni cheklangan. Fransuz tilshunosligida evfemizmlar maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Ilmiy adabiyotlarda mazkur muammoning ba‘zi jihatlar haqida qisman to‘xtalib o‘tilgan. Masalan, tilshunos Widlak Stanislasning “Revue belge de philologie et d'histoire” (T.,1965) kitobining 43- tomida zamonaviy fransuz tilshunosligida “evfemizm” va “tabu” tushunchalari, mazkur tushunchalarning shakllanish tarixi va paydo bo‘lish sohalari haqida to‘xtalib o‘tilgan. Debras S.ning “Des journaux et des femmes // Communication et langage”(T,. 1999), Brunet S.ning “Les mots de la fin du siècle” (1996) nomli asarlarida evfemizmnining ayollar nutqidagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Mazkur magistrlik dissertatsiyasini yozishda, asosan, Widlak Stanislasning “Revue belge de philologie et d'histoire” (“Tarix va filologiya haqida belgiya ilmiy jurnalida”) nomli asarining 43-tomi, Anvar Omonturdiyevning “O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati”, shuningdek Fransiyada nashr qilingan bir qancha jurnalllar, ilmiy maqolalar obyekt qilib olindi.

Dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari. Fransuz tilidagi tabu va evfemizmlarni tahlil qilish, ularni o‘zbek tili bilan taqqoslab, fransuz va o‘zbek tillarida evfemizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat. Shu maqsadni amalga oshirish uchun esa quyidagi vazifalar belgilab olindi:

-jahon va o'zbek tilshunosligida evfemizm hodisasining o'rganilishini ko'rib chiqish;

-o'zbek hamda chet el olimlarining evfemizatsiya muammolari bo'yicha qarashlarini umumlashtirish;

-zamonaviy fransuz tilshunosligida "evfemizm" va "tabu" tushunchalari, mazkur tushunchalarning shakllanish tarixini o'rganish;

-fransuz tilshunosligida evfemizm va tabu tushunchalarining paydo bo'lishidagi asosiy sohalarni aniqlash;

-fransuz va o'zbek evfemizmlarining gender xoslanishdagi milliy-madaniy jihatlarini qiyosiy tahlil qilish.

Tadqiqot uslubi. Mazkur mavzuni yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, etnolingvistik va konseptual tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyasida zamonaviy fransuz tilshunosligida "evfemizm" va "tabu" tushunchalari, mazkur tushunchalarning shakllanish tarixi, paydo bo'lish sohalari haqida so'z yuritiladi. O'zbek hamda chet el olimlarining evfemizm hodisasiga oid qarashlarini umumlashtirilib, fransuz va o'zbek tillarida evfemizmlarning milliy-madaniy xususiyatlari chog'ishtirma tahlil qilingan. Ishda erishilgan natijalar zamonaviy fransuz tilshunosligi muammolari, jumladan tabu va evfemizm bo'yicha ish olib borayotgan mutaxassislar, oliy ta'lim bosqichida tahsil olayotgan talabalar, magistrlar, katta ilmiy xodim izlanuvchi va mustaqil izlanuvchi o'qituvchilar uchun muhim manba sifatida foydalanishlari mumkin. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida tilshunoslikka kirish, qiyosiy tilshunoslik, tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti, tarixi, og'zaki va yozma nutq amaliyoti, til va madaniyatlararo kommunikatsiya, chet tili o'rganishning xorijiy tajribalarini o'ranishda, amaliy mashg'ulotlar va maxsus kurslar o'qitishda, darslik, qo'llanma va dasturlar yaratishda ushbu dissertatsiya mazmuni va natijalari yordam beradi.

Dissertatsiyaning ilmiy yangligi quyidagilardan iborat:

- zamonaviy fransuz tilshunosligida “evfemizm” va “tabu” tushunchalari, mazkur tushunchalarning shakllanish tarixi, paydo bo‘lish sohalari aniqlandi;
- evfemizmni ayollar nutqida o‘rganishning ahamiyati misollar yordamida yoritildi;
- fransuz va o‘zbek tillarida evfemizmlarning milliy-madaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi.

Dissertatsiya tarkibi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, hajmi 106 sahifani tashkil etadi.

I BOB. TILSHUNOSLIKDA EVFEMIZM TUSHUNCHASI HAQIDAGI NAZARIY QARASHLAR

1.1. Tabu va evfemizm tushunchalari xususida mulohazalar

Ma'lumki, til murakkab va ko'p aspektli hodisadir. Tilshunoslik fani tilda bo'layotgan barcha o'zgarishlarni atroflicha o'rganadi. Mazkur fan, boshqa fanlardan farqli o'laroq, tilni sof lingvistik nuqtai nazardan o'rganib, inson tilining tuzilishiga, tarixiy taraqqiyotiga, uning funktsional qonuniyatlariga xos bo'lgan masalalarni o'zida mujassam etadi. Til tafakkurni aks ettirgani bois u falsafa, mantiq, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlarning o'rganish sohasiga ham daxldordir.

Tilga berilgan ta'rif va tavsiflar biri boshqasini to'ldirsa-da, ular mushtarak fikrlarni ilgari surmayotgandek tasavvurni keltirib chiqaradi. Til o'ziga xos semiologik sistema bo'lib, u kishilik jamiyatida aloqa quroli sifatida xizmat qiladi. F.de Sossyur: "Til tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuidir", - degan edi. Albatta, olimning mazkur fikri hozirgi kunda tilshunoslikda keng talqin etilayotgan bo'lsa ham, u belgilar "Til nima?" degan savolga javob bo'la olmaydi. Chunki ushbu ta'rif tilning material jihati nimadan iboratligini izohlab bermoqda, xolos³.

Shu bois bo'lsa kerak, tilning paydo bo'lishi, uning rivojlanishi va ishlash qonuniyatlari borasida fikr yuritilganda insonning paydo bo'lishi, jamiyatning rivoji, mehnatning roli, inson tafakkurining ishtiroki to'g'ri xulosa chiqarishga asos bo'lishi alohida ta'kidlanadi.

V.fon Gumboldt tilshunoslik fanining muammolarini, vazifalarini belgilab berishga harakat qilganida uni tarixiy, falsafiy, etnografik fanlar qatoriga

³ Хайруллаев Х. Умумий тилшунослик. Услубий тавсиялар. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2007. – Б.7

kiritadi. Uning fikricha, til murakkab va bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sifat hamda xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan hodisadir⁴.

Darhaqiqat inson tili benihoya murakkab bo'lib, uning barcha jihatlarini yaxlitligicha va birdaniga tasavvur qilish o'ta murakkabdir. Shunday bo'lsa-da, dunyo tilshunosligi tarixidagi bir necha asrlik tajribalar turli oqim namoyandalari tilni tadqiq etish eng maqbul yo'l hisoblab, bu yo'lda o'rganish obyektni va uning mohiyatini aniq ko'rsatib berish uchun butun umrlarini sarflaganlarini ko'rsatadi⁵.

Har bir fanda rivojlanish bo'lgani kabi tilshunoslik ham kundan-kunga taraqqiy topib, turli yangi oqimlar, yo'nalishlar, yangi ilmiy-nazariy qarashlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi zamon yetakchi tilshunoslik ilmiy markazlarida "evfemizm" tushunchasi nihoyatda keng qo'llaniladi, semantik kategoriya sifatida muloqotning mazmunga boy jihatlarini namoyon etadi, ifodalangan fikr-mulohazaning muloqot jarayonidagi nufuzini oshiradi.

"Evfemizm" yunoncha "yumshoq ifodalash" so'zlovchiga aytish noqulay, noo'rin yoki qo'pol tuyulgan so'z va iboralarning sinonimi sifatida paydo bo'lgan so'zlardir.

Evfemizm salbiy voqelikni atashdan qochish, shunday voqelikning salbiy ta'sirini yumshatish uchun xizmat qilib, kishining izzat-nafsiga tegadigan, unga malol keladigan, hurmatsizlik ifodalaydigan, axloqiy me'yorlarga zid keladigan holatlarning yoki to'g'ridan to'g'ri aytish mumkin bo'lmagan maxfiy voqeliklarning salbiy ta'sirini kamaytirish, ularni yashirish, berkitish; noxush xabarni beozorroq, yumshoqroq shaklda yetkazish, ifodalash uchun ishlatiladi.

Tilda evfemizmning qo'llanishi tabu hodisasi bilan bog'liq holda tarixiy etnografik hodisa sifatida shakllangan. Evfemizm xalqlardagi urf-odat, madaniy

⁴ Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. М., 1984.

⁵ Жўраева М.М. Француз ва ўзбек тилларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фанлари доктори... дисс. – Т., 2017. – Б.15

saviyaning darajasi, estetik did va etnik me'yorlarning rivojlanishi bilan bog'liq. Tilning taraqqiyoti bilan uning evfemistik qatlami ham rivojlanadi. Yangicha axloq-odob, yangicha dunyoqarash me'yorlari asosida evfemizmning yangi yangi shakllari yuzaga keladi.

Tilda muayyan nutq vaziyati talabi bilan vujudga kelgan evfemizm ham mavjudki, ularning ma'nosi ko'pincha matn orqali oydinlashadi. Evfemizm ilmiy va rasmiy uslublarda keng qo'llanadi⁶.

Ma'lumotlarga ko'ra, jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida, ayniqsa, ibtidoiy bosqichlarda ba'zi bir narsalar, harakatlar man etilgan. Ana shunday man qilish hodisasi "tabu" deb ataladi.

"Tabu" so'zi polineziya tilidan, ya'ni Tinch okeandagi orollarda yashovchi ko'chmanchi elatlar tilidan olingan bo'lib, shaxsiy va diniy odatlar jihatdan biror narsani man etish, jumladan, ma'lum hayvonni ov qilish yoki o'simlikni sindirishni ta'qiqlash bilan bog'liqdir. Bu hodisa tilda ham uchraydi.

Jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida kishilar o'rtasida jin, arvoh va shunga o'xshash ilohiy narsalarga ishonish juda kuchli bo'lgan. Bunday xalqlar jin va arvohlarga yaqin bo'lgan shaxs yoki predmetning nomi tilga olinmasa, ulardan saqlanish mumkin, deb o'ylashgan. Qadimgi xalqlarda, shuningdek, hozir ham qabila bo'lib yashayotgan xalqlarda qabila boshliqlari o'lgandan keyin ularning narsalariga tegish, ularning nomini tilga olish man etilgan. Agar ularning narsalariga tegilsa yoki bu narsalarning nomi tilga olinsa, arvohlar, jinlar urib ketadi, biror zarar yetkazadi, deb tasavvur qilganlar. Xuddi shuningdek, ayrim yirtqich, zaharli hayvonlarning nomlarini aytish ham man etilgan. Go'yo bunday hayvonlarning nomi tilga olingach, zarar yetkazishi mumkin emish. Tabu qoldiqlarini hozir ham uchratish mumkin. Masalan, musulmon ayollari orasida erlarini o'z ismi bilan chaqirishsa, bunday holat erga nisbatan hurmatsizlik sanalgan. Oqibatda, man etilgan so'zlar o'rniga tushunchani ifodalovchi boshqa so'zni ishlatish zaruriyati tug'iladi.

⁶ Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х., Ўзбек тили стилистикаси, Т., 1983.

Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, ana shunday man etilgan so’zlar o’rniga boshqa so’zlarning ishlatilishi evfemizm deb ataladi. Biror sababga ko’ra qo’llanishi taqiqlangan yoki qo’llanishi noqulay bo’lgan qo’pol, dag’al so’z, ibora o’rniga boshqa yumshoqroq so’z yoki ibora qo’llash. Masalan, *chayon* so’zi o’rnida *eshak*, *oti yo’q* so’z va iborasining ishlatilishi evfemizm hodisalaridandir⁷.

Keyingi paytlarda *dag’al*, *qopol*, *noqulay* so’zlar o’rniga *yoqimliroq*, *silliqliroq* so’zlarni ishlatish hodisasi ham evfemizm ko’rinishlaridandir. Masalan, *o’ldi* so’zi o’rniga *vafot etdi*, *qazo qildi*, *dunyodan ketdi*, *dunyodan o’tdi*, *ko’zi yumildi*, *jonini egasiga topshirdi* kabi so’z yoki so’z birikmalari qo’llaniladi.

Adabiyotda evfemizmni olib qarasak, stilistik vosita sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning ba’zi bir ijtimoiy guruhlar, mehnat qilmay tekinox’rlik bilan hayot kechiruvchilar, chunonchi, *o’g’ri*, *bezori* va *qimorbozlar* o’zlarining yomon niyatlarini boshqalardan yashirish uchun so’zlarga har xil ma’no berib qo’llaydilar. Bunday so’zlarga *argo* deyiladi. Masalan, *o’g’irlamoq* so’zi o’rniga *ovqatlanmoq*, *o’ldirmoq* so’zi o’rniga *sallasini olib kelmoq* so’zlarini ishlatadilar. *Tabu* insoniyatning yozilmagan eng qadimiy qonuni sifatida ta’qiqlar vositasida paydo bo’lganligi bizga ma’lumdir.

Ma’lumotlarga keltirilishicha, terminni ilk bor ingliz kapitani J.Kuk 1777 yilda qo’llagan. Polineziya tilidagi ma’nosi asli “tapu”, *ta*: (ishoratlamoq, belgilamoq) va *pu*: (diqqatni tortuvchi, insonni chalg’ituvchi) deganidir. Tabu ta’qiqni, jamiyat rivojlanishining turli xil bosqichida yuzaga keladigan muhitni bildiradi. Turli xil shart-sharoitdan kelib chiqqan holda, bunday ta’qiqlar til asosida ham vujudga kelishi mumkin. Din yoki axloq ta’qiqlaridan farqli hisoblangan tabuning paydo bo’lish ildizlari ham uzoq tarix sahifalarida yashiringandir.

J.J. Varbotning fikricha, “tabu” so’zi bizning zamonimizda ikki ma’noda qo’llaniladi:

⁷ O’zbek tilining izohli lug’ati – T.: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 218.

a) ibtidoiy odamlarning diniy ta'qiqlari, ya'ni yuqori kuchlardan vujudga keladigan zararli oqibatlardan qochishni belgilash;

b) sotsial-siyosiy, tarixiy, madaniy, etnik yoki ta'sirchan dalillar o'zaro bog'liq belgilangan so'z qo'llashni ta'qiqlash⁸.

J.J. Varbot keltirgan belgilarda diniy va sotsial tabular aniq keltirilgan. Shuningdek, I.S.Kon tabuni "diniy sanksiya bilan mustahkamlangan sotsial madaniy ta'qiq" deb belgilagan.

Tabu etnik tushuncha bo'lib, qandaydir narsa yoki harakatning nomini aytishni man qilishdir. Bunday odatning tilga tatbiq qilinishi bilan lingvistik tabu yuzaga kelgan. O'zbek tilida chayonning nomi tabulanib, uning o'rnida *eshak, benom, nomiyo'q* so'zlari ishlatiladi.

Insonning nutq faoliyati axloqiy normalarga rioya qiladi. Axloqiy va madaniy jihatdan qo'llanishi ta'qiqlangan yoki noqulay deb topilgan so'zlar o'rniga boshqa so'z va iboralarning qo'llanishi *evfemizmlar* (grekcha euphemeo - "yumshoq gapiraman" ma'nosida) deb ataladi. Misol: *yolg'on gapirmoq* o'rnida *xato gapirmoq, xato qilmoq* iboralari qo'llaniladi. Evfemizmlarning ma'no va xususiyatlari turlichadir. Ular qo'llanish maqsadlariga ko'ra ham turlicha qiymatga ega bo'ladilar.

Evfemizmlarning ma'lum qismi tabu bilan bog'liq bo'ladi. Evfemizmlarning ko'pchilik qismi axloqiy va madaniy jihatdan aytilishi noqulay deb topilgan so'zlar o'rnida qo'llanuvchi so'z va iboralardir. Masalan: *qizamiq* o'rnida *oynama* (Samarqand viloyatining ayrim tumanlarida); *chechak* o'rnida *gul*; *sil* (tuberklyoz) o'rnida *uzun og'riq*; *pes* o'rnida *oq*; *kal* o'rnida *siyqabosh*, *xotin* o'rnida *umr yo'ldoshi, rafiq, qalliq, oila*; *xotin olmoq* o'rnida *uyanmoq*; *qizimni erga beraman* o'rnida *qizimni uzataman, qizimni turmushga chiqaraman* kabi so'z va iboralarning qo'llanishi evfemizmdir.

Tabu va evfemizmlar nafaqat adabiy-badiiy asarlarda ishlatiladi, balki ularni qo'llash so'zlovchidan katta san'atni talab qiladi.

⁸ Варбот Ж.Ж. Табу. Русский язык. Энциклопедия. - М., 1998. - С.552.

Insoniyatning madaniy taraqqiyoti til rivojiga ta'sir qilib, madaniyat yuksalgani sayin evfemizmlar ham sayqallanib bordi. "Shuning uchun, evfemizm hodisasini o'rgana turib, albatta, uning kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-madaniy muhitni inobatga olish kerak"⁹.

Evfemizm atamasi grek tilidan olingan bo'lib, ko'pchilik mualliflar fikriga ko'ra, noo'rin birlikning o'rinli birlikka almashinuvi sifatida qaraladi, degan fikrlar ham mavjud.

A.A.Reformatskiy evfemizmlar taqiqlangan (tabulangan) so'zlar o'rniga qo'llanishga ruxsat berilgan so'zlar¹⁰ deya ta'rif beradi. "Лингвистический энциклопедический словарь"¹¹ da esa evfemizm - bu so'zlovchi nazarida qo'pol, noqulay bo'lgan so'z va ifodalar o'rnida qo'llangan, ularga ma'nodosh bo'lgan emotsional betaraf so'z va ifodalar deyiladi.

Antik davrdan boshlab evfemik ma'no yuklangan ifodalar olimlarda katta qiziqish uyg'otgan.

O.M.Freydenbarg tomonidan chop etilgan "Античные теории языкознания и стиля" nomli asarda "evfemizm" tushunchasi Demokrit, Platon, Aristotel tomonidan ham tilga olinganligi haqida ma'lumotlar beriladi¹².

Aytish mumkinki, bu til birligi haqida qadimgi davrlarda ham bilishgan, ulardan foydalanishgan va hozirga qadar istifoda etishadi.

"Dastlab, evfemizmlar XII-XV asrlarda ingliz tilida paydo bo'lgan. XIV asrlarda fransuz madaniyatida urf bo'la boshlaydi, bu esa tilda ham o'z aksini topadi"¹³ degan qarash ham mavjud.

R.O.Shor ta'biricha, evfemizmlarni jiddiy o'rganish, boshqacha aytganda, ularni "hukmron sinfnig tili" sifatida "fosh etish" ayrim notiqlik kurslarida

⁹ Крысин Л.П. Эвфемизмы с современной русской речи. Русский язык конца столетия. – М.: ЭКСМО, 1996.

¹⁰ Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М.: РАН, 2005.

¹¹ Лингвистический энциклопедический словарь. Под.ред. В.М.Ярцевой. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С. 590.

¹² Античная теория языкознания и стиля. Под. ред. О.М. Фрейденберга. – СПб.: Питер, 1996.

¹³ Потапова Н.М. Краткий обзор некоторых исследований эвфемизмов. Язык, сознание, коммуникация. – М., 2007. – С.28.

eslatilganligi qayd etiladi. Shu boisdan tilshunos B.A.Larin “sho’ro davri uchun evfemizmlarni “fosh qilish”, to’g’ri ma’noli, ba’zan keskin va qo’pol ifodalarga ustuvorlik berish xarakterli” ekanligini ta’kidlaydi¹⁴. Ko’plab uslubshunoslikka doir manbalarda (I.V.Arnold, L.G.Barlas, Yu.A.Belchikov, A.I.Gorshkov, D.E.Rozental, Yu.S.Stepanov), ritorikaga doir qo’llanmalarda (A.A.Volkov, E.N.Zaretskaya, M.N.Kojina, N.N.Koxtev, M.R.Lvov, A.A.Murashov, I.A.Sternin) evfemizm masalasi ko’rilmaydi yoki ko’rilgan holda ham tilda shunday vositalar borligi shunchaki qayd etiladi, xolos. Biroq tilshunoslikka kirish kurslarida bu hodisaga ko’proq diaxronik aspektda yondashuv ustuvorlik qiladi¹⁵.

Xorij tilshunosligida esa evfemizmgga boshqa yondosh hodisalar kriptologiya, jargon bilan teng munosabatda qaralishi e’tiborlidir. Shuningdek, evfemizmlarning yondosh hodisalar (yashirin nutq, kriptologiya, meditsinadagi latinizm, harbiy parollar) bilan qorishtirilgan holatlari ham ko’zga tashlanadi¹⁶. Shu boisdan ularning chegarasini belgilash, yondosh hodisalar sirasidagi o’rnini aniqlash fanimiz oldidagi dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Ingliz tili tarixini o’rgangan olim R.Byorchfild¹⁷ Choser nazmining evfemik birliklari bo’yicha tadqiqot olib borar ekan, evfemizm she’riyatning juda qulay uslubiy vositasi ekanligini e’tirof etadi. R.Byorchfild Choserni birinchi bor o’z ijodida intim munosabatning evfemik shaklini berganligini ta’kidlaydi. Shekspir esa bu yo’nalishni buzgan holda, o’zining obrazlarini his-hayajonli birliklar bilan ifodalab, evfemizmdan faqatgina stilistik bo’yoqni kuchaytirish vositasi sifatida foydalanadi.

XX asrga kelib nafaqat inson a’zolari, balki hayvon va hasharot, kasallik va narsa-hodisalar nomini evfemizmlashtirish ham avj oladi. Chunki jahon urushi davrida odam savdosi, yetimlik, fohishabozlik rivoj topa borgan sari evfemik

¹⁴ Ларин Б.А. Об эвфемизмах . Ученые записки ЛГУ. – Л., 1961.

¹⁵ Ларин Б.А. Об эвфемизмах . Ученые записки ЛГУ. – Л., 1961.

¹⁶ Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка. – М., 2007. -264 с. // <http://urss.ru/cgi-bin/db>.

¹⁷ Burchfild R. Histori of English Language. – London, 1991.

birliklar va argotizmlar ham ko'payib boradi. Ularning ma'noviy xususiyatlari zamon va makonda, insoniyat xatti-harakati va holati bilan bog'liq holda boradi.

Evfemizm qodisasi XX asr boshlarida umumtilshunoslikda J.Vandries¹⁸, L.A.Bulaxovskiy¹⁹ kabi tilshunoslar tomonidan soha bilan bog'liq adabiyotlarda qayd etilganligini ko'rishimiz mumkin. Ularning fikr-muloqazalari evfemizm mohiyati tavsifining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hodisani alohida millat, alohida jins vakillari (masalan, oltoy ayollari nutqi) misolida tadqiq etgan olimlar sirasiga A.N.Samoylovich²⁰, N.A.Baskakov²¹larni kiritish mumkin. Ular evfemizmni ko'pqirrali etnik hodisa sifatida yoritishga harakat qiladilar.

E.A.Agayan²², O.N.Turbachev²³lar ham ma'lum guruh, mentalitet doirasida ushbu jarayonni tadqiq etadi. Masalan, O.N.Turbachev Evropa ovchilari va ov mavsumi bilan bog'liq evfemizmlarning Shvetsiya, Finlyandiya, Estoniya kabi mamlakatlar xalqi nutqida ishlatilishini kuzatsa, E.A.Agayan arman qishloqlari aholisi nutqidagi evfemizatsiya jarayonini o'rgandi. S.Otaev²⁴ turkman tili evfemizmlari, G.G.Musaboev²⁵ qozoq tili evfemizmlari, V.P.Darbakova²⁶ mongol xalqi evfemizmlari, N.G.Mixaylovskaya Uzoq Sharq - Chukot, Xanti-Mansi, Nanay xalqlari tilida uchraydigan evfemizmlarni ilmiy tahlil qilishgan.

¹⁸ Вандриес Ж. Язык. – М.: Учпедгиз, 1937.

¹⁹ Булаховский Л.А. Введение в языкознание, часть II. – М.: Учпедгиз, 1953.

²⁰ Самойлович А.Н. Женские слова у алтайских турков. Язык и литература. Т. III. – Л., 1929. – С. 124; Самойлович А.Н. Запретные слова в языках казах-киргизской замужной жены. – СПб, 1915. – С. 167.

²¹ Баскаков Н.А. Пережитки табу и тотемизма в языках народов Алтая. Советская тюркология. – Баку, 1975. – № 2.

²² Агаян Э.А. Введение в языкознание. – Ереван: Ун-т, 1960. – С. 269.

²³ Турбачев О.Н. Из истории табуистических названий. Вопросы славянского языкознания, вып III. – М., 1958. – С. 12.

²⁴ Отаев С. Эвфемизмы в туркменском языке: автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ашхабад, 1955. – С.27.

²⁵ Мусабоев Г.Г. Хозирги замон козок тили. т. I. Лексика. – Алмата: Қоз.Фан.Ақ. 1959. – Б.29.

²⁶ Дарбакова В.П. Оронимия. МНР. Ономастика. – М.: Наука, 1969. – С. 199-200.

Shuningdek, tuva tilida uchraydigan evfemizmlar borasida S.P.Vanshteyn²⁷, Sh.Ch.Sat²⁸, ingliz tilida uchraydigan evfemizmlar xususida I.V.Arnold²⁹ kabi tadqiqotchilar ham o'z ishlarida ma'lum darajada fikr bildirganlar.

A.A.Reformatskiy³⁰ tabu o'rnida qo'llanilayotgan evfemik birliklarni etnik taraqqiyot bilan bog'liq deb hisoblaydi. Tabuning paydo bo'lishiga turli bid'at va xurofotlar sabab bo'lganligini aytib, evfemizmlar uning nomini yopish uchun xizmat qilishini ta'kidlaydi.

R.A.Budagov³¹ tabuning paydo bo'lishiga insoniyatning e'tiqodi turtki bo'lganligini va bu ma'lum ma'noda tafakkur rivojining asosi ekanligini e'tirof etgani holda, evfemizm yuzaga kelishida muhim omil emas deb hisoblaydi. Chunki tabu boshqa sabablarga ko'ra vujudga kelgan. Evfemizm esa nutqiy madaniyat yuzasidan aytish noqulay bo'lgan vaziyatni yumshatish uchun qo'llanadi. Masalan, aqlli bo'lmagan insonning ko'ngliga ozor bermaslik uchun *u ne izobremem nopoха* deyilishni ta'kidlaydi.

Evfemizm hodisasi B.A.Larin (1961)³², A.M.Katsev (1977), N.Ts.Boschaeva (1989), L.V.Artyushkina (2002), G.G.Kujim (2003), A.G.Tadjibaeva (2006) va boshqa tilshunos olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, uning turli nuqtai nazardan har xil jihatlari yoritilgan. Masalan, L.V.Artyushkina³³ evfemizmning almashinishini va semantik tipini tadqiq etgan bo'lsa, N.Ts.Boschaeva³⁴ tomonidan uning pragmatik aspekti batafsil o'rganiladi. G.G.Kujim³⁵ evfemizmi tilning "meliorativ" vositasi sifatida

²⁷ Ванштейн С.П. Личные имено-термины родства и прозвища у тувинцев. Ономастика. – М.:Наука, 1969. – С. 128-131.

²⁸ Сат Ш.Ч. Табу и эвфемизмы в тувинском языке. Советская тюркология. – Баку, 1981. – С. 266.

²⁹ Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М.: Высш.шк. 1959. – С.12-55.

³⁰ Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М.: РАН, 2005.

³¹ Будагов Р.А. Введение в науку о языке. – М.: Индрик, 2003.

³² Ларин Б.А. Об эвфемизмах. Ученые записки ЛГУ. – Л., 1961.

³³ Артюшкина Л.В. Семантический аспект эвфемистической лексики в современном английском языке: Дисс...канд. филол. наук. – М., 2002.

³⁴ Босчаева Н.Ц. Контекстуальная эвфемия в современном английском языке. – Л.: Наука, Ленингр.отд., 1989.

³⁵ Кужим Г.Г. Универсальный лингвистический закон триады: дисс...канд. филол. наук. – Армавир, 2003.

yoritsa, A.M.Katsev³⁶ uni ijtimoiy psixologik-jiqatdan talqin etadi. qayta nomlash bilan boqliq tomoni esa N.M.Berdova³⁷ tomonidan tadqiq etiladi va izlanishlar natijasida evfemizmning 4 jihati aniqlanadi:

- lisoniy;
- psixologik;
- ijtimoiy;
- pragmatik.

N.M.Potapova mazkur tilshunoslar tadqiqotlariga tayanib, ayni jarayonning quyidagi belgi (mezon) larini ko'rsatadi:

- denotatning stigmatikligi (salbiy bo'yoqdorligi)³⁸ ;
- ijobiy bo'yoq hosil qilish;
- ifodaning asliyatini saqlash³⁹.

E.P.Senichkina qo'shimcha belgilarini ham ko'rsatadi:

- evfemizmning denotat salbiy bo'yoqini yumshatuvchi semantik noaniqligi;
- evfemizmning denotatni ijobiylashtirishda gap qaysi predmet yoki hodisa haqida ketayotganligining anglashilishini ta'minlovchi formal tabiati.

U ushbu o'lchovlarga javob bermagan ifoda evfemizm emasligini va bu fikrga shu hodisani o'rganishga harakat qilgan barcha olimlar qo'shilishini ta'kidlaydi⁴⁰.

V.P.Moskvin «Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка» asarida evfemizmlarning kategorial maqomi, evfemizatsiya usulining qo'llanish doirasi, shuningdek, evfemizmlarning qator yondosh yodisa (psevdoevfemiya, kriptologiya, ezop tili, dezinformatsiya, obrazli ifoda)lar bilan

³⁶ Кацев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке. – Л.:Наука, 1977.

³⁷ Бердова Н.М. Эвфемизмы в свете теории вторичной номинации: Дисс... канд. филол. наук. – М., 1998.

³⁸ «Стигма» тушунчаси Н.М.Бердова тадқиқотида шарҳланади: «Стигма остида нафакат предметнинг антецедентда акс этган салбий хусусияти, балки салбий таассурот уйғотиш хоссалари ҳам тушунилади».

³⁹ Потапова Н.М. Эвфемизмы в языке и речи (на материале англоязычного делового дискурса): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – М., 2008. – С. 9.

⁴⁰ Сеничкина Е.П. Эвфемизмы русского языка. – М.: Высшая школа, 2006. – С. 19.

o'zaro munosabatini tadqiq qildi. Evfemizmlarning mavzuviy va situativ xususiyatlari, qo'llanishi, yasalishi, sinonimik qamda boshqa leksik tizimdagi o'rni, lison va nutqqa munosabati, leksikografik tavsifiga doir fikrlarini bayon etdi⁴¹.

O'zbek tilshunos olimi A.Hojievning 2002 yilda qayta nashr qilingan "Lingvistik terminlar izohli lug'ati"⁴² da evfemizmgacha: "Evfemizm (grek. euphemismos; eu – "yaxshi", phemi – "gapiraman") narsa-hodisaning ancha yumshoq formasidagi ifodasi; qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol bo'lmagan, botmaydigan so'z, iborani qo'llash. Masalan, ikkiqat so'zi o'rnida homilador, og'ir oyoqli so'zlarini qo'llash"⁴³ ta'rif beriladi.

Tilshunos A.A.Tadjibaeva ingliz tilidagi evfemizmlarning sotsiokultur va kognitiv aspektlarini lingvistik tadqiq qildi⁴⁴ va h.k. Va biz ana shunday qator tadqiqotlar, nazariy qarashlarni misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tilda gaplashuvchi xalq ruhiyatining o'z so'zlari leksik ma'nosi taraqqiyotida aks etishi deb qaraladigan evfemizm va tabu hodisalari tadqiq etilar ekan, shu xalqning udumi, dunyoqarashi, irim-sirimlari - umuman ruhiyati e'tiborda tutilishi darkor bo'ladi.

Qolaversa, evfemizmning mohiyatiga tushunish uchun avvalo uning lug'aviy ma'nosiga e'tibor berishga to'g'ri keladi. Mavjud so'zga evfemistik ma'no yuklanar ekan, bu ma'no qo'llanmay qolgan so'zning ma'nosi bo'ladi. Ya'ni u leksik sathga mansub hisoblanadi. Uni asosan tabu bilan bog'laydilar. Tabuga uchragan so'z yoki ibora o'rnida to'g'ridan-to'g'ri evfemizm qo'llanadi, ya'ni ma'lum so'zga tabuga uchragan lug'aviy birlikning ma'nosi yuklanadi, u evfemistik ma'no bo'lib qoladi.

⁴¹ В.П.Москвин. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка. – М., 2007. – С. 264.
// <http://urss.ru/cgi-bin/db>.

⁴² Хожиев А. Тилшунослик терминларнинг изоҳли луғати. – Т.: Фан, 2002. – Б. 146.

⁴³ Хожиев А. Тилшунослик терминларнинг изоҳли луғати. – Т.: Фан, 2002. – Б. 109.

⁴⁴ Таджибаева А.А. Социокультурные и когнитивные аспекты лингвистического исследования эвфемизмов в английском языке: Автореф. канд. дисс.... филол.наук. – Т., 2006. – С. 25.

Avvalgi va hozirgi kunda qiliniyotgan tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib, evfemizm faqat tabuga uchragan so'zlar ma'nosini ifodalash bilan chegaralanmaydi, uning sodir bo'lish imkoniyati ancha keng, shuningdek, evfemizm tabuga uchragan, dag'al, qo'pol, takallufsiz so'zlar o'rnida silliq, yoqimli, madaniylikka ega so'zlarni qo'llash orqali yuzaga keladi, evfemizm va tabu ikkisi bir butunlikni tashkil etishi mumkin, ular o'zaro bir-birini taqazo etadi, qolaversa bir-birini to'ldirib keladi, deb ham aytish mumkin.

1.2. O'zbek tilshunosligida evfemizm hodisasi

Til tarixiy, serqirra hodisadir. Ular bir kasb egasi uchun, har bir inson uchun aqliy, ma'naviy va madaniy ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilshunosligi o'zining o'rganish obyektiga va tekshirish metodiga azaldan ega bo'lganligini dalillash mumkin.

O'zbek tilshunosligida evfemizm atamasini 1963-64 yillarda N.Ismatullayevning "Hozirgi o'zbek tilida evfemizmlar"⁴⁵ nomli dissertatsiyasi orqali o'rnashgan bo'lib, olim o'sha yillarda chop etilgan maqolalarida mavjud hodisa haqidagi mulohazalarini bayon qiladi. U ham evfemizmning paydo bo'lish tarixiga to'xtalib, tabu bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Shuningdek, evfemizm tasnifi xususida turli tilshunos olimlar qarashlariga fikr bildirib, o'z ishlarida uning yaratilish sabablariga ko'ra tasnifini taklif etadi.

Tilshunos M. Mirtojiyevning "O'zbek tili semasiologiyasi" monografiyasida tabu va evfemizm hodisalarining munosabati, ularning o'rganilish tarixi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Olim evfemik ma'noning hosila ma'no ekanligi, bu hosila ma'nolar metaforik, metonimik usullarda vujudga kelishini, sinekdoxik va vazifadoshlik asosida evfemik ma'no

⁴⁵ Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. - Ташкент, 1963. - С.19.

paydo bo'lmashligini ta'kidlaydi⁴⁶. 1997 yilda A.Omonturdiev evfemizmni "uslubshunoslikning tadqiqot ob'ekti sifatida allaqachon o'z yechimini topishi kerak bo'lgan mavzu"⁴⁷ sifatida keng doirada o'rganib, o'zbek nutqining evfemik asoslarini tadqiq qiladi. U ham yuqoridagi fikrga qo'shilgan holda, evfemizmlarni etimologik, ijtimoiy-madaniy aspektda o'rganish kerak deb hisoblaydi. Evfemik ma'noning evolyutsiyasiga, yondosh hodisalarga va til sathiga munosabatiga e'tiborini qaratadi. Shu bilan birga, uni qo'llanish darajasiga ko'ra umumnutqiy va xususiy nutqiy evfemizmga ajratib, ifoda usullarini o'rganadi. Tasnifiy xarakterdagi bu izlanish o'zbek tili nutqining evfemik birliklari haqida ko'proq amaliy ma'lumot beradi.

Aytib o'tish kerakki, evfemizm xususida tilshunos olimlar tomonidan yo'l- yo'lakay ham fikrlar bildirilib, unga turli tomondan yondoshilgan. Masalan, H. Shamsiddinov so'zlarning evfemik funksional-semantik sinonimlari⁴⁸ haqida fikr-mulohazalarini bildirsa, A.E.Mamatov doktorlik ishida frazeologizmlarning evfemik va disfemik shakllanishiga alohida to'xtaladi⁴⁹. Shuningdek, ayrim badiiy til bilan bog'liq ishlarda ham til birliklarining evfemik ma'nosiga e'tibor qaratiladi. Jumladan, "Boburnoma" leksikasini maxsus tadqiq qilgan olim Z.Xolmonova⁵⁰ unda qo'llangan evfemizmlar xususida ayrim fikrlarni bayon etgan. Tilshunos M. Mirtojiyevning "O'zbek tili semasiologiyasi" monografiyasida evfemizmlarga maxsus o'rin ajratilgan⁵¹. A.Hojiyevning 1985 yilda qayta nashr qilingan "Lingvistik terminlar izohli lug'ati"da evfemizmga izoh beriladi⁵². Ma'lum bo'ladiki, evfemizm o'zbek tilshunosligida disfemizmga nisbatan kengroq o'rganilgan bo'lib, bugungi kunga qadar yuqorida sanab

⁴⁶ Миртожиев М. Узбек тили семасиологияси. - Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. - Б. 119-127.

⁴⁷ Омонтурдиев А.Ж. Эвфемик воситаларнинг функционал-услугий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди...дисс. - Тошкент, 1977. - Б. 176.

⁴⁸ Шамсиддинов Х., Сузларнинг эвфемик функционал-семантик синонимлари // Узбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1997. - № 6. - Б. 22.

⁴⁹ Маматов А.Э. Узбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фанлари доктори ... дисс. - Тошкент, 1999.

⁵⁰ Холмонова З.Т. Бобурнома лексикаси тадқиқи: Филол фанлари доктори ... дисс. автореф. - Тошкент, 2009.

⁵¹ Миртожиев М. Узбек тили семасиологияси. - Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. - Б. 119-127.

⁵² Хоржиев А. Лингвистик терминларининг изошли лугати. - Тошкент: Уқитувчи, 1985. - Б. 109.

o'tilgan olimlar tomonidan uning asosiy nutqiy xususiyatlari tadqiq etilgan. Hozirgi kunda tilshunoslikda evfemiya hodisasi va evfemizmlar borasida qator tadqiqotlar olib borilgan. Lekin, o'zbek va rus tilshunosligida bu hodisaning o'rganilish salmog'i katta bo'lsada, tilshunoslik doirasida uning talqin etilishida yakdillik kuzatilmaydi. Ko'pchilik olimlarning diqqati evfemizmnining ta'qiq va niqoblash vazifasini bajarish xususiyatiga ega ekanligiga qaratilgan bo'lishiga qaramasdan, evfemiyaning yagona interpretatsiyasi (ma'nosi) yo'qligini ta'kidlashadi.

Ne'mat Ismatullayev birinchi bo'lib tabu va evfemizm hodisasiga doir boy ma'lumotlar to'plagan, ularga munosabat bildirib umumlashtirgan, tabu va evfemizm hodisasini yoritgan, ilmiy va amaliy jihatdan asoslagan. N.Ismatullaev o'zbek tilidagi evfemizmlarning paydo bo'lish sabablari haqida gapirgach, ularni tasnif qiladi, guruhlaydi va har bir sotsial qatlam nutqida qo'llanadigan evfemizmlarning muomaladagi ahamiyatini, lug'at tarkibini boyitishdagi qimmatini tahlil qilib, ilmiy-amaliy xulosalarga kelgan⁵³. Natijada bu ish shu soha bilan bog'liq masalalarni, jumladan, evfemizmlarni keyingi bosqichda, ya'ni uning funksional uslubiy xususiyatini monografik rejada o'rganishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tabu va evfemizm mavzusi ana shu mavjud ishlardan ijodiy foydalanilgan holda birinchi marta 1983 yilda oliy maktab uchun tuzilgan "O'zbek tili stilistikasi" nomli darslikda ancha keng yoritilgan. Unda mualliflar tabu va evfemizmlarga doir umumiy ma'lumot berish bilan birga, uning nutq vositasi sifatida ahamiyati, hatto kontekstual individual evfemizmlar haqida ham to'xtalib o'tgan⁵⁴. Tabu va evfemizm ibtidoiy din, ongi ojiz odamlarning g'ayritabiiy dunyoqarashi, xurofot, bid'at, rasm-rusumlar ta'sirida paydo bo'lgan eskilik qoldiqlari bo'lib, jamiyatning keyingi taraqqiyotida -

⁵³ Исматуллаев Н. Хозирги узбек тилида эвфемизмлар: ТошДПИ Илмий асарлар туплами. Т.42. 1-китоб. - Т., 1963. - Б. 8,19-28, 3-59.

⁵⁴ Шомақсудов А. ва бошқ. Узбек тили стилистикаси. - Т.: Ўқитувчи, 1983. - Б.66.

madaniylashgan bosqichlarida yo'q bo'lib boradi, degan qarashlar⁵⁵ o'zini oqlamaydi. Tabu va evfemizmning paydo bo'lishidagi sabab, zaruriyat va qonuniyatlar, ularning evolyutsion taraqqiyoti, tabulashtirish asoslari, xarakteri, evfemizmlarning o'rganish ob'ekti, mezon va me'yorlari, ko'lami, chegarasi, til tizimi (sathi)ga munosabati, evfemizmning shakllanishida, evfemik ko'chishda metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlikning roli; evfemik ma'noning 1) omonimiya, polisemiya, sinonimiyaga munosabati; 2) nutqning badiiy vositalari (frazologiya, maqol, matal, aforizm, epitet, allegoriya kabi), ya'ni leksik-sintaktik figuralar, ekspressiv-emotsional ifodalarga munosabati, qisqasi, uslubiy funksional xususiyatlari tasnifi va tasniflash asoslari, o'rganish metodlari kabilar ilmiy rejada ishlanmagan. Ayrim manbalarda evfemik vositalar tor doirada, til fakti, passiv leksik birlik deb qaralgan⁵⁶. Holbuki, evfemik hodisa tilning muayyan bir sathida, til sifatidagina emas, balki nutqiy qatlam, ya'ni semantik-funksional metodga asoslangan badiiy tasviriy vositalar: trop yoki leksik-sintaktik figuralar sifatida tahlil qilingan. Tilning taraqqiyoti bilan uning evfemik qatlami ham rivojlanib boradi. Yangi axloq-odob, yangicha dunyoqarash normalari asosida tabulashtirishning, shu tufayli qo'llaniladigan evfemalarning ham yangi-yangi formalari maydonga keladi. Bunda ibtidoiy tabulashtirish talablaridan farqli o'laroq aytilishi norma bo'lib kelgan ko'pgina so'z va iboralar o'rnida unga (oldingisiga) nisbatan yanada qulay, so'zlovchi va tinglovchi uchun yanada yoqimliroq bo'lgan iboralar qo'llanadi. Inson nutqi uning ehtiyojidan orqada yurganidek, evfemalar ham qanchalik go'zal, beozor, nozik ma'no ifodalamasin, u tabulashtirilgan tushunchalarning salbiy mohiyatini - xossasini to'la yorit olmaydi, xotiradan bartaraf qil olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, aytilishi uyat yoki biror ko'ngilsiz, noxush dahshatli voqelik qanchalik tabulashtirilmasin, unga nisbatan yangi-yangi evfemalar kodlanmasin,

⁵⁵ Кацев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке. - Л.: Наука, 1977. - С.17.

⁵⁶ Ергазиева Н.И. Взаимосвязи прозвищ, табу и эвфемизмов в казахском языке. Ономастика Узбекистана. -Т.: ИЯЛ АН Уз ССР. - 1989. - С. 120.

o'sha uyat yoki noxush voqelik - tushuncha (a'zodagi yomon o'simtadek) o'zini namoyon qilaveradi. Masalan, *nomusiga tegibdi, zo'rlabdi* evfemalari o'sha uyat so'zlarni va u orqali anglashiladigan tushunchani xotiradan bartaraf qilolmaydi. Shu bois ham nutqda noqulay, noxush tushunchalarni beozor formada ifodalashga moyillik borgan sayin kuchayib boraveradi, buni til egalarining tabiiy va zaruriy ehtiyoji, muayyan axloq normalari boshqaradi. Ijtimoiy tasnif evfemizmlar mohiyatini ochishda o'ziga xos o'rin tutadi. U so'zning ma'lum ijtimoiy guruhga tegishliligi asosida amalga oshiriladi. Misol tariqasida B.A. Larin⁵⁷ tasnifini keltirish mumkin. Ayrim tadqiqotchilar tomonidan evfemizmlarning lingvistik tasnifi ham amalga oshirilgan. O'rganilayotgan hodisaning tasnifi o'zbek tilshunoslarining e'tiboridan ham chetda qolmagan. N. Ismatullaev⁵⁸ evfemizmlarni 5 yirik guruhga ajratadi. Bular tabu bilan bog'liq evfemizmlar, bid'at, irim qilish bilan bog'liq evfemizmlar, ma'nosi qo'pol, aytish noqulay bo'lgan so'z va iboralar o'rnida qo'llanadigan evfemizmlar, nutqiy bezaklilik, ko'tarinkilik va diniy maqsadlar uchun qo'llanadigan jargon evfemizmlar, stilistik evfemizmlardir. Semantik guruhlariga ajratilgan ifodalar tasnifi esa A.Omonturdiev⁵⁹ tomonidan tadqiq qilingan ilmiy ishda o'z aksini topgan.

Olima N.G'aybullaeva ham tibbiyotga doir madaniy nutqning vazifaviy tavsifini berishda evfemizmlarning tibbiyot xodimlari nutqida ijtimoiy, psixologik, lingvistik aspektlari o'rnini aniqlagan. Uning fikricha "Evfemizm - milliy-mental xoslikni namoyon etuvchi til birligi. Tillarning evfemizm faol hosil qilinadigan leksik-semantik maydonlarini qiyoslash tabu tizimidagi farqni, odob va odobsizlik haqidagi tasavvurlarni, millatning lisoniy manzarasida lingvokulturologik xoslikni ko'rsatadi. har bir til o'ziga xos ifoda tarziga ega."⁶⁰

⁵⁷ Ларин Б.А. Об эвфемизмах. Ученые записки ЛГУ. - Л., 1961. - С. 56.

⁵⁸ Исмаиуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дис...канд. филол. наук. - Т.: - 1963. - Б. 78.

⁵⁹ Омонтурдиев А.Ж. Эвфемик воситаларнинг функционал-услугий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ...дисс. - Тошкент, 1977. - Б. 176.

⁶⁰ Гайбуллаева Н.. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар. Филол фанлари бўйича фалсафа доктори ... дисс. автореф. Бухоро, 2019. - Б. 17.

Sh.Gulyamova evfemizmlarning genderlik xususiyatiga xos qirralarini o'rganib, quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi: "Tilimizda ham evfemizmlar, asosan, xushxulqlik tamoyili asosida paydo bo'ladi. Evfemizmlar serqirra va keng qamrovli hodisa, u nafaqat tabu so'zlar o'rnida, qolaversa, aytish noqulay bo'lgan birliklar ma'nosini yumshatib ifodalash uchun ham qo'llaniladi. Qayd etilgan so'zlarning ko'pchiligi har doim ham evfemizm bo'lib xizmat qilolmaydi⁶¹. Haqiqatdan ham barcha leksik birliklarning evfemistik xususiyatga ega ekanligini faqat muloqot holatidan kelib chiqqan holda tushunish mumkin.

Yuqorida berilgan fikrlarni umumlashtirib va ularga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, o'zbek tilida evfemizm natijasida yuzaga kelgan shunday hosila ma'nolar borki, ular leksik ma'noviy tushunchalarni ifodalaydi va umumlashgan xarakterga ega bo'ladi. Evfemizmning mohiyatiga tushunish uchun avvalo uning lug'aviy ma'nosiga e'tibor berishga to'g'ri keladi. Mavjud so'zga evfemistik ma'no yuklanar ekan, bu ma'no qo'llanmay qolgan so'zning ma'nosi bo'ladi, ya'ni u leksik sathga mansub hisoblanadi. Evfemizm semantik hodisa deb tushuniladi va u semasiologiya obyekti sifatida qaraladi, deb xulosa qilish mumkin.

1.3. Zamonaviy fransuz tilshunosligida evfemizm va tabu hodisalari

Aslida til va nutq o'rtasida o'zaro yaqin, zich aloqa mavjud, ya'ni til nutq asosida tashkil topadi, "o'sadi", boyiydi va nutqda yuzaga chiqadi. Til bir vaqtning o'zida ham asos, ham nutq mahsulidir.

Til, xususan, chet tili ham va uni o'rganish ham - tabiiy ehtiyoj tufayli yuzaga kelgan ijtimoiy hodisa. Chet tilini o'rganish turli qabila va xalqlar o'rtasida aloqa qilish zaruriyati asosida vujudga kelgan. Qabilalar, har xil xalqlar asosida tashkil topgan davlatlarning paydo bo'lishi chet tiliga yoki uni bilishga

⁶¹ Гулямова Ш. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари. Филол фанлари бўйича фалсафа доктори . дисс. автореф.– Бухоро, 2019. – Б. 14.

harbiy va siyosiy tus kasb etgan. Davlatlar o'rtasida savdo - sotiq, tijorat ishlarining rivojlanishi tufayli chet tiliga bo'lgan ehtiyoj ham tobora ortib boradi.

Mashhur chet el olimi, aniqroq qilib aytsak fransuz tilshunosi Sh.Balli to'g'ri ta'kidlaganidek, "til orqali ifodalangan har bir fikr mantiqiy, psixologik va lisoniy jihatdan aniqlanadi", baholanadi. Ushbu fanlarning har biri gapni o'z nuqtai nazaridan o'rganadi. Bu - aksioma. Aristotel to'g'ri qayd etganidek, "Har bir nutq fikr ifodalaydi, ammo hamma nutq ham o'zida hukmni tashimaydi". Til va tafakkur o'zaro bog'lik, ammo ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, jihatlariga ega bo'ladi.

Aytish joizki, uyg'onish davrida, dastavval, dunyo tillari haqidagi ma'lumotlar ancha ko'paydi. Tilshunoslik fanining keyingi taraqqiyoti uchun muhim va zarur bo'lgan lisoniy materiallarni, faktlarni to'plash, yig'ish jarayoni amalga oshirildi.

Davr rivoji, millatlar va milliy tillarning yuzaga kelishi, milliy iftixor kabilar qator tillarning grammatikasini tuzishga, yaratishga undadi.

1660 yilda Parij atrofida Por-Royal monastirining rohib olimlari mantiqshunos Anton Arno va tilshunos Klod Lanslolar ilk bor "Umumiy ratsional grammatika" asarini fransuz tilida yaratib, Parijda nashr qildilar. Por-Royal grammatikasi qadimgi yunon, qadimgi yahudiy, lotin va fransuz tillari materiallari asosida yaratildi.

Fransuz tilida tabu va evfemizmlar tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy ishlar mavjud bo'lib, fransuz tilshunosligida evfemizmlar maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilib kelmoqda. Ilmiy adabiyotlarda mazkur muammoning ba'zi jihatlar haqida ham to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalarida, ko'plab ilmiy maqolalarda evfemizmlar va ularning nutqdagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Tadqiqot davomida, avvalo, evfemizm atamasining fransuz tilidagi variantini izlashga kirishadigan bo'lsak, evfemizm atamasiga fransuz tilidagi "Encyclopédie ou dictionnaire raisonné des sciences,

des art et des métiers recherche” nomli kitobda quyidagicha quyidagicha ta’riflangan :

*“L’euphémisme est un trope, puisque les mots n’y sont pas pris dans le sens propre: c’est une figure par laquelle on déguise à l’imagination des idées qui sont ou peu honnêtes, ou désagréables, ou tristes, ou dures; pour cela on ne se sert point des expressions propres qui exciteroient directement ces idées.”*⁶²

Internet saytlaridagi elektron lug’atlarda esa quyidagicha ta’rif berilgan:

“L’euphémisme est une atténuation dans l’expression de certaines idées ou de certains faits dont la crudité aurait quelque chose de brutal ou de déplaisant. (Exemple : il s’est éteint, il est parti pour un monde meilleur, etc., à la place de « il est mort ».)”

S.Debrasning “Des journaux et des femmes. Communication et langage, S.Brunetning “Les mots de la fin du siècle” (1996) nomli asarlarida evfemizmning ayollar nutqidagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, tilshunos Widlak Stanislasning “Revue belge de philologie et d’histoire” (T.,1965) kitobining 43- tomida zamonaviy fransuz tilshunosligida “evfemizm” va “tabu” tushunchalari, mazkur tushunchalarning shakllanish tarixi va paydo bo’lish sohalari haqida to’xtalib o’tilgan.

S.Brunet shuni qayd etadiki, evfemizm birliklarining kuchayishi, yoki o’ta xushmuomalalik, demokratik normaga zid bo’lib, ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradi⁶³.

Ma’lumotlarda keltirilishicha, “... muayyan odob-axloq me’yorlari va muayyan aqidalar nuqtai nazaridan ochiq, aytish ta’qiqlangan qo’pol, beparda so’z va iboralar *tabu* deb ataladi. “Tabu” polineziya tillariga xos bo’lib, qator gumanitar fanlarda “ta’qiqlangan narsa, xatti-harakat, so’z”, “umuman, qat’iy ta’qiq” degan ma’nolarda ishlatiladi. Madaniyroq gapirish kerak bo’lgan o’rinlarda tabu xususiyatiga ega bo’lgan so’z va iboralar odob-axloq

⁶² “Encyclopédie ou dictionnaire raisonné des sciences, des art et des métiers recherche”, accueil mises en garde, 1997, page 6: 207

⁶³ Brunet S. Les mots de la fin du siècle. Paris: Edition Bélin, 1996. – P. 254.

me'yorlariga mos, ma'noni yashirib ifodalovchi qulay so'z va iboralar bilan almashtiriladi. Aytilishi qaysidir jihatdan ta'qiqlangan til birliklari o'rnida qo'llanuvchi bunday yumshoqroq, madaniyroq so'z va ifodalar "*evfemizm*" deb yuritiladi. Bu atama qadimgi yunoncha qo'shma so'zdan olingan bo'lib, "yaxshi gapiraman" degan ma'noni anglatadi"⁶⁴. Bilamizki, taraqqiyotining turli davrlarida, ayniqsa, kishilik jamiyatining ibtidoiy bosqichlarida ba'zi bir narsalar, harakatlar man etilgan. Ana shunday man qilish hodisasi "*tabu*" deb ataladi.

Tilshunoslikdagi "taqiqlangan" yoki "man etilgan" so'z va iboralar hayotning turli ijtimoiy davrlariga qarab o'zgarib boradi. Bunda jamiyatning tabaqalanishini, ya'ni ibtidoiy jamiyat va rivojlangan jamiyatdagi o'ziga xos tilshunoslik ta'qiqlarini ham e'tirof etish kerak.

Tilshunoslikdagi "ta'qiqlangan" yoki "man etilgan" so'z va iboralarning paydo bo'lishi ijtimoiy hayotning turli bosqichlarida insoniyat tafakkurining rivojlanishi, tilning ijtimoiy hodisa va jamiyat mavjudligining asosiy mezonini ekanligi bilan bevosita bog'liq. Hamma davrlarda ham tilshunoslar uchun "*tabu*" va "*evfemizm*" tabiatini o'rganish va ular o'rtasidagi chegarani aniqlash biroz qiyinchilik tug'dirgan.

Aytish joizki, *tabu* *evfemizm*dan farqli o'laroq voqea-hodisani butun, atroflicha qamrab olib, u shunchaki nutq hodisasi bo'lmay, balki jamiyat yoki yakka shaxsning harakatlari, xulq-atvori, muomalasi, yurish-turishi, urf-odatlarini va boshqa turdagi xususiyatlarni ham qamrab oladi. "*Evfemizm* tushunchasi esa sof holda tilshunoslik hodisasi ekanligi bilan xarakterlanadi. Ilk odamlar muayyan davrlarga, yoxud sharoitlarga qarab nafaqat so'zlarni, balki harakatlar va ishlarni ham sir tutishlari lozim bo'lgan. Jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida kishilar o'rtasida jin, arvoh va shunga o'xshash ilohiy narsalarga ishonish juda kuchli bo'lgan. Bunday xalqlar jin va arvohlarga yaqin bo'lgan

⁶⁴ "Табу" ва "эвфемизм" атамаларининг келиб чиқиши ҳақидаги маълумотлар олинди: Словарь иностранных слов. – М.: "Русский язык", 1988. – С.483 и 570.

shaxs yoki predmetning nomi tilga olinmasa, ulardan saqlanish mumkin, deb o'ylashgan. Qadimgi xalqlarda, shuningdek, hozir ham qabila bo'lib yashayotgan xalqlarda qabila boshliqlari o'lgandan keyin ularning narsalariga tegish, ularning nomini tilga olish man etilgan. Agar ularning narsalariga tegilsa yoki bu narsalarning nomi tilga olinsa, arvohlar, jinlar urib ketadi, biror zarar yetkazadi, deb tasavvur qilganlar. Xuddi shuningdek, ayrim yirtqich, zaharli hayvonlarning nomlarini aytish ham man etilgan. Go'yo bunday hayvonlarning nomi tilga olinsa, zarar yetadi deb hisoblashgan. Tabu qoldiqlarini hozir ham uchratish mumkin. Demak, tabulashish faqatgina so'zda aks etmay, bu barcha hayot jabhalarini ham qamrab olgan⁶⁵. Haqiqatdan ham, tilshunoslikda tabu tushunchasi odatda evfemizm bilan yonma-yon keladi va bunda evfemizm tabuni aks ettirish aspekti hisoblanadi. Tabu diniy, sehr-jodu bilan bog'liq yoki irim, xurofotni o'zida aks etgan ibtidoiy davrga tegishli ta'qiqlanish, deb tushuniladi.

Tarixga nazar solar ekanmiz, evfemizm esa tilshunoslik hodisasi bo'lib, rivojlangan jamiyatda paydo bo'lgan deb fikr yuritiladi. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda evfemizm xususida ko'plab fikrlar mavjud.

E.Tyurina evfemizmga quyidagicha ta'rif beradi: "Evfemizm bu - aytilishi noqulay bo'lgan til birliklarining, ba'zi hollarda esa qaysidir jihatdan ta'qiqlangan, odobsiz deb topilgan qo'pol, dag'al, yoqimsiz so'z va iboralarning boshqa so'z va ifodalar bilan pardali, yumshoq aks ettirilishidir"⁶⁶.

Olima I.Zabodkina shunday yozadi: "Evfemizm o'zida ko'plab ijobiy xislatlarni jamlaydi bular: xushmuomalalik, nazokat, muloyimlik, odob va h.k."⁶⁷.

Olima N.S. Arapova evfemizmni "Qo'pol, yoqimsiz haqiqatni yumshoq

⁶⁵ Widlak Stanislas. L'interdiction linguistique en français d'aujourd'hui. In: Revue belge de philologie et d'histoire, tome 43, fasc. 3, 1965. Langues et littératures modernes - Moderne taal- en letterkunde. – P. 932-945;

⁶⁶ . Тюрина Е. Е. Семантический статус эвфемизмов и их место в системе номинативных средств языка. Н. Новгород, 1998. – С. 127.

⁶⁷ Заботкина В.И. Новая лексика в современном английском языке. - М.: Высшая школа, 1999. – С. 137.

yoki obrazli ifodalamoq”,- deb aytadi⁶⁸.

I.R. Galperin esa evfemizm haqida “ Evfemizm bu- soʻz yoki gap boʻlib, yoqimsiz soʻzni almashtirish, uni muqobil holatda ifodalash uchun ishlatiladi”, - deb yozadi⁶⁹.

L. Krisin yozadi: “Evfemistik almashuv kommunikativ konfliktlar va omadsizliklardan qochish uchun ishlatiladi yoki qoʻllaniladi, bu esa suhbatdosh bilan kommunikativ noqulayliklar keltirib chiqarmaydi”⁷⁰.

I.L. Vasilyevich evfemizmni ijtimoiy munosabatlarda yoqimsiz soʻz va ifodalardan qochish deb xarakterlaydi⁷¹.

Shuni taʼkidlash kerakki, tilshunoslikdagi taʼqiqlangan yoki man etilgan soʻz va iboralarni butunlay toʻxtatishning iloji yoʻq. Chunki tabu tushunchasi ibtidoiy jamiyatda mavjud boʻlgani kabi hozir ham zamonaviy jamiyatda aks etadi. Faqatgina uning paydo boʻlish, u yoki bu sababga koʻra tashkil topish xususiyatlari oʻzgarishi mumkin.

“Ijtimoiy oʻzgarishlar asoslariga qarab “tabu” soʻzining semantik doirasi kengayadi: irim – xurofot tabiatiga asoslangan taʼqiqlanishlardan umumiy taʼqiqlanishlarga, shuningdek, “ilohiy”, “muqaddas”, “tabarruk” deb anglashilgan tushunchalardan “oʻrinsiz, ishlatilishi noqulay” tushunchalar shakliga oʻtiladi”⁷².

Tabu tushunchasi tilshunoslikda oʻz qiymatini saqlab qoldi va u zamonaviy tilshunoslikda “man etilgan”, “taʼqiqlangan” soʻz va tushunchalarni ifodalaydi.

“Tabu” va “evfemizm” tushunchalari ijtimoiy va moddiy madaniyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridan to bugungi davrgacha mavjud boʻlib, bir-

⁶⁸ Арапова Н.С, Эвфемизмы. Лингвистический энциклопедический словарь –М Просвещение, 1990. – С. 248.

⁶⁹ Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. - М.: КомКнига, 2005. – С.144.

⁷⁰ Крысин Л.П. Эвфемизмы в современной русской речи // Русский язык конца XX столетия (1985-1995). - М.: Языки русской культуры, 1996. – С. 64-72.

⁷¹ Василевич Е.М. Словарь социолнгвистических терминов. - М., 2006. – С. 312.

⁷² Tabou, totémisme et méthode comparative, ibid., 2^e série, Paris, 1909 ; A. NICEFORO, Le génie de l'argot, Paris, 1912 ; Ch. BRUNEAU, Euphémie et euphémisme, in Festgabe E. Gamillscheg, Tubingue, 1952. – P.12-13.

birini o'zaro to'ldiradi. Ibtidoiy, ilk davrlardagi tabularni tahlil qilish jarayonida tabu yo'nalishi o'zgarganligini ko'rish mumkin. Endilikda tabu so'zlar deb diniy, irimchilik (g'ayritabiiy maxluqotlar, xavfli hayvonlar va qisman diniy amaliyotlar)dagi so'zlar emas, tilshunoslikda ta'qiqlangan, qo'pol, beparda so'zlar yoki evfemizm qo'llanishi lozim bo'lgan sohalardagi so'z va iboralar tushuniladi.

Masalan, fransuz tilidagi "*le diable*" ("*iblis*") so'zining turli xil evfemik birliklar bilan ishlatilish holatini kuzatish mumkin:

diantre, diatre, le malin (mug'ombir),

le vilain (juda yomon),

l'adversaire (dushman),

l'ennemi(g'anim),

le compère (olg'ir, uddaburon),

le cousin (amakivachcha),

le mauvais esprit (iblis, shayton, jin).

Bu kabi lingvistik ta'qiqlanishlar bugungi kunda tildan g'oyib bo'layotganligini e'tirof etish mumkin. Masalan, birgina misol qilib, bu kabi so'zlarning ishlatilish darajasini ibtidoiy va sivilizatsiyalashgan jamiyatda yoki turli guruhlarda uning paydo bo'lish tezligini taqqoslaganda, zamonaviy, taraqqiy etgan jamiyatda bu kabi ta'qiqlanishlarning juda kam hollarda qo'llanilishini aytish mumkin.

Tafovutni chekka hudud va ravnaq topayotgan hududlar yoki yuqori darajada rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar misolida ham uchratish mumkin. Boshqa tarafdin irim-sirim bilan bog'liq vahimalar ijtimoiy hayotning zamonaviy sharoitlarida boshqa etnik, ijtimoiy normalarga asoslangan tabulashgan so'zlar yoki paydo bo'lishi yetarlicha muhokama qilinmagan so'zlar bilan almashtirilish holati kuzatiladi.

Masalan, yuqorida aytib o'tilgan "*diable*" (*iblis*) so'zining ba'zi ijtimoiy qatlamda ishlatilishi, kishida juda qattiq ta'sir uyg'otib, so'zlovchining nutq

madaniyati, tarbiyasidagi oqsoqlik yoki nazokatsizlik alomatlarini bildiradi. Tilshunoslikdagi ta'qiqlanishlar jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarda barqarorlashib, ijtimoiy etika bilan ham bevosita bog'liq.

Olim Niceforo ilohiy xususiyatga ega ibtidoiy ta'qiqlanishlarni zamonaviy tilshunoslikdagi ta'qiqlanishlar uchun manba ekanligini ta'kidlab, bu ta'qiqlar bugungi kunda tilga uyat, odob, nazokat tushunchalari ko'rinishida namoyon bo'lishini aytadi. Niceforo ibtidoiy jamiyatda jinsiy a'zolar ilohiy, muqaddas xususiyatiga ega bo'lganligini va ularni bildiruvchi nomlar tabular tizimiga kiritilganligini aytib, bugungi kunda ham bu tushunchalar tabulashganligini ta'kidlaydi⁷³.

Amaliyotda tabu tizimini o'rgangan bu olim, ilohiy, muqaddas xususiyatiga ega bo'lgan ibtidoiy davr ta'qiqlarini bugungi yangi davr uchun manba (asos) deb hisoblaydi. Olimning dalil-isbot asosida keltirgan fikr-mulohazalarini barcha tabu tizimi uchun xos deyish unchalik to'g'ri bo'lmasa ham, «tabu» sohasining katta qismi aynan mana shu tarzda bunyod bo'lganligini aytish mumkin.

Misol uchun, “fransuz xalqi shu tilda *“homilador”* ma'nosini ifodalovchi *“enceinte”* (qadimgi evfemik birlik) va *“grosse”*”⁷⁴ so'zlarini qo'llashdan qochib, uni boshqa rasmiy (tantanali), sirli terminlar bilan ifodalab, bu so'zni jiddiy ko'rinishda, past ohangda talaffuz qilishgan.

Fransuz tilida *“og'iroyoq ayol”* - *“femme est dans une situation intéressante”* - *“ayol qiziqarli holatda”* yoki oddiygina *“elle attend un bébé”* - *“ayol bola kutayapti”* tarzida ifodalanadi.

“La vierge” fransuz tilida «bokira» ma'nosini beruvchi bu so'z
“chaste” (bokira),
«pure» (sof),

⁷³ Op. cit., chap. Les origines magiques de la pudeur, pp. 268-277 ; cfr. aussi : Freud, op. cit. ; W. Wundt, Völkerpsychologie, vol. II, Mythos und Religion, 1906 ; J. G. Frazer, Tabou et les périls de l'Ame, trad, française, Paris, 1927 ; J. de Castro, Fisiologia dos Tabus, 1938, cité par M. Guérios, op. cit.

⁷⁴ Cfr. Kr. Nyrop, Grammaire historique de la langue française, Copenhague, 1913, vol. IV. – P. 300.

“innocente” (*begunoh*),

“intacte” (*pokiza*),

“non corrompue” (*yomon yo’lga kirmagan, aynimagan, buzilmagan*)

holatida, yoki

“menstrues” (*hayz, qadimgi eskirgan so’z*) so’zi

“les douleurs” (*og’riqlar*),

“les règles” (*qoidalar*),

“les mois” (*oylar*),

“l’indisposition” (*darmonsizlik*),

“l’incommodité”, (*noqulayliklar*)

“les mauvais jours” (*yomon kunlar*)

kabi evfemik birliklar bilan ifodalanadi.

Masalan fransuz tilidagi ta’rifini ham keltirsak – les euphémismes sont monnaie courante pour parler de la mort, de la maladie ou du deuil, ces sujets étant anxiogènes et susceptibles de heurter la sensibilité des interlocuteurs.

Exemple : La maladie :

« mourir des suites d’une longue maladie » pour « mourir d’un cancer ».

Être gravement blessé :

« pronostic vital engagé », euphémisme emprunté à la langue médicale et fortement usité dans les médias ;

Pour signifier le fait de mourir :

« rejoindre les étoiles » ;

« disparaître » ;

« ne plus être » ;

« s’éteindre » (c’est aussi une métaphore, puisque la vie est comparée à la flamme d’une bougie qui s’éteint) ;

« nous quitter » ;

« s’en aller » ;

« partir dans un autre monde » ;

« aller vers d'autres soleils » ;

« passer de l'autre côté » ;

« passer l'arme à gauche » ;

« rejoindre » (ses aïeux, etc.) ;

« être fauché (< dans la fleur de l'âge >, poncif) » (formule qui peut également être considérée comme une hyperbole selon le contexte);

« être emporté »

« prendre congé de la vie »

« manger des pissenlits par la racine »

La mort :

« la voyageuse de nuit » (c'est aussi une métaphore puisque la mort est comparée à l'obscurité de la nuit) ;

« la disparition »

« le rappel à Dieu »

« la perte cruelle »

« le repos éternel »

Le cimetière :

« le boulevard des allongés »

« la demeure d'éternité »

Demak, ilk davrlarda aytilishi xavfli, zararli deb hisoblangan ta'qiqlangan birliklar bugungi davrga kelib aytilishi noo'rin, xunuk deb e'tirof etiladi.

Barcha tillar kabi fransuz tilshunosligida evfemizmning qo'llanishi tabu hodisasi bilan bog'liq holda tarixiy etnografik hodisa sifatida shakllangan. Evfemizm xalqlardagi urf-odat, madaniy saviyaning darajasi, estetik did va etnik me'yorlarning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Tilning taraqqiyoti bilan uning evfemistik qatlami ham rivojlanadi. Yangicha axloqodob, yangicha dunyoqarash me'yorlari asosida evfemizmning yangi yangi shakllari yuzaga keladi. Tilda muayyan nutq vaziyati talabi bilan vujudga kelgan evfemizm ham mavjudki, ularning ma'nosi ko'pincha matn orqali oydinlashadi.

I bob bo'yicha xulosa

Yuqoridagi aytilgan fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak, evfemizm - qo'pol yoki dag'al so'z va iboralarni nisbatan yumshoq ifoda etadi. Evfemizm har xil noto'g'ri tushunchalar, irim - sirim, diniy e'tiqodlarni berkitishda o'rab turgan dunyo hodisalari, aniq bir belgilangan narsalarni nomi bilan berkitishda leksik ta'qiqlarni natijasini, nima oqibatida inson kinoyali iboralarni qo'llashini bildiradi. Boshqacha aytganda, aytish uyat, eshitilishi qo'rqinchli, xavfli, noxush deb hisoblangan, insonda yomon his - tuygular uyg'otadigan narsa - hodisa yumshoq, muloyim, yoqimli, erkalovchi, beozor, chiroyli ma'no - mazmun ifodalovchi so'z va iboralar almashtirib aytilishidir. Evfema va tabu tushunchalari uzviydir. Evfema dastlab diniy, keyinchalik dunyoviy fikrlash, masalan, axloq-odob normalari, muomala odobi talabi asosida shakllangan. Evfema qo'llash uzoq tarixga ega bo'lsa-da, eng kam o'rganilgan. Uning qo'llanish doirasi, sababi, o'rganish obyekti tor tushunilgan, unga aytilishi man etilgan predmetlar nomini yashiruvchi, til egalarini har xil xavflardan, baxtsizliklardan saqlovchi „*xaloskor*“ vosita deb qaralgan.

Ushbu bobda biz evfemizm va tabu hodisalari to'g'risidagi nazariy qarashlarni olimlar fikri orqali bayon qilib, umumlashtirdik. Evfemizmlar narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi sifatida tilning tasviriy imkoniyatlari boyish uchun xizmat qiladi. Olib borilgan tahlillardan quyidagi xulosalar kelib chiqadi. Evfemik vositalarni qo'llash uzoq tarixga ega bo'lsada, fransuz tilida kam o'rganilgan. Fransuz tilshunosligida evfemik ma'noli vositalarni o'rganish dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yilmagan. Bugungi kunda nutqiy strukturani ilmiy tadqiq qilish muammosi doirasida mazkur vositalarni ham tadqiq qilish dolzarb masaladir.

II BOB. FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA EVFEMIZMLARNING QIYOSIY-TARIXIY TALQINI

2.1. Evfemizm lingvokulturologik fenomen sifatida

Ma'lumki, lingvokulturologiya fanining obyektini xalq madaniyatining tilda yorqin ifodasini o'zida namoyon etuvchi noekvivalent leksika va lakunlar, tilning stilistik jamlanmasi, til birliklarning miqlashgan ko'rinishlari: arxitip va miflar (asotir va rivoyatlar), tilda o'z aksini topgan rasm-rusum va odatlar, tilning paremiologik fondi, til etalonlari, imo-ishora va ramzlar, tildagi o'xshatish va metaforalar hamda o'zbek nutq odatlari va nutqiy etiket shakllari tashkil etadi. Shuningdek, lingvokulturologiyaning asosiy tushunchaviy apparatiga mentalitet, mentallik, taomil, rasm-rusumlar, madaniyat doirasi, madaniyat turi, tamaddun, majusiylik va boshqalar kiradi. Biz mazkur tadqiqot ishimizda fanning obyektini, shu bilan bir qatorda milliy til hodisasi hisoblangan lingvokulturemalar sifatida evfemizmlar, xususan, *o'zbek va fransuz tilidagi evfemizmlarning tahlili*, ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritishni maqsad qilganmiz. Tilga ta'sir qiladigan omillar juda ko'p. Tilning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu – til birliklarining evfemik qo'llanishidir.

Leksikograf O.S. Axmanova tahriri ostida nashr qilingan lingvistik lug'atda evfemizmga „so'zlovchiga beadab, qo'pol, nazokatsiz ko'ringan, o'z sinonimi o'rnida qo'llanila oluvchi hissiy bo'yoqsiz so'z va ibora“ degan izoh keltirilgan⁷⁵.

D.N.Shmelev ham shu mazmunga hamohang „evfemizm – so'zlovchiga ma'lum sharoitda noma'qul ko'ringan, nihoyatda o'tkir, aytilishi odobdan sanalmagan, ayni bir ma'noni ifodalashga xizmat qiladigan, nomunosib so'zdan

⁷⁵ Лингвистический энциклопедический словарь. О.С.Ахмановой. -2-е изд.,стер. – М : УРСС : Едиториал УРСС, 2004. – С. 571.

saqlanish maqsadida yumshatilgan ifoda“ deb izohlaydi⁷⁶.

B.A. Larin: „Evfemizmlar muvaqqat. Uning ishlatilishi uchun nutqiy vaziyat kerak, ya’ni dag’al so’zlar ekvivalenti mavjud bo’lishi kerak. Ishlatilishi noqulay bo’lgan so’zlar iste’mdan chiqishi bilan evfemizlar ham o’z qiymatini yo’qotib, oddiy leksema sifatida voqealanadi. “⁷⁷, deb ta’kidlab o’tgan.

J.Vandries: „Evfemizm bu – ma’n etilgan lug’atning muloyimroq va madaniyroq formasigina xolos“, - deydi⁷⁸.

L.A. Bulaxovskiy: „Evfemizmlar yomon fikr uyg’otadigan narsa yoki hodisaning asl nomini almashtirish va ular so’z orqali yovuz kuchlarni chaqirish „xavfi“ni tug’dirmay turib gapirish, hammadan oldin „xavfning oldini olish“ formulasidir“⁷⁹, - deb yozadi.

Darhaqiqat, evfemizm inson nutqida eng muhim birlik hisoblanadi. Evfemik hodisalar o’zida til va madaniyat mushtarakligini aks etadi. Odamning nutq faoliyati axloqiy normalarga rioya qiladi. Shubhasiz, muloqot madaniyati darajasini, nutqiy madaniyat saviyasini ko’rsatuvchi muhim vositalardan biri evfemistik ifodalardir. Evfemizmlar haqida fikr yuritar ekanmiz, evfemizmning lingvokulturologik fenomen ekanligini ta’kidlashimiz kerak. Ya’ni evfemizmlarni tahlil qilganimizda, ayniqsa, fransuz va o’zbek tilshunosligida evfemizlarning o’rni, ularning mohiyatini ko’rib chiqqanimizda, bu ikki tilda evfemizmlar madaniyat jihatdan tubdan farq qilishini guvohi bo’ldik. Bu ayniqsa, milliy mentalitet, madaniy o’ziga xoslik bilan chambarchas bog’liq.

Aslini olganda, o’zbek tilidagi evfemizmlarning ildizi diniy qarashlar bilan chambarchas bog’liq. Islom dini ta’limotiga ko’ra, yomon so’zlarni ishlatib, til bilan bo’lsada birovning ko’ngliga ozor berish gunoh sanaladi. Har bir musulmon o’zgalarni hurmat qilishi, ularga yumshoq, chiroyli va yoqimli so’zlar bilan murojaat qilishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, yoki so’zlovchi va

⁷⁶ Шмелёв Д. Н. Эвфемизмы // Русский язык: энциклопедия / под ред. Ф.П. Филина, - М.: Советская энциклопедическая, 1979.

⁷⁷ Ларин Б. А. История русского языка и общее языкознание. Избранные работы. – М.: Просвещение, 1977.

⁷⁸ Вандриес Ж. Язык. – М.: Учпедгиз, 1937.

⁷⁹ Булаховский Л.А. Введение в языкознание. Букинист. 1954.

tinglovchi o'rtasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklardan qochish maqsadida ko'pgina negatifik yoki axloqsiz ma'no kasb etuvchi so'zlar boshqasi bilan almashtirilgan. Ba'zi o'zbek oilalarida erkak xotiniga katta qizining ismi bilan, xotin esa eriga katta o'g'lining ismi bilan yuzlanadi. Xotinga nisbatan **onasi, oyisi, ayasi**, erga nisbatan **otasi, dadasi, adasi** kabi murojaat shakllarini qo'llash mumkin:

To'g'ri, dadasi, men aytaman. Hoy onasi, suyunchini cho'z. Mazkur xitob shakllari ibtidoiy davrlardan qolgan tabu qoldig'i bo'lib⁸⁰, u oilada er-xotindan ko'ra ko'proq bolalarning ota-ona juftligini, sherikligini, ya'ni bolalarning qadrini, ahamiyatini namoyon qiladi. Bu ayniqsa ota-ona va farzandlar, er-xotin, qariyalar va yoshlar o'rtasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Oilaviy munosabatlarda oilaning erkak a'zolariga ayollar tomonidan yuksak hurmat ko'rsatilib, turli chiroyli so'zlar bilan murojaat qilinadi. O'zbek xonadonlarida ayollar o'z turmush o'rtoqlarini boshqalarning oldida ismi bilan atab chaqirishlari erish, hatto, uyat deb qaralgani bois, **“dadajonisi” (père de mes enfants), “turmush o'rtog'im” (compagnon de ma vie), “jufti halolim” (mon couple)** kabi evfemizmlar paydo bo'lgan. Shu bilan birga, o'zbek madaniyatiga ko'ra erkaklar ham o'z ayollarini **“oyijonisi” (mère de mes enfants), “rafiqam” (mon bien-aimé), “ayolim” (ma femme)** kabi so'zlar bilan ataydilar. Bu o'rinda farang erkaklari **“ma belle”, “ma chérie”, “mon coeur”** so'zlaridan foydalanishadi.

Fransuz tilida ishlatiladigan **“dame”, “demoiselle”, “jeune-fille”** kabilar **“femme”** so'zining o'rnida qo'llanilib, so'zlovchining murojaat qilinayotgan shaxsga bo'lgan hurmatini, uning yoshini va oilaviy holatini inobatga olgan holda, e'tibor bilan so'zlayotganidan darak beradi. Bu so'zlar o'zbek tilida ham o'ziga xos alternativga ega bo'lib, **“qizoyim” (mademoiselle), “qiz” (jeune-**

⁸⁰ Kuçkartayev İ. Özbeklerde Hitap Sözlari ve Hitap Kültürü . Uluslararası Dördüncü Türk Kültürü Kongresi Bildirileri. A., 2000. – S. 325.

fille), “ayol” (*une femme adulte*), “onaxon” (*une femme senior*) kabi ishlatiladi.

Bundan tashqari, kelinlar qaynona soʻzi oʻrniga “oyijon” (*ma chère maman*), qaynota soʻzi oʻrniga esa “dadajon” (*mon cher papa*) soʻzlarini ishlatishadi. Ammo, fransuz ayollari turmush oʻrtoqlarining ota-onasini ularning ismi bilan chaqirishadi, va bu ular uchun oddiy hol. Hattoki “kelin” atamasidan ikki tilda turli xil maʼno anglashiladi. Oʻzbek madaniyatiga koʻra, kelin erining uyida katta masʼuliyatga ega shaxs boʻlib, u xonadondagi har bir yumushga diqqat- eʼtiborli boʻlishi, ovqat tayyorlarshi, uy ishlarini qilishi, farzandlariga koʻz-quloq boʻlishi, tarbiyasi bilan shugʻullanishi, har doim xush kayfiyatda yurib, barcha oila aʼzolarining koʻngliga yoʻl topishi lozim. Shuning uchun ham “kelin” soʻzining oʻzbek tilida “kelinposhsha” (*reine mariée*), “kelinchak” (*chère mariée*) kabi evfemistik shakllari bor. Oʻzbek xonadonlarida kelin homilador boʻlganligi haqidagi xabarni ham toʻgʻridan-toʻgʻri aytish uyat hisoblanganligi uchun “homilador” soʻzi oʻrniga “bosh qorongʻu”, “ogʻir oyoq” , “ikki qat” , “ikki jon” kabilar qoʻllaniladi. Fransuz tilida ham mazkur holatni ifodalash uchun ishlatiladigan evfemizmlar mavjud boʻlib, ular quyidagilardir: “Autour de bebe”, “attendre un enfant”, “être mère”, “la femelle en gestation”, “gestante”, “en voie de famille” , “avoir un polichinelle dans le tiroir”.

Oʻzbek va fransuz tillarining har birida evfemizm katta ahamiyatga ega. Bu xalqlarning madaniylashib borayotganligi va zamonaviylik kasb etayotganligidan darak. Misol uchun, hojatxonaga bormoqchi boʻlgan maktab oʻquvchisi ham yoshligidanoq bu soʻzni sinf ichida toʻgridan-toʻgʻri ishlatish axloqsizlik ekanligini biladi va buni “oʻz ishi” soʻzi bilan almashtiradi. Fransuzlar esa bu holatda “aller à la selle” (*yozilish*) soʻzini ishlatishadi.

2.2. O'zbek tilshunosligida evfemizmlarning tasniflanishi

Evfemizmlarning o'ziga xos xususiyati ularning doimiy o'zgarib turishidir. Evfemizm sifatida tilda qo'llaniluvchi evfemik so'zlar keyinchalik bu xususiyatini yo'qotib o'z ma'nosida qo'llanila boshlaydi va yangi evfemik so'zning shakllanishiga ehtiyoj tug'iladi⁸¹.

Evfemizmlarning jarayoni uchun quyidagi jihatlar mavjud:

So'zlovchi o'z fikrini til va nutq birliklari vositasida ifodalaydi. Bu jarayonda asosan tushunchalarning to'g'ridan to'g'ri ma'nosini bildiruvchi vositalardan foydalanadi, aniq obyektlar, reallik, insoniyat faoliyati muhiti va insonlarning munosabati nutqda o'z aksini topadi. Ammo bular vaziyatni yumshatish, qo'pol tasvirlamaslik, so'zlarni to'g'ridan to'g'ri qo'llashdan qochish, muloqot madaniyati, so'zlashuvchilar o'rtasidagi hurmat va boshqalarni ifodalashda muhim. Nutqimizda faqat belgilangan mavzular va muhit bilan bog'liq birliklar ham qo'llaniladi⁸².

So'zlovchi bunday ma'nolarni tanlashda shunchaki bu yoki boshqa qo'pol tuyulgan so'z yoki iboralarni yumshatibgina qolmay, asl ma'noni yashirib, niqoblab keladi.

Evfemizmlarni qo'llashda kontekst va nutq shartlariga tobeligi: Nutq vaziyatining ijtimoiy nazorati qanchalik qattiqroq bo'lsa, evfemizmlarning kelib chiqish ehtimoli shunchalik kuchli bo'ladi va aksi, nutq vaziyati nazoratnining kuchsizligi hamda nutqning g'ayrixtiyoriy yuqoriligi, (oila a'zolari va do'stlar bilan muloqotda) evfemizmlar „ochiq(to'g'ridan to'g'ri)“ ma'noni yashirib, niqoblab keladi⁸³.

Evfemizmlar ba'zi sharoitlarda evfemizm sifatida baholansa, boshqa vaziyatda boshqacha baholanadi.

⁸¹ Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2010. – B. 48.

⁸² Omonturdiyev A.J. So'z qo'llash san'ati. Termiz. Boysun. 1994.

⁸³ „Oila davrasida“, 2013, 14-mart.

Evfemizmlar quyidagi til birliklari bilan ifodalanadi:

I. Belgilovchi so'zlar

II. Yetarlicha umumiy ma'noga ega bo'lgan odatlar

III. Noaniq yoki ko'rsatish olmoshlari

IV. Boshqa tilga oid so'z va atamalar

V. Davlat sirlarini bekitishga bog'liq qisqartma so'zlar

VI. Ba'zi ish harakatining noto'liqligini yoki xususiyati kuchsiz darajada bo'lgan so'zlar, ular o'zlarining odatiy ma'nolarida kelmay, yumshatuvchi evfemizm bo'lib qo'llaniladi: (kar odam haqida) „u eshitmaydi“, (cho'loq haqida) „u sal oqsoqlanadi“.

1. So'zlovchining sotsial va shaxsiy munosabatlarda evfemizmni qo'llashdagi eng muhim maqsadi suhbat davomidagi noxushlik yoki o'zaro mojarolardan qochish, suhbatdoshda noqulayliklar tug'dirmaslikka intilishdir.

2. Nisbatan o'ziga xos, sotsial ma'nosida niqoblash maqsadida qo'llanadigan evfemizmlar bor. Umumlashgan atamalar, odatda, maxfiy ishlarda, ya'ni MK, DHQ ishlarida turg'un birikma bo'lib qolgan so'zlarni tasvirlashda qo'llaniladi. Masalan, o'zbek tilida ma'muriy - idoraviy jargonda lager yoki qamoqxona „muassasa“, jarima izolyatori „alohida turuvchi“ deyiladi; „nazoratchi“ so'zi o'rniga oxirgi paytlarda „kontrolyor“ so'zi keng tarqalgan. Bunga yana „neytrallashtirmoq, ta'siri o'tmaydigan qilib qo'ymoq“ ni misol qilsak bo'ladi, gapda „mudofaachilarni neytrallashtirish kerak“ (yo'q qilmoq), hamda „qotillik“ so'zini o'rniga „jismoniy yo'qotish“ deyiladi. Harbiy tilda dushmanlardan berkinish uchun „snaryadlar“ so'zining o'rniga „bodringlar“ qo'llaniladi. Turli xalqlar va millatlar o'rtasidagi o'zaro munosabat ommaga chiquvchilar (muxbirlar, sharhlovchilar, deputatlar, siyosiy arbob va boshqalar) o'rtasida taranglashadi, noaniq so'zlar, qovushmagan iboralar bu taranglikni kuchaytiradi. Shunday qilib, bir so'zli ba'zi xalqlarning vakillari ma'nosini o'rniga quyidagi iboralar qo'llaniladi: „turk“ning o'rniga „turk millatidagi shaxs“, „o'zbek“ning o'rniga „o'zbek millatidagi shaxs“

deyiladi. Ba'zi paytlarda shunga o'xshash vaziyatlarda, gapiruvchi shaxsga biroz noqulay bo'lgan paytlarda aniqroq narsani bekitib gapirishga harakat qilinadi. Masalan, „yevrey yozuvchilari” haqida gapirganda, ularni „rus tilida gapiruvchi yozuvchilar” deyiladi.

3. So'zlovchining evfemizmni qo'llashdan uchinchi maqsadi, u gapirgan gapni eshituvchining faqat bitta o'zigagina tushunarli bo'lishiga harakat qilishdir.

Demak, ma'lumotning bunday turdagi aytilishi taxminiy, agar bunday ma'lumotlar shaxsiy yozishmalar tarkibida bo'lmay, bosmaga berilgan bolsa va o'quvchi va eshituvchiga hammabop bo'lsa, u asta - sekinlik bilan hayoliy bo'lib boradi. Shu nuqtayi nazar bilan turli xildagi e'lonlar va nashrdan chiqadigan bosmalar xarakterlidir. („tashkilotimiz haydovchi qidirmoqda. Zararli odatlarga ega shaxslar, iltimos, murojaat qilmang”). bu yerda zararli odatlarga ega deganda spirtli ichimliklarni iste'mol qilishni xush ko'radiganlar nazarda tutgan⁸⁴. Berilayotgan ma'lumotni bekitishda yana bir turdagi e'longa erkak va ayol munosabatiga ham bog'liq. “Yosh ayol badavlat erkakka xizmat ko'rsatadi”; “Kelishgan ayol shaxsiy homiy qidirmoqda” ajratib ko'rsatilgan so'zlar evfemizmlardir; bu so'zlar ularning lug'at boyligidagi ma'noda qo'llanmaydi, balki gapiruvchi shaxsning o'zi nima demoqchiligini bildiradi; yana bu evfemizmlar o'zining umumiy ma'nosini yomon bajaradi, uning “sirli” ma'nosi o'qilganda yetarlicha tushunish juda oson (qanday turdagi ish qidirayotgani, qaysi maqsad bilan shaxsiy homiy qidirilayotgani juda aniq bo'ladi.)

Evfemizmlarning paydo bo'lish asosida quyidagilar yotadi:

- 1) Chuqur arxaik „ta'qiq” tili - evfemizlari quyidagicha “o'lik” o'rniga “rahmatli” evfemizmi qo'llaniladi.
- 2) Sheva bilan bog'liq omillar.

⁸⁴ Ismatullayev N. Hozirgi o'zbek tilida evfemizmlar. ToshDPI ning “Ilmiy asarlari”, 42-t., 1-kitob, 1963.

Shunga asoslanib insonning borliq shaklining nafislashishi, aniq predmetlar va hodisalarning ma'nosi (masalan, ba'zi jismoniy hodisalar va inson ta'na a'zolari) bir ma'noli hisoblanadi va tildan chiqarib yuboriladi, nafaqat muloqotda boshqa shakllar qo'llaniladi, balki nuqson va nojo'ya xatti -harakatda ham iboralar yumshatib aytiladi. Insonlarning sotsiallasishi uyatni muloyimlikni fahmlagani evfemizmlarni qo'llashga olib keldi. Ko'pchilik evfemizmlar uyalish hissidan vujudga keladi, va ular xulq-atvor qonun va normalar sistemasini vujudga keltiradi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, oxirgi paytlarda evfemik nutqning yangi vazifalari ba'zi harakatlarning paytini bo'rttirish yuzaga kelmoqda. Shu munosabat bilan evfemizmlashishning ba'zi muammolari yangicha o'rganilishi lozim⁸⁵.

Tilshunos N.Ismatullayev o'z nomzodlik dissertatsiyasida evfemizmlarning oltita funksiyasida qo'llanilishini ko'rsatib o'tgan:

- I. Qo'rqitadigan obyektlarning nomini o'rnida;
- II. Yoqimsiz va g'ashga teguvchi so'zlar nomi o'rnida;
- III. Beodob sanaladigan so'zlar o'rnida;
- IV. Vahimaga soluvchi dangal so'zlar o'rnida;
- V. Bildirilayotgan tushunchani niqoblash o'rnida;
- VI. Tashkilot va mutaxassisliklarni bildiruvchi e'tiborga molik bo'lmagan ma'nolarini beruvchi so'zlar o'rnida.

Berilgan tasnif mayda qismlari bilan farq qilsa ham, ularning hammasi evfemizmnining umumiy sababini ochadi - muomala mobaynida vujudga keladigan mojarolardan qochishga intiladi.

Evfemizmlarning tasniflash asosida, ularni sotsial tabiatga qarab quyidagi evfemizm turlariga bo'lish mumkin:

1. Milliy adabiy tilning umumqo'llanuvchi evfemizmlari;

⁸⁵ Ismatullayev N. Hozirgi o'zbek tilida evfemizmlar. ToshDPI ning "Ilmiy asarlari", 42-t., 1-kitob, 1963.

2. Sinfiiy va professional evfemizmlar;
3. Oilaviy - maishiy evfemizmlar.

Evfemizmlarning shakl va ma'no xususiyatlariga ko'ra g'arb va turk tilshunoslari tarafidan tasniflangan. Turkiy xalqlar orasida ushbu sohada ilk tadqiqotlar olib borganlardan biri turkman tilshunosi S.Altayevdir. Altayev yoqlagan doktorlik ishida evfemizmlarni quyidagi shaklda o'rganib, tasniflagan:

A) Xalqning yaratuvchanlik faoliyati natijasida vujudga kelgan evfemizmlar:

1. O'lim bilan bog'liq evfemizmlar
2. Dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liq evfemizmlar
3. Jinslarga aloqador evfemizmlar
4. Maqol va iboralarning evfemik xususiyatlari.

B) XIII - XIX asrda xalq tilidan joy olgan evfemizmlar:

1. O'linga bog'liq bo'lgan diniy tasavvurlar natijasida vujudga kelgan evfemizmlar;
2. Inson a'zolariga asoslangan evfemizmlar.
3. Nazokat, odob va axloq qoidalariga asoslangan metaforik (majoz) evfemizmlar.

O'zbek tilshunosi N. Ismatullayev 1964 - yilda yoqlagan „*O'zbek tilidagi evfemizmlar*“ nomli nomzodlik dissetatsiyasida evfemizmlarni quyidagicha tasniflab o'rganishni taklif qilgan:

A) Evfemizmlarni qo'llanilishi va ma'no turlari:

I. *Tabuga asoslangan evfemizmlar:*

- a) mifologik tushunchalarni nomlashda qo'llaniladigan evfemizmlar;
- b) zaharli hasharotlar, ilon va boshqa hayvon nomlariga nisbatan qo'llaniladigan evfemizmlar;
- c) yirtqich hayvon nomlariga nisbatan qo'llaniladigan evfemizmlar;
- d) kasallik nomlari uchun qo'llaniladigan evfemizmlar;
- e) erkak va ayol munosabatlariga nisbatan qo'llaniladigan

evfemizmlar;

f) ayollar tilida evfemizmlar.

II. *Irim - sirimlarga asoslangan evfemizmlar.*

III. *Jamiyatda ayb hisoblangan, qo'pol so'zlar o'rniga qo'llaniluvchi evfemizmlar.*

a) ayollarning uzrluk holatlari (homiladorlik, hayz payti) bilan bog'liq evfemizmlar;

b) oila ichidagi munosabatlarni ifodalashda qo'llaniladigan evfemizmlar;

c) o'lim bilan bog'liq evfemizmlar;

d) jinslarga bog'liq evfemizmlar;

e) inson organlariga nisbatan qo'llaniladigan evfemizmlar;

f) kiyim - kechaklar bilan bog'liq evfemizmlar;

g) shifokor va tibbiyot tilida qo'llaniluvchi evfemizmlar;

h) hojatxona va boshqa joy nomlariga nisbatan qo'llaniluvchi evfemizmlar.

IV. *So'zlashuv tilida va diniy maqsadlarda qo'llaniladigan dialektik evfemizmlar.*

V. *Uslubiy evfemizmlar.*

VI. *Diplomatik tilda qo'llaniladigan evfemizmlar.*

VII. *Evfemizmlarning tilni boyitishdagi va ko'pma'nolilik xususiyatini namoyon etishdagi ahamiyati.*

a) lug'atdagi so'zlarning ortishida evfemizmlarning o'rni;

b) ko'pma'nolilik va evfemizmlar;

c) evfemizmlar manbalari;

d) otlardan yasalgan evfemizmlar;

e) sifatdan yasalgan evfemizmlar;

f) sonlardan yasalgan evfemizmlar;

g) olmoshlardan yasalgan evfemizmlar;

- h) fe'llardan yasalgan evfemizmlar;
- i) iboralardan yasalgan evfemizmlar.

O'lim va dafn marosimi mavzulari, agar bu hodisa aktual bo'lsa (nutq paytiga to'g'ri keladi yoki undan unchalik katta bo'lmagan vaqt bilan farq qiladi), evfemizmlar yordamida nihoyatda og'zakilashadi. Masalan, *“yerga berib qo'ymoq” (lekin ko'mmoq emas)*, shuningdek, tibbiyot xodimlari nutqida: *“bemorni yo'qotmoq”* - bemor o'lishiga yo'l qo'ymoq, kasallik tuzatishni eplay olmaslik, bolalar *“ketishyapti” (o'lyapti)*; dafn marosimining o'rniga *“diniy xizmatlar”* va boshqalar. Evfemizmlarning bu mavzusi va muhitini shaxsiy deyish mumkin: ular gapiruvchi, suhbatdosh va uchinchi shaxsning shaxsiy hayotiga bog'liqdir⁸⁶.

Bundan tashqari, evfemizmlarning paydo bo'lishi turli xil inson va jamiyatning ijtimoiy hayoti muhitiga ham xosdir.

1963-64 yillarda tilshunos olim Ne'mat Ismatullayev o'zining “Hozirgi o'zbek tilida evfemizmlar” nomli dissertatsiyasida evfemizmlar qo'llanadigan muhitlarni quyidagicha deb e'tirof etgan:

1. Diplomatiya: “o' zaro do' stlik prinsipi” (*“ko 'zga ko z ”*)
2. Hukmronlikning jazo tariqasidagi harakati: *“qamoqqa olmoq”* ning o'rniga *“ushlab olmoq ”*, *“o 'lim jazosi”* ning o'rniga *“oliy hukm”*.
3. Davlat va harbiy sirlar: *“noodatiy turdagi qurollarni ishlash” (bakteriologik qurol nazarda tutilyapti)*
4. Armiya, razvedka, militsiya, jinoiy qidiruv va ba'zi boshqa hokimiyat a'zolari ishi, *“ko'rinishga”* ishlashi kerak emas. Bu yerda qo'llanadigan so'zlar va iboralar umumiy ma'no bilan, o'sha paytning o'zida aniq harakat va holatga nisbatan qo'llaniladi: *“vazifa”*, *“operatsiya”*, *“obyekt”* - *“maxfiy ravishda kuzatilishi kerak bo'lgan shaxs”* ma'nosida keladi.
5. *„Tozalash”* - u yoki boshqa tumandagi, shu hokimlikka tegishli

⁸⁶ Абдурахмонов Ҳозирги узбек тилининг адабий услуби ҳдвдда ||Узбек тили ва адабиёти. -1992, № 5-6. – Б.15 38-36.

bo'lmagan Taqsimlash va xizmat ko'rsatish muhiti: *“ehtiyoji o'sgan mollar ”*, (*defitsit*), maishiy nutqda va so'zlashuv tilida *“tashkillashtirmoq”*, *“tuzish”*, *lar “biror bir molni qo'lga kiritishga yordam bermoq ”* iboralari keng tarqalgan.

6. Ba'zi kasb turlarida biror maqsad bildiruvchi, shu kasbning mavqeyini oshirish, yoki ba'zi kamchiliklarini yopish uchun qo'llaniladigan evfemizmlar. *“Tozalash ishlari operatori”* (oldingi o'zining *evfemizmik ma'nosini yo'qotgan “assenizator”*); *“bajaruvchi (ijrochi)”* - o'lim jazolarini *bajaruvchi shaxs* (oldingi *“jallod”*); sut sog'uvchining o'rniga

“mashina bilan sut sog'uvchi operator”.

Evfemizmlar o'ziga xos funksiyalarni sotsial jargonlarda bajaradi. Ular orasida muhimi - mohiyatni niqoblash, ba'zida xazil, o'yin, tajnis elementlari bilan. Masalan, qamoqxona to'g'risida - *“akademiya”*, *“kurort”*, *“dacha”*, qo'l kishanlari to'g'risida *“braslet”*, o'g'irlamoq to'g'risida *“yuvib ketmoq”*, *“tozalab ketmoq”*, murda haqida *“ko'z yumgan”*, giyohvand moddalar savdosi bilan shugullanuvchilar haqida *“chopar”*, shprints orqali qabul qilinadigan giyohvand moddalar haqida *“sanchiq”*, giyohvand moddalar haqida *“ko'kat”* (giyohvandlar jargonida)⁸⁷.

Evfemizmlarni qo'llanilish muhiti asosan, so'zlovchi mavzu yoki muhitdan kelib chiqib u yoki bu narsaga odob yoki beodoblik, qo'pol yoki muloyimlik nuqtayi nazari bilan baho berishi mumkin.

Shunday qilib, lisoniy hodisalarni ilmiy o'rganish zamon bilan hamqadam rivojlanadi. Shunga muvofiq ravishda, har bir davrda o'rganish obyektining yangidan yangi qirralari namoyon bo'ladi. Masalan, o'tgan asrning o'rtalarida o'zbek tilshunosligida evfemik birliklarning mohiyati asosan tabu hodisasi bilan bog'lab o'rganilgan bo'lsa, bugungi kunda ular nafaqat qo'llanishi ijtimoiy taqiqlangan til birliklari o'rnida ishlatiluvchi vositalar sifatida, balki uslubiy bo'yoq, nutqiy bezamalilik, fikrni nozik bayon etish, qolaversa, sharqona

⁸⁷ Ismatullayev N. Hozirgi o'zbek tilida evfemizmlar. ToshDPI ning *“Ilmiy asarlari”*, 42-t., 1-kitob, 1963.

madaniyatga xos hurmat maqsadida qo'llanuvchi, so'zlovchining manipulyativ taktikasini ta'minlovchi kabi vositalar sifatida ham qaralmoqdaki, bu ilmiy tadqiqotlar evfemizmlarning mohiyatini ochishda yanada chuqurlashayotganligidan dalolat beradi.

2.3. Evfemizmlarning gender xususiyatlari

Asrlar davomida lingvistika dunyoni qabul qilish va uning muloqotda aks etish xususiyatlarini o'rganib kelmoqda. Bunda olimlarning asosiy diqqat markazida jamiyatning turli rivojlanish davrlari turadi. Muloqot jarayonida inson jamiyat tomonidan "yovuz" yoki "yomon" deb qabul qilingan voqea va hodisalarni yumshatib aks ettirishga intilgan. Bular ishsizlik, ocharchilik, kasalliklar, zo'ravonlik, urushlar kabi insonga azob beruvchi holatlarda o'z ifodasini topgan. Jamiyatning ijtimoiy davrlarida inson muloqot jarayonidagi murakkab vaziyatlarni chetlab o'tishga va bu holatlarni evfemizmlar bilan yumshatib, almashtirishga urinib kelgan. Bu esa nutqni ishonarli va chiroyli ohangda chiqishiga xalaqit bermagan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ayollar nutqida evfemizmlarning ishlatilishi o'ziga xos ahamiyatga ega. Qadim zamonlardan buyon ayollar va erkaklar nutqida ayni bir tushuncha turli xil so'z va iboralar bilan ifodalanadi. Bugungi kunda gender lingvistikasi shu sohani maxsus keng miqyosda o'rganib kelmoqda. Genderologiya biologik jinslarni sotsial muhitda o'rganuvchi eng yosh fandır. "Gender" termini ko'p ma'noli bo'lib, fanga 1955 yilda buyuk seksolog Djon Mani tomonidan kiritilgan. Ko'rinadiki, dastlab bu termin tibbiy ma'noga ega bo'lgan. Fransuz tilida uning quyidagi nomlarini uchratish mumkin: "catégorie sociale de sexe", "études de genre" yoki "théorie du genre". Inson erkak yoki ayol bo'lib tug'iladi, keyinchalik ularda madaniyat ta'sirida maskulinlik va femininlik xususiyatlari shakllana boradi. G'arb tilshunoslari X.Benjamin fikricha, *Le sexe, c'est ce que*

*l'on voit, le genre, c'est ce que l'on ressent*⁸⁸, K. Delfining nazarida, *Le genre, c'est ce que l'on pourrait appeler le sexe social*⁸⁹. S. de Bovuar⁹⁰ *On ne naît pas femme, on le devient* g'oyasini tasdiqdaydi. Xulosa shuki, jins - biologik, o'zgarishi mumkin, gender - ijtimoiy qurilma, o'zgaradi. Tahlilga tortilgan materiallar androsentrizmning o'ziga xos o'rniga ega ekanligidan darak beradi. J.Rey-Debov fransuz tili lug'atlarini tahlil qilar ekan, "la langue française est très masculinisé"⁹¹, deya xulosa qiladi, androsentrizm holatini tanqid qiladi, tilda ayolning o'rnini ko'rsatish lozimligini ta'kidlaydi⁹².

Hozirgi kunda esa genderologiya yo'nalishi ijtimoiy fan sifatida bo'y ko'rsatadi. Djon Mani "genderli rol" ("gender role") tushunchasini ishlatgan. Mani nafaqat yangi termin yaratdi, balki uni oddiy taqqoslash doirasidan chiqarib yubordi. Uning izohlashicha, "gender" tushunchasi ko'pgina belgilarni aniqlab beradi, jumladan, jismoniy xususiyatlardan to'g'ri ijtimoiy rolgacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Gender tushunchasi zamonaviy tilshunoslik paradigmasiga boshqa gumanitar fanlardan kura ancha keyin kirib kelib, o'tgan asrning 60- yillarida atama sifatida shakllana boshladi. 1980-yillarga kelib, uning ilmiy tadqiqot-larda ishlatilishi keskin oshdi. Sotsiolog, professor E. Zdravomislova "gender" atamasini 1968 yilda amerikalik psixolog va psixoanalitik olim Stoller "Gender and sex" kitobida ilmiy muomalaga kiritganini aytib o'tgan. Bu so'z chet tiliga oid bo'lib, lotin tiliga borib taqaladi. Rus tiliga esa ingliz tilidan kirib kelgan. "Gender" termini bundan oldin ham feminist tadqiqotchilar tomonidan ishlatilgan, ammo Stoller bu so'zni ilmiy asoslab qo'llagan olim hisoblanadi⁹³. U gender kontseptini ikkiga, ya'ni biologik (jins) va sotsiologik (gender) turlarga bulishni ma'qul ko'rgan⁹⁴. Biologiya va

⁸⁸ Benjamin H. Gender is located above, and sex below the belt. [www. Genre \(sciences sociales\).](http://www.Genre(sciences%20sociales).)

⁸⁹ Delphy. *Penser le genre: quels problèmes?* Paris.: CNRS Editions Delphy, 2003. – P. 94-95.

⁹⁰ Beauvoir Simone, de. *Deuxième Sexe*, le. II L'expérience vécue / Gallimard, Folio, 1949. – P. 13.

⁹¹ Rey-Debove Josette. *Une femme*, de a à z. www.scom.ulaval.ca/Au.fil.des.eveements/2004/01/22/lexico.

⁹² Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида А.Э.Л концептининг лингвокогнитив тадқиқи: Филол. Фанлар номзоди... дис.автореф. –Тошкент, 2012.

⁹³ <https://m.colta.r>

⁹⁴ Stoller R.Y. *Presentations of Gender*. New Heaven, 1985. – P.45.

fiziologiya sohalari jins xususiyatlarini, psixologiya va sotsiologiya fanlari esa gender xususiyatlarini o'rganadi. Stollerning taklifi zamonaviy gumanitar bilimlar orasida gender tilshunosligi deb nomlangan alohida yo'nalishning yuksalishiga olib keldi.

G.A.Brandt gender - madaniyat ta'siri ostida bo'ladigan, ma'naviy jihatdan ayol va erkaklarning nutqiy, xulk-atvoriy tomonlarini baholay oladigan xususiyatlar majmuidir, deb qaraydi⁹⁵.

N.L.Pushkaryova esa ushbu terminni quyidagicha izohlaydi: gender - jamiyatning hukmronlik o'tkazadigan va bo'ysunduradigan xususiyatlardan iborat bo'lgan munosabatlar va o'zaro harakatlar tizimidir⁹⁶.

Gender munosabatlari jamiyat ijtimoiy uyushmasining muhim elementi hisoblanadi. U kishilar orasidagi munosabatlarni aniqlaydi. Dunyo madaniyatlarida shaxsning xulk-atvori qonuniyatlarga ayollar va erkaklarning rioya qilishlarini bildiradi.

E.I.Goroshko gender xususiyatlar nutq, xulk- atvor, ayol va erkaklarning jamiyat modellarini qabul qilishda o'z aksini ko'rsatadi, deb ta'rif beradi⁹⁷.

O.A.Voronina Goroshkoning fikrini boshqa so'zlar bilan ifodalab, quyidagi ta'rifni qo'shib qo'yadi: gender tadqiqotlarining asosiy uslubiyati ayol va erkaklarning jamiyatdagi genderlik roli va munosabatlari orqali tasdiqlangan hukmronlik va ustunlik tahlili hamdir⁹⁸.

J.Lakoffning ta'kidlashicha, muomala jarayonida ayollar yuqori darajadagi empatiya va o'z suxbatdoshiga nisbatan moslashib ketish kabi xislatlar bilan

⁹⁵ Брандт Г.А. Природа женщины как проблема: Концепция феминизма. «Общественные науки и современность», 1998, № 2. – С. 167-189.

⁹⁶ Пушкарёва. Н.Л. Что такое гендер? Гендерная теория и познание: материалы научно-практической конференции. Сыктывкар. 2005. -С. 9. Lakoff G. Language and woman's place. New York: Harper and Row, 1975.

⁹⁷ www.textology.ru

⁹⁸ Воронина О.А. Социокультурные детерминанты развития гендерной теории в России и на Западе. «Общественные науки», 2000, № 4. – С. 12-14.

farqlanadi, o'z suhbatdoshining mulohazalarini diqqat bilan tinglab, muloqot jarayonida ustun bo'lishga harakat qilmaydi. Erkaklar esa suhbat chog'ida yana ham jizzakirok, sharoitni nazorat qilishga intiladilar, o'zaro kelishishga harakat qilishadi, deb biladi. U shuni ham ta'kidlaydiki, ingliz tilida qayd etilgan xususiyatlarga qo'shimcha qilgani holda, ayollar tasdiq so'roq gapga tushuvchi intonatsiya qo'llash o'rniga ko'tariluvchi intonatsiyadan, semantik jihatdan chuqur ma'noga ega bo'lmagan leksika, odatiy ayollar faoliyatini tasvirleydigan maxsus o'zlashtirma so'zlardan, so'zlayotgan nutqni kuchli his-hayajon ma'nolarni ifodalovchi til vositalari va modal yuklamalardan keng foydalanishadi. Erkaklar esa undov so'zlar qo'llamasliklari, stilistik bo'yoq darajasi kam va xaqorat ma'nosi kelib chiqadigan jargonli leksikani juda ko'p ishlatishlarini ham qo'shib qo'yadi⁹⁹.

Muloqot uslubidagi farqlar ayollar va erkaklar orasidagi munosabatlarda paydo bo'ladigan muammolarni aniqlashtirmaydi. Ya'ni, munosabatlarda ruhiy muammolar, ya'ni sevgidagi yoki e'tibordagi omadsizlik, chin dillik, xudbinliklar ba'zan aks etadi. Va ular siyosiy va iqtisodiy tengsizliklarning natijasidir. Ammo aytib o'tilgan xususiyatlar asossiz ifodalanishi ham tez-tez uchrab turadi.

Demak, ayol va erkak borliqni turlicha qabul qiladi va baholaydi. Nutqiy muomalaning gender o'zgaruvchanligi tilning turli sathlarida, ya'ni fonetik, leksik, grammatik, semantik sathlarda namoyon bo'ladi. Gender munosabatlar faqatgina kodlangan ko'rinishda ishlatilmay, balki nutq, hodisasining mavzular majmui va xususiyatini yuzaga keltiradi. Ko'plab tilshunoslar ayollar va erkaklar nutqi bo'yicha tadqiqotlar olib borib, ular nutqidagi asosiy farq bu ayollarning nutq jarayonida xushmuomalalikka intilishi va suhbatdoshi bilan hamkorlikni kuchaytirish istagida ekanligi haqidagi xulosaga kelishdi. O. Espersen ayollar va erkaklar nutqini amaliyotda kuzatib shunday xulosaga keldi:

⁹⁹ Lakoff G. Language and woman's place. - New York: Harper and Row, 1975.

“Ayollar va erkaklar ayni bir mavzuda turli xil fikrlashib, bu mavzuni ifodalash uchun turli xil til unsurlaridan foydalanishadi”¹⁰⁰.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar o‘z nutqida evfemik birliklarni qo‘llab, erkaklardan farqli o‘laroq salbiy holatlarda qo‘pol, dag‘al, so‘kish iboralarini disfemizm shaklida qo‘llar ekan. Olim R. Lakoff o‘zining “Til va Ayollar o‘rni” nomli tadqiqotida ayollarning til axloqiga oid xususiyatlarini o‘rganadi. Olim shuni ta’kidlaydiki, ayollar nutqidagi o‘ziga xoslik barcha nutq jabhalarini, jumladan, leksik, sintaktik, ohang va boshqalarni qamrab oladi. Muallif yana shuni ta’kidlaydiki, ayollarning muloqot jarayonidagi o‘ziga ishonmaslik va o‘ta xushmuomalalik ijtimoiy tengsizlikning asoratidir¹⁰¹. S. Debraning fikricha, ayollar faqatgina jamiyatga tegishli bo‘lishni xoxlabgina qolmay, balki jamiyat tomonidan o‘zlarining tan olinishlari, qo‘llab-quvvatlanishlarini istar va shunga harakat qilar ekanlar. Shuning uchun ular tilga shunchaki muloqot vositasi sifatida qaramay, muloqot jarayoni davomida suhbatdoshi bilan iliq munosabatlar o‘rnatishga va bu orqali hamkorlikni kuchaytirishga intilishar ekan¹⁰². A.V. Kirillina ayollarni evfemizm bo‘yicha haqiqiy mutaxassislar deb ta’riflab, ayollar nutq jarayonida nazokatsiz, odobdan tashqari so‘zlarni qo‘llamasliklarini ta’kidlaydi¹⁰³.

¹⁰⁰ Есперсен О. Язык: его суть, происхождение и развитие. М.: Наука, 1990. – С. 254.

¹⁰¹ Лакофф Р. Язык и место женщины. СПб.: Алетейя, 2001. 184.

¹⁰² Debras S. Des journaux et des femmes // Communication et langage. 1999. № 122. – P. 58-71.

¹⁰³ Кириллина А. В. Развитие гендерных исследований в лингвистике // Филологические науки. 1998. № 2. – С. 51-58.

II bob bo'yicha xulosa

Ushbu bobda evfemizmning qo'llanilishi, mohiyati, evfemizm qo'llaniladigan soha va muhitlarni ikki til nuqtai nazaridan, ya'ni o'zbek va fransuz tilshunosligi bo'yicha qiyosiy tahlil qilindi. Evfemizmlar turli olimlar tomonidan turlicha mavzu guruhlariga bo'lingan. Mazkur bobda o'rganish natijasida evfemizmning tasniflanishini, shuningdek, zamonaviy fransuz tilshunosligida o'ziga xos o'rin tutuvchi so'zlar - "tabu" va "evfemizm" tushunchalarning shakllanish tarixi, bu tushunchalarning o'z tarixiy davrlarga ega ekanligi, ular turli ijtimoiy muhitlarda o'ziga xos uslubda qo'llanganligi va turlarga ajratilganligi haqida fikr yuritildi. Zamonaviy fransuz tilshunosligida xuddi boshqa yevropa tillari kabi til tabulari deb, "ta'qiqlangan" yoki yoqimsiz, ishlatilishi noo'rin, zararli, og'riqli, deb hisoblangan so'zlar tushuniladi. Evfemizm esa mazkur so'zlarni "yumshatib", "qog'ozga o'rab" ishlatish uchun qo'llanadi.

Shunday qilib, lisoniy hodisalarni ilmiy o'rganish zamon bilan hamqadam rivojlanadi. Shunga muvofiq ravishda, har bir davrda o'rganish obyektining yangidan yangi qirralari namoyon bo'ladi. Masalan, o'tgan asrning o'rtalarida o'zbek tilshunosligida evfemik birliklarning mohiyati asosan tabu hodisasi bilan bog'lab o'rganilgan bo'lsa, bugungi kunda ular nafaqat qo'llanishi ijtimoiy taqiqlangan til birliklari o'rnida ishlatiluvchi vositalar sifatida, balki uslubiy bo'yoq, nutqiy bezamalilik, fikrni nozik bayon etish, qolaversa, sharqona madaniyatga xos hurmat maqsadida qo'llanuvchi, so'zlovchining manipulyativ taktikasini ta'minlovchi kabi vositalar sifatida ham qaralmoqdaki, bu ilmiy tadqiqotlar evfemizmlarning mohiyatini ochishda yanada chuqurlashayotganligidan dalolat beradi.

III BOB. FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA EVFEMIZMLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

3.1. Til va madaniyat mushtarakligi

Til – madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda nafaqat insonni o'rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o'zini o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlari, axloqi, qadriyatlar yig'indisi va dunyoqarashi ham aks etadi.

Til – madaniyat xazinasini, sandig'i, majmuyidir. U leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, folklor, badiiy va ilmiy adabiyot, og'zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi¹⁰⁴.

Til – madaniyat tashuvchisi bo'lib, u ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili barobarida ajdodlarning boy madaniy tajribasini ham o'zlashtiradi.

Til – madaniyatning quroli, vositasidir. U xalq madaniyati vositasida inson shaxsiyatini, til sohibini shakllantiradi.

Demak, til "bizning hayot tarzimizni tavsiflovchi ijtimoiy meros qilib olingan malaka va g'oyalar majmuyi"¹⁰⁵ sifatida madaniyatdan tashqarida mavjud bo'lolmaydi. Til inson faoliyatlarining biri sifatida madaniyatning tarkibiy qismi hisoblansa-da, tafakkur shakli va muloqot vositasi sifatida madaniyat bilan bir qatorda turadi.

Til – kishilar oqimini xalqqa aylantiradigan, mazkur nutq jamoasining o'zini o'zi anglashi, madaniyati, an'analarini saqlashi va ularni meros qilishi orqali millatni shakllantiradigan kuchli ijtimoiy vositadir. "Til madaniyatning milliy komponentlari orasida birinchi o'rinda turadi. Til birinchi navbatda, madaniyatga kishilik jamiyatining ham muloqot vositasi, ham ushbu muloqotni

¹⁰⁴ Robins R. H. General Linguistics. An Introductory Survey. –London, 1971. –P. 27; Верецагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. –М., 1990. – С. 26.

¹⁰⁵ Сепир Э. Язык. Введение в изучение речи // Избранные труды по языкознанию и культурологии. – С 185.

uzib qo'yuvchi vosita bo'lishiga yordam beradi. Til – uning sohiblarining muayyan jamoaga tegishli ekanini ko'rsatadi. Xalqning o'ziga xos asosiy xususiyati bo'lgan tilga “ichki” va “tashqi” jihatdan yondashish mumkin. Tilga “ichki” jihatdan yondashilganda, u etnik integratsiyaning bosh omili sifatida namoyon bo'lsa, “tashqi” jihatdan yondashilganda, u xalqning etnik farqlarini ko'rsatadi. Bu ikki qarama-qarshi funksiyani o'zida dialektik birlashtirgan til bir tomondan xalqning o'z-o'zini saqlash vositasi, ikkinchi tomondan uni “o'ziniki” va “begona”ga ajratish vositasi bo'lib xizmat qiladi”¹⁰⁶.

Ma'lumki, biror tilning rivojlanishida shu millatning madaniyati, urf-odatlar, diniy qarashlari ta'sir ko'rsatadi. Ayni damda bu sohalarining taraqqiy etishida nutq birligi- tilning ahamiyati katta. Har bir millat o'zida ma'lum bir milliy an'analarni aks etadi. Ya'ni har bir xalqning, millatning o'z milliy an'analari, urf-odatlar mavjud. Bu ma'noda har bir inson ana shu milliylikni o'zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo'ladi. Ma'lumki, til ijtimoiy hodisa bo'lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro- madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida spetsifik yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha - lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Natijada XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o'rganishni maqsad qilgan - tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi.

Lingvokulturologiya – “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar - til-madaniyatni birgalikda o'rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo'lib, til va

¹⁰⁶ Антипов Г. А., Донских О. А., Марковина И. Ю., Сорокин Ю. А. Текст как явление культуры. – Новосибирск, 1989. – С. 75.

madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Bir tomondan lingvokulturologiya insoniyatning madaniy til faktoridagi o'rnini, ikkinchi tomondan esa, til faktoridagi insonning o'rnini o'rganadi.

Lingvokulturologiya o'rganish obyektiga ko'ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o'rganish obyektiga bo'lgan yondoshuviga ko'ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo'lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog'liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifik qoidalarni o'rganadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o'ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug'ullanadi.

Bilamizki, madaniyat tushunchalar sistemasi, muayyan xalqning hayot obrazi, milliy xarakter, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi. N.S.Trubetskiyning yozishicha: "Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so'z bo'lishi mumkin emas, ya'ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar bo'lishi shart"¹⁰⁷. Til va madaniyatning ana shunday o'zaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o'rganish imkonini berdi. Ya'ni, til va madaniyat.

"Til va madaniyat" muammosining o'rganilishida bir qancha yondoshuvlarni belgilash mumkin: *birinchi yondoshuv* faylasuf olimlar (S.A.Atanovskiy, G.A.Brutyan, E.S.Markaryan)lar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda madaniyatning tilga bir tomonlama ta'siridan borliqning o'zgarishi natijasida milliy-madaniy tipiklashtirish va tilda o'zgarish yuz beradi, degan g'oya yotadi¹⁰⁸. *Ikkinchi yondoshuvda* esa bu ta'sirning aks tomoni, ya'ni hozirgi kungacha ochiq qolib kelayotgan va munozarali masala - tilning

¹⁰⁷ Трубецкий Н.С. Поведения и мышления к языку. в кн.: НЛ.в.1.М.,1960.

¹⁰⁸ Бу haqda qarang: Сепир Э. Отношение норм. Поведения и мышления к языку в кн.: НЛ.в.1.М.,1960.

madaniyatga ta'siri masalasini o'rganish maqsad qilinadi. Tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish bu yondoshuvning asosiy g'oyasi sanaladi. Tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish (V.Gumboldt,A.A.Potebnya) asosida Sepir-Uorfning lingvistik aloqadorlik gipotezasi, ya'ni har bir xalq borliqni o'z ona tilisi orqali ko'radi, his etadi, his etganini belgilaydi, degan g'oya yotadi¹⁰⁹. Bu g'oya keyinchalik, I.L.Vaysgerberning tilni "O'tkinchi dunyo", ya'ni "borliqni anglash", muayyan "mavjudlik va tafakkur" sifatida qaraluvchi g'oyalarida ilgari surilgan. Uning bu gipotezasi ko'pchilik olimlar tomonidan inkor etilgan bo'lsa-da, biroq ular boshqa usullar ishlari buning isbotidir¹¹⁰.

Uchinchi yondoshuv to'g'ridan-to'g'ri til va madaniyatning o'zaro ta'siri va aloqadorligi g'oyalariga asoslanadi. Til milliy mentalitetning spetsifik qirralarini o'zida namoyon etadi. Boshqa tomondan "madaniyat tilda" joylashgan, ya'ni u matnda to'laligicha o'z ifodasini topadi. "*Lingvokulturologiya*" atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V.N.Teliya va V.V.Vorobyov, V.A.Maslova va boshqalarning ishlarida ko'rindi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F.Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar¹¹¹. Ushbu adabiyotlarda bu sohaning rivojlanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbiskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol o'ynaganligi ta'kidlanadi¹¹². Bu kabi qarashlar lingvistika sohasida XX asr oxirlarida atoqli rus olimlari qatorida chet el olimlari tomonidan ham tan olindi. Bunday qarshlarga ko'ra, til nafaqat madaniyat bilan bog'liq, balki u o'zida madaniyatning o'sishini ham ifodalaydi.

¹⁰⁹ Nurmonov A.Sepir-Uorfning lingvistik nazariyasi haqida mulohazalar/ O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari.. – Toshkent, 2011.-№5.

¹¹⁰ Маслова В.В. Лингвокультуроология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. - М.,1987.

¹¹¹ V.Gumboldtning til va shaxs haqidagi fikrlari to'g'risida qarang: Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi. Nurmonov A.Tanlangan asarlar.2- jildlik.-Toshkent: Akademnashr, 2012. – B.23-40.

¹¹² Маслова В.В. Лингвокультуроология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. - М.,1987.

O'zbek tilshunosligida "til va madaniyat" masalalari bilan eng ko'p va xo'p shug'ullangan olim sifatida professor Nizomiddin Mahmudovni ko'rsatish mumkin. Jumladan, olim o'zining "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida "til" va "madaniyat" tushunchalari haqida quyidagilarni yozadi: "Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to'g'risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (*nutq madaniyati*)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyi (*madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati*)" demakdir"¹¹³.

N. Mahmudov tilga ehtirom ko'rsatish va unga e'tibor berishni ta'kidlab, quyidagilarni yozadi: Til benihoya muqaddas va mo''tabar ne'mat, u odam degan mavjudotga shakllantirilgan, qavmlar o'laroq birlashtirgan, taraqqiyot bosqichlariga olib chiqqan, ruhiy takomilga boshlagan, tafakkur gulshanining darvozalarini ochgan bemisl bir robitadir. Shuning uchun ham tilga nopisandlik insoniyatning o'zligiga nopisandlik demkdir. Tilga ehtirom va e'tibor esa bu dunyoda inson bolasi muhtamligining e'tirofidir"¹¹⁴.

V. fon Gumboldning "Tilda xalq ruhi aks etadi" degan fikri N. Mahmudovning asarlarida o'ziga xos tarzda davom ettirilganini ko'rish mumkin: "...tilda xalqning urf-odati, yashash tarzi, iqtisodiy ahvoli, qisqasi, xalqning borbudi, bo'y-basti aks etadi. Muayyan xalqning tilini bilish uning butun borlig'ini anglash demakdir. Muayyan xalq tilining mazmunu mohiyatini idrok etish shu xalqning tarixiyu kelajagini idrok etish demkdir. Til xalqning

¹¹³ 1 Махмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўллари излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. -№5. –Б. 10.

¹¹⁴ Махмудов Н. Тил. –Тошкент: Ёзувчи, 1998. –Б. 3.

bebaho va muqaddas boyligidir, xalqning har bir asl farzandi o'z tilida sobit va o'z tiliga sodiq bo'lmog'i azal-abad ham qarz, ham farz".

Olim buyuk nemis tilshunosi Yakob Grimmning "Xalq haqidagi saqlanib qoladigan eng jonli guvoh – bu uning suyagi, foydalangan ish qurollari yoki qabri emas, balki uning tilidir" degan fikrini shunday rivojlantiradi: "Xalq o'z tili haqida uning ibtidosidan boshlab ma'lumotga ega bo'lsa, bu tilning turfa tovlanishlariyu, tarang va lo'nda mantiqini chuqur his eta olsa, o'zining uzoq va murakkab tarixini ham chuqur his eta oladi, tarixidan faxrlana oladi, o'zinikidan boshqa tillarning xam muqaddasligiga. Har jihatdan hurmatga loyiqligiga imon keltira oladi. Bu esa xalqning o'zligini anglashi demakdir"¹¹⁵.

Til bir vaqtning o'zida yaratish quroli, madaniyatning rivojlanishi va saqlanishini ta'minlovchi uning bir qismidir, shuning uchun til yordamida ma'naviy madaniyat hamda borliqdagi ishlab chiqarish, materiallari real yaratiladi.

Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro- madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida spetsifik yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha - lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

3.2. Fransuz tilshunosligida evfemizm qo'llanadigan sohalar va ularning tahlili

Tilshunoslikda evfemik birliklar qo'llaniladigan sohalar bo'yicha olimlar tomonidan yakdil qarorga kelingani yo'q. Har bir davr tabu va evfemizm bo'yicha o'z sohalariga ega va bu sohalar faqat muayyan davr yoki jamiyat uchun xos bo'ladi. Bizning asrimizda shunday sohalar borki, ular bugungi

¹¹⁵ Махмудов Н. Тил. –Тошкент: Ёзувчи, 1998. –Б. 3.

jamiyatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib ulgurgan va ular nazardan chetda qolmaydi. Bular iqtisodiy hayot, ichki va tashqi siyosat, moliya, boshqaruvchi va bo'ysunuvchi orasidagi aloqa va va boshqalarni o'zida aks ettiruvchi sohalardir.

« Fransuz tilshunosligida evfemizm va tabularning paydo bo'lishi uchun asosiy sohalar sifatida to'rt guruh ko'rsatiladi¹¹⁶:

- I. irim, sehr-jodu, qo'rquv va diniy e'tiqod bilan bog'liq guruh ;
- II. xushxulqlik, o'lim, va uyatchanlik (sharm-hayo) bilan bog'liq guruh ;
- III. nazokat, xushmuomalalik, afsus(o'kinch, pushaymonlik, tavba) rahmdillik bilan bog'liq guruh ;
- IV. ehtiyotkorlik, odob-axloq qoidalari, uzoqni ko'ra bilishlik, qiziqish(manfaatdorlik) bilan bog'liq guruh.

I. Irim, sehr-jodu, diniy-e'tiqodlar bilan bog'liq tabular.

Mazkur tabu sohasi so'z va inson yoki so'z va narsa o'rtasida noaniq bog'lanishning mavjudligi bo'yicha qadimiy qarashlardan kelib chiqqan. Bunga ko'ra narsa yoki shaxsni bildiruvchi ot faqatgina ularni ifodalamay, balki shu narsa va shaxsning bir bo'lagi hisoblanadi.

Qadimda biror narsaning nomi talaffuz qilinganda, shu narsa bilan bevosita aloqa o'rnatish mumkin, deb hisoblashgan. Shuning uchun ham qadimgi odamlar biror g'ayritabiiy mavjudot haqida gapirayotganda uning yaxshi yoki yomon, xavfli yoki bezarar bo'lishidan qat'iy nazar, yoki qo'rqinchli va yovvoyi hayvonlar, o'lim va kasalliklar haqida ham gapirayotib juda ehtiyotkor bo'lganlar.

Odamlar o'zlaridan kuchli bo'lgan maxluqotlar bilan juda e'tiborli bo'lganlar. Fransuz tilida “*quand on parle du loup on en voit la queue*”, ya'ni “*bo'rini yo'qlasang, qulog'i ko'rinadi*” degan maqol bor.

Boshqa tillarda ham o'z muvofiq variantiga ega bo'lgan bu yuqoridagi

¹¹⁶ M. Leroy, Les grands courants de la linguistique moderne, Bruxelles et Paris, 1963, II^e éd. – P. 166.

qarashning hosilasi hisoblanadi. Bugungi kunda ham oddiy xalq orasida “*Dieu*” - “*Xudo*” soʻzini boshqa xil variantlarda ishlatilishini kuzatish mumkin.

Masalan, *le Bon Dieu* (Mehribon Olloh),

le Seigneur (Xoja) yoki

Notre Seigneur (Bizning Xojamiz) tarzida, yoki sharqona ohangda,

le Tout-Puissant (Barcha ishga qodir),

le Créateur (Yaratgan),

l'Éternel (Mutlaq Hokim),

le Sauveur (Xoliq),

l'Etre Suprême (Parvardigor),

le Grand Etre (Iloh),

la Providence (Tangri) kabi soʻzlar bilan qoʻllanilishini ham kuzatish mumkin.

Koʻplab mamlakatlarda, jumladan, Italiya, Germaniya, va Polshada “*Jésus*” - “*Iso Masih*” soʻzi butkul tabu soʻz hisoblanib, bu soʻz choʻqintirish paytida beriladigan nomlar qatoridan chiqarilgan. Fransiyada esa bu soʻz oʻrta asrda tabulashgan boʻlib, bugungi kunda istisno tariqasida ishlatiladi.

Ayollar ismi hisoblangan “*Marie*” nomi Fransiyada ayollarga bimalol qoʻyilib, baʼzi mamlakatda, ayniqsa, Ispaniyada bu soʻz oʻz evfemik variantiga ega¹¹⁷.

Boshqa rivojlanmagan hududlarda ham avliyolar bilan bogʻliq baʼzi til tabulari mavjud. Fransuz tilida “*Saint*” yaʼni “*avliyo*” soʻzini dindorlik, xudojoʻylik, hurmat, ehtirom belgilari sifatida avliyolar nomi oldidan qoʻllaniladi. Bugungi kunda ham fransuz tilshunosligida “*Satan*” - “*shayton*”, “*sorcière*” – “*jodugar*” soʻzlari tabu soʻzlar hisoblanib, bular haqida oʻylagan kishiga ziyon yetadi deb tushunishadi. Hattoki ovga borayotgan ovchilar oʻzlari

¹¹⁷ A. Dauzat, Les noms de personnes, Paris, 1955. – P. 45.

ovlamoqchi bo'layotgan hayvonlarini nomini uni yo'qotib qo'yishdan cho'chib talaffuz qilishmaydi¹¹⁸.

II. Xushxulqlik, o'lim, va uyatchanlik (sharm-hayo) bilan bog'liq tabular.

Ushbu guruhda qo'llaniladigan evfemizmlar odobdan tashqari, beadab, uyat yoki yoqimsiz deb topilgan so'z va iboralar o'rnida ishlatiladi. Fransuz xalqi o'lim, uyatchanlik, sharm-hayo bilan bog'liq mavzularda gapirayotib bu mavzularda qo'llaniladigan so'z va ifodalarni boshqa lingvistik o'rindosh so'zlar bilan almashtirishadi, ayniqsa, ijtimoiy munosabatlarda so'zlovchi va tinglovchi orasida yoqimsiz suhbat paydo bo'lishidan qochib, evfemik ifodalarni qo'llashni afzal ko'rishadi. Shu o'rinda turli xil bitim, shartnoma, hamkorlik kabi holatlarni ham alohida ta'kidlash lozim. Bu guruhga inson tana a'zolari, fiziologik harakatlar, intim munosabatlar va boshqa jarayonlar bilan bog'liq evfemizmlar kiradi. Yuqoridagi holatlar va boshqa shunga o'xshash holatlarda odobdan tashqari (*indécences*) deb topilgan iboralar evfemik iboralar bilan almashtiriladi. Bu evfemizmlar zamonaviy muhitda tez-tez qo'llaniladi. Shuni ta'kidlash kerakki, irim, xurofot bilan bog'liq evfemizmlar birmuncha qoloq, sivilizatsiyadan ortda qolgan jamiyatda qo'llansa, xushxulqlik, uyatchanlik bilan bog'liq evfemizmlarning katta qismi zamonaviy rivojlangan jamiyatda paydo bo'lgan. Bu guruh ildizi esa diniy qonun-qoidalarga asoslanib tarkib topgan. Shunisi ajablanarki, dehqon "*diable*" (*shayton*), "*loup*" (*bo'ri*), "*belette*" (*ariq sichqoni*) kabi so'zlarni aytishdan qo'rqqan holda yuksak tarbiyalangan shaxs uchun noqulay, uyat hisoblangan so'zlarni bemalol, hech ikkilanmay o'z nutqida qo'llar ekan.

III. Nazokat, xushmuomalalik, afsus (o'kinch, pushaymonlik, tavba) rahmdillik bilan bog'liq tabular.

Bu guruhdagi evfemizmlar past ohangda, yumshoqlik bilan, suhbatdoshga o'ta ehtiyotkorlik bilan murojaat qilinishi bilan ajralib turadi. Guruhga kiruvchi sohalarga o'lim, xavfli yoki yuqumli bo'lgan kasalliklar sohasini kiritish

¹¹⁸ Cfr. Bloomfield, *op. cit.* – P. 156.

mumkin. Misol uchun kasal odam bilan suhbat olib borayotganda, mazkur kasallikning nomini aytmaslikka yoki majburiy holatlarda bu kasalikni boshqa, kishini o'ksitmaydigan o'rindosh so'zlar bilan almashtirilgan holda aytish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Masalan, sil kasalligiga (le tuberculeux) uchragan odamni *“enrhumé”* (shamollagan),

“indisposé” (tobi qochgan),

“faible” (kuchsiz),

“pale” (rangi o'chgan) kabi evfemik so'zlar bilan ifodalanadi, yoki kasallikni tasviriy ifodalash maqsadida *“malade des poumons”* (o'pka kasalliklari bilan og'rigan bemor) shaklida ifodalash mumkin.

“Une personne malade” – *“kasal odam”* iborasi ham qadimiy evfemik birlik bo'lib, *“mal habitus”*, ya'ni *“yomon odatlar”* so'zidan kelib chiqqan. Bugungi kunda bu so'z boshqa evfemik birliklar bilan, jumladan,

“faible” (kuchsiz),

“se sent mal” (o'zini yomon his qiladigan),

“indisposé” (tobi qochgan),

“incommodée” (mazasi qochgan),

“souffrante” (azoblanuvchi) kabilar bilan ifodalanadi.

Kasalni tinchlantirish yoki uni o'ziga nisbatan ishonchini mustahkamlash maqsadida, xushmuomalalik, nazokat bilan kasal yotgan joyni *“l'hôpital”* – *“kasalxona”* deb emas, balki

“sanatorium” - *“sanatoriya”* (ayniqsa, sil bilan og'rigan bemorlar uchun),

“à la maison repos” - *“dam olish maskanida”*,

“l'observation du médecin” – *“doktor kuzatuvida”* kabi evfemik birliklar bilan o'zgartirilgan holda nomlashadi.

Ko'p hollarda suhbatdoshga hurmat yuzasidan *“kuchli”* ta'sir etuvchi so'z va iboralar biroz yumshoq ifodalar bilan o'zgartirilgan holda qo'llanadi. *“Nazokatsiz”* yoki *“madaniyatsiz inson”* sifatida taassurot uyg'otmaslikni

xohlagan har bir inson ayrim soʻzlarni “ochiq” aytmaslikka harakat qiladi. Mazkur oʻrinda ayrim nuqson, qusur yoki xatolar bilan bogʻliq holatlar yaxshi misol boʻla oladi.

Masalan, “*sot*” – “*axmoq*” soʻzi

“*sans expérience*” – “*tajribasiz*”,

“*naïf*” – “*sodda*” (lotin tilida “*nativus*” evfemik birlik) soʻzlari bilan almashtiriladi.

Shuni aytish kerakki, evfemizmlar ham davrlarga qarab oʻzgaradi. Yaʼni qaysidir davrda evfemizm boʻlgan soʻz va ibora boshqa davr uchun tabu soʻz hisoblanadi. Bugungi kunda “*sot*” – “*axmoq*” soʻzini ifodalovchi “*bênet*” soʻzi qachonlardir evfemik soʻz boʻlib, “*benedictus*” – “*marhamat*” degan maʼnoni ifodalaydi.

IV. *Ehtiyotkorlik, odob-axloq qoidalari, uzoqni koʻra bilishlik, qiziqish(manfaatdorlik) bilan bogʻliq tabular.*

Ushbu turkumga kiruvchi tabular baʼzi maʼnolari bilan yuqorida sanab oʻtilgan guruhlar bilan chambarchas bogʻliq. Guruhdagi evfemizmlarning katta qismi kishida yaxshi taassurot qoldirish yoki muloqot jarayonida suhbatdoshga yaxshi kayfiyat ulashish maqsadida paydo boʻlgan.

Demak, mazkur turkumdagi evfemik birliklar asosan yaxshi taassurot qoldirish, suhbatdoshga yoqish istagi yoki oddiygina latofat, nazokat yuzasidan kelib chiqqan.

Misol sifatida shuni aytish mumkinki, fransuz xalqi restoranda ofitsant (yoki xizmat koʻrsatuvchi xodim)ga murojaat qilayotib uni

“*patron*”-“*boshliq*”, *militsiya xodimi(l’agent de police)*ni esa “*commissaire*”-“*komissar*” yoki turli xil sabablar va holatlarga qarab *ishchi (l’employé)*ni “*directeur*”- “*direktor*”, *maʼruzachi(le lecteur)*yoki *uning yordamchisi(l’assistant)*ni “*professeur*”- “*professor*”deb atashadi.

Bu kabi evfemizmlar, ayniqsa rahbar va unga boʻysunuvchi, yoki iltimos

qilib murojaat qiluvchi va qilinuvchi shaxs orasida kechadi¹¹⁹.

Aynan shu yo'nalishda xushmuomalalik zamirida hosil bo'lgan evfemizmlar yoki nafislik, nazokatlik belgisi hisoblangan so'zlar, jumladan,

“Monsieur”- “janob”,

“Vous”- “Siz”,

“Votre Excellence”- “Janobi Oliylari” va shunga o'xshash so'zlar qo'llaniladi¹²⁰.

Shuningdek, bu guruhga to'liq bo'lmagan unvonlar fenomeni ham kiritilgan. Masalan, hali *“vitse-konsul”(vice-consul)* bo'lgan shaxslarga *“konsul”(consul)* deb murojaat qilish yoki *“podpolkovnik”(lieutenant colonel)*ni *“polkovnik”(colonel)* deb atash bunga yorqin misol. Ba'zan ramziy ma'noda, ijtimoiy munosabatlarda “yuqori tabaqa”, “tabaqalanish”, “tengsizlik” holatlarini bartaraf etish maqsadida, ayniqsa direktor va uning xodimlari, rahbar va uning ishchilari yoki katta yoshdagilar va yoshlar o'rtasida samimiylik, do'stlik muhitini yaratish uchun evfemik birliklardan foydalanishadi. Bu guruhda so'zlovchining shaxsiy manfaaatlaridan kelib chiqadigan evfemizmlar ham o'rin egallaydi. Fransuz xalqida yana o'zligini, o'z harakatlarini eng yaxshi ranglarda namoyish etishga inlish ham mavjud. Bu bilan ular kamchiliklarini yashirib, ijobiy sifatlarini uqtirib, ta'kidlab o'tmoqchi bo'lishadi.

Mazkur jarayonga bir qancha misollarni keltirish mumkin : *uy(maison)* ni *“villa”(bog'li koshona)* yoki *“saroy”(palais)*, turar joy(*logement*)ni *“kvartira”(appartement)*, satarosh yoki tikuvchi usta xonasini *“salon”(salon)* yoki *“modalar uyi”(maison de mode)*, do'koncha (*boutique*)ni *“katta magazin”(un grand magasin)* deb nomlashni ma'qul ko'rishadi. Yoki savdo sohasida mahsulotlarni “xaridorgir” qilib ko'rsatish uchun sotuvchi tilidan uni “kichraytirib” ko'rsatish holati tez-tez quloqqa chalinadi. Jumladan, bozorlarda

¹¹⁹ Cfr. H. Paul, *Prinzipien der Sprachgeschichte*, Halle, 1893, III^e éd. – P. 93; Bloomfield, op. cit. –P. 401 ; Kr. Nyrop, *Linguistique et histoire des mœurs*, trad. française, Paris, 1934. –P. 13.

¹²⁰ Cfr. Paul, op. cit., p. 93 ; Bloomfield, ibid. ; Contributions à l'étude des formules de politesse en ancien français. I., in *Acta Linguistica Academiae Scientiarum Hungaricae*, V, 1955. – P. 295-367.

mol go'shti (du bœuf)ni "*du veau*"(*buzoq go'shti*), *tovuq go'shti* (une poule)ni "*un poulet*"(jo'ja) deb atash orqali sotuvchi xaridorni maftun etadi va uni o'ziga og'dirib oladi¹²¹.

O'z navbatida, mahsulotni mukammal, namunali qilib ko'rsatish xaridorlarni uni sotib olishga undaydi. Hattoki, majburiy ravishda mijozga "*monsieur*" - "*janob*"(ayniqsa, bu holatni chekka hududlardagi kichik do'konlarda ham kuzatish mumkin) va shunga o'xshash ko'plab sifatlashlar bilan murojaat qilinadi. Xaridorda o'z-o'zidan do'konda mahsulotni olish uchun "*buyurish*" - "*commander*" , shuningdek, "*pulni yurgizish*" yoki "*pulni boshqarish*" – "*régler la note*" huquqlari paydo bo'ladi. Bu huquq unga bevosita do'kon xodimlari tomonidan beriladi.

Ishchilar sinfi mavqeini ko'tarish, ularning o'ziga nisbatan ishonchini kuchaytirish, yoki ijtimoiy hayotda demokratik muhitni ta'minlash, "*quyi kasb*" egalarini kamsitmaslik maqsadida evfemizmning mohirona qo'llanilishini ko'rish mumkin. Bu nafaqat kasbga bo'lgan layoqatni o'stirish, balki ijtimoiy tizimning demokratiyalashuvini keltirib chiqarish uchun katta xizmat qiladi. Mazkur o'ziga xos uslub, ya'ni "*quyi kasblar*" nomlarini evfemizm orqali qo'llash juda samarali bo'lib, "*haqoratli*" , "*obro'ni to'kadigan*" deb hisoblangan so'zlar o'rniga yangi, "*hurmatni oshiradigan*", "*jozibali*" so'zlarni qo'llash natijasida mazkur kasb egalarining o'z kasbiga bo'lgan ishtiyoq, qiziqishi ortadi. Bunda semantik ko'chish sodir bo'lib, bu esa kasb nomlarining evfemizm orqali paydo bo'lgan o'ziga xos yangi, ulug'vor ko'rinishini keltirib chiqaradi.

Misol tariqasida "*la servante*" - "*xizmatkor ayol*", keyinchalik "*domestique*" - "*oqsoch, yugurdak*" deb atalgan bu kasb vakilasi bugungi kunda o'zining "*une aide*" - "*yordamchi*", "*bonne à tout faire*" - "*uyda*

¹²¹ Cfr. B. F. Chiapelli, *Elementi di stilistica e di versificazione italiana*, Florence, 1948, II éd. –P. 111.

hamma ishlarni bajaruvchi” yoki yanada yaxshiroq variantda *“employée de maison”* - *“uy xizmatchisi”* deb nomlanishidan qoniqar ekan. *“Le facteur”* - *“xat tashuvchi”* esa o‘zining *“commissionnaire”* - *“xabarchi”*, *“le balayeur”* - *“farrosh”* o‘zini *“employé municipalité”* - *“munitsipalitet xizmatchisi”* tanishtirar ekan. Bu hodisa barcha kasb vakillariga tegishli bo‘lib, o‘z kasblarining mana shunday ohangdor qilib ulug‘lash, shubhasiz kasbga nisbatan o‘zgacha mehr-muhabbatni kuchaytiradi.

Jumladan, *“boutiquer”* - *“baqqol, do‘kondor”* ning o‘z-o‘zini bajonidil *“commerçant”* - *“tijoratchi, savdogar”* deb atashni, *“paysan”* - *“dehqon”* esa o‘zini *“agriculteur”* - *“qishloq xo‘jalik xodimi”* yoki *“cultivateur”* - *“kultivator, yerni ishlovchi”* deb atashni afzal ko‘rar ekan. Hattoki *“villageois”* - *“qishloqlik”* larga ham *“habitant de campagne”* - *“qishloqda yashovchi”* iborasini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘larkan.

Bu guruhga shuningdek, diplomatiya va ma‘muriyat doirasida qo‘llaniladigan rasmiy til evfemizmlari ham kiradi. Binobarin, davlat arboblari uchun *“ma‘qul bo‘lmagan”*, *“izzat-nafsga tegadigan”*, yoki *“hech qanday ishlov berilmagan, to‘g‘ridan- to‘g‘ri nutq”* ni bu soha vakillariga nisbatan ishlatilishining oldini olish maqsadida rasmiy til evfemizmlariga murojaat qilinadi. Masalan, *ishdan haydalgan diplomat (un diplomate congédié)* ni *“est rendu (revenu) à ses chères études”* - *“o‘zining sevimli mashg‘ulotiga qaytdi”* yoki *“il prend un congé de longue durée”* - *“u uzoq davom etadigan ta‘til oldi”* tarzida, xuddi shu holatda zobit (*l’officier*) ga *“réformé”* - *“harbiy xizmatdan ozod etilgan”* yoki ishchi (*l’employé*)ga *“remercié”* - *“rahmat aytilgan”* kabi evfemizmlar ishlatiladi. Demokratik davlatga to‘g‘ri kelmaydigan *“solliqlar”* so‘zi o‘rniga, *“jarima solmoq, soliq solmoq”* so‘zlari uchun *“contributions”* - *“hissa qo‘shish, ko‘maklashish”* yoki ba‘zida *“contributions volontaires”* - *“ko‘ngilli ulush qo‘shish”* atamasining ham qo‘llanilishini kuzatish mumkin. Narxlarining oshishi haqidagi ma‘lumot noxush ifoda aks etmasligi uchun uni *“règlement”* - *“tartibga keltirish”* yoki *“alignement”* - *“muvofiq holga*

keltirish” tarzida ishlatiladi. Xalqaro va har bir millat hayoti uchun man etilgan soʻzlardan biri bu - “*crise*” - “*inqiroz*” soʻzidir. Bu soʻz ham turli xil evfemizmlar bilan almashtiriladi: “*récession*” - “*tushkunlik*”, “*difficulté*” - “*qiyinchilik*”, “*situation difficile*” - “*mushkul vaziyat*”, “*situation changée*” - “*oʻzgargan holat*”, “*obstacles passagers*” - “*yoʻlovchi toʻsiqlar*”, “*à surmonter*” - “*yengib oʻtmoq*”. Parlament yigʻilishlarida dahshatli shovqin, hatto “ur-yiqit” kelib chiqsa ham (gʻarbga xos demokratiya) parlament aʼzolariga nisbatan fuqarolarda hurmat yoʻqotmasligi uchun “turli xil harakatlar”(mouvement divers) deb protokollashtiriladi. Rasmiy tilda xususiy qurollar haqida gap ketganda, bu qurollarni yumshoq iboralar bilan “*les moyens de défense*” - “*himoya vositalari*”, “*hujum qilish*” ni “*attaquer*” deb emas, “*repousser les attaques de l’ennemi*” - “*dushman hamlasini qaytarmoq*” yoki “*l’agression extérieure*” - “*tashqi tajovuz*” shaklida qoʻllaniladi. Demokratik davlatlar boshqa millatlarni kamsitmaydi, aksincha oʻzining shaxsiy manfaatlarini himoya qilinadi, dunyoda tinchlik muhitini oʻrnatish yoʻllarini izlaydi. Sezarning iborasi bilan aytganda, “tinchlikda tinchlikni qoʻllab-quvvatlashadi”. Rasmiy fransuz tilida “*guerre*” - “*urush*” soʻzi ham tabu soʻz hisoblanadi. Bu soʻz oʻrniga “*conflit*” - “*nizo*” soʻzi qoʻllanilib, shu soʻzning oʻzi bir paytda “*sanglant*” - “*qonli*”, “*armé*” - “*qurollangan*” yoki “*international*” - “*xalqaro*” tushunchalarini ifodalaydi. Rasmiy tilda, demokratik yondashuv jihatidan, “*qoloq mamlakatlar*” (*pays arriérés*) ga nisbatan “*sous-développés*” - “*rivojlanayotgan, taraqqiy etayotgan*” yoki “*en voie développement*” - “*rivojlanish yoʻlida*” iboralari ishlatiladi. Bu guruhga har bir millat hayotida, uning taqdirida ulkan ahamiyat kasb etadigan “vatanparvarlik” deb nomlanadigan evfemizmlar ham kiradi. Bu evfemizmlarning ishlatilishi oʻzini Vatanining bir boʻlagi deb hisoblagan har bir shaxs qalbida Vatanga boʻlgan muhabbat, qolaversa, vatanparvarlik xislatlarini kuchaytiradi. Binobarin, xizmat jarayonida halok boʻlgan harbiyga nisbatan uni “urushda oʻldi, oʻldirildi” deb emas, “*accomplit son devoir patriotique*” - “*Vatan oldidagi burchini ado etdi*”,

“il tombe héroïquement au champ d’honneur” - “u shon-shuhrat maydonida qahramonlarcha halok bo’ldi” iboralari ishlatiladi. Sport sohasida qoniqarsiz yoki muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlangan natijalar haqida milliy vatanparvarlik jihatidan evfemizmlarga murojaat qilinadi.

Fransuz tilida, xuddi boshqa tillar kabi “tabu” yoki “man etilgan” va evfemizm qo’llanadigan sohalar miqdori cheksizdir. Bu bobda biz ularning ayrimlarinigina misol sifatida aytib o’tdik. O’z-o’zidan savol tug’iladi : tilda man etilgan so’z va ifodalarning mavjudligi va bugungi fransuz tilida evfemizmlarning ishlatilishidan maqsad nima? Bunda ikki yo’nalish kuzatiladi :

1. O’kinchli haqiqat, reallikni yashirmay, uni bir oz kamaytirish orqali og’riqli, azoblaydigan, yoqimsiz taassurotni bartaraf etish ;
2. Xuddi birinchi yo’nalish kabi ijobiy bo’lib, suhbatdoshda yaxshi kayfiyatni paydo qilish.

Fransuz tilida evfemizmlarni mavzular bo’yicha o’rganganimizda evfemizmlar 9 ta sohada eng ko’p qo’llanishini kuzatdik. Bular:

1.	Géopolitique	Geopolitika
2.	Société	Jamiyat
3.	Relations commerciales	Tijorat munosabatlari
4.	Handicap	Nogironlik
5.	Mort	O’lim
6.	Sexe	Jins
7.	Guerre	Urush
8.	Crime	Jinoyat
9.	Police	Politsiya

Geopolitika

Bu sohada “rivojlanayotgan mamlakatlar” (*pays sous-développés*) yoki “qoloq davlatlar”ni ifodalash uchun evfemizmdan mohirona foydalanilishini kuzatish mumkin:

- “*pays en voie de développement*” - “*rivojlanish yo’lidagi davlatlar*” ;
- “*pays du sud*” - “*janubiy mamlakatlar*” ;
- “*pays émergents*” – “*ko’rinish berayotgam mamlakatlar*” ;

Yoki bunga teskari tarzda “boy davlatlar” ni ifodalash uchun “*pays riches*” ifodasini qo’llashadi. Bu o’z navbatida geografik jihatdan Shimolda joylashgan mamlakatlarga nisbatan ko’proq ishlatiladi.

Ijtimoiy sohada

- So’zlovchidan farqli o’laroq, teri rangi ajralib turuvchi insonlarga nisbatan “*personnes de couleurs*” – “*rangli insonlar*” evfemikasi ishlatiladi.

- Yoki ma’muriy va politsiya terminologiyasida aniq joy, makonga ega bo’lmagan insonlarga nisbatan “*SDF*” (“*sans domicile fixe*”) – “*aniq manzilsiz*” evfemik birligi qo’llaniladi. Ilgari mazkur holatda bo’lgan insonlarga nisbatan “*vagabond*” – “*ko’chmanchi*”, “*mendiant*” – “*tilamchi*”, “*clochard*” – “*daydi, darbador*” kabi so’zlar qo’llanilgan. “*Sans domicile*”, “*sans abri*” – “*Makonsiz*” evfemizmlarining qo’llanilishi holatni ochiq-oydin oshkor etmaslik, uni qog’ozga o’rab aytish, bu orqali noxush vaziyatning oldini olishga yordam beradi.

- “*Troisième âge*” – “*uchinchi davr*”, “*sénior*” – “*yoshi ulug’*” evfemizlari keksa yoshdagi insonlarga nisbatan;

- “*Défavorisé*” – “*noqulay, yomon vaziyatda qolgan*”, “*modeste*” – “*oddiy, kamtar, odmi*” kabi evfemizmlar kam ta’minlangan insonlarga nisbatan;

- Mahalliy aholini ixtiyoriy kiritish, assimilyatsiya qilish (“*assimilation volontaire*”) uchun “*intégration*” (*qo’shish*) evfemik qo’llanadi. “*Assimilation forcée*” (*zo’ravonlik bilan kiritish*) atamasi butkul tabu so’z hisoblanadi.

Tijorat aloqalari

Tijorat sohasida narxlarning o'sishni yashirish uchun quyidagi ibora ishlatiladi:

- *“Votre facture évolue, les tarifs évoluent” – “Uslub o'zgardi, narxlar ham o'zgardi”;*

- Yoki *“c'est un leader dans son domaine”* - *“u o'z sohasining etakchisi”* iborasi orqali shu sohadagi suhbatdoshni biroz qaysarroq ekanligini anglatadi.

Nogironlik

- *“Handicap”-“majruh”* evfemizm so'z bo'lib *“darmonsizlik”(infirmité)* va *nogironlikni (invalidité)* ifodalash uchun qo'llaniladi.

- Yoki quyidagi misolda evfemizmning mohirona ishlatilishini kuzatish mumkin : Le pape Jean-Paul II avait évoqué les *“victimes de la vie”* (Papa Jean-Paul II *“hayotning qurbonlarini”* eslar edi)

- Ko'zi ojiz insonlarni ifodalash uchun *“non-voyant” “ko'zi ojiz” evfemik birligi* ishlatiladi.(Shu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, “malvoyant” – “ko'rish qobiliyati zaif” so'zi evfemik birlik bo'la olmaydi, bu so'zi ko'z nuri xiralashgan insonlarga nisbatan ishlatiladi);

- Qulog'i eshitmaydigan insonlarni ifodalash uchun *“malentendant” “qulog'i og'ir” evfemik birligi* ishlatiladi.(Shuni aytish kerakki, bu so'z so'zlashuv tilida qo'llanilib, tibbiyotda eshitish qobiliyatini butunlay yo'qotgan, haqiqiy eshitmaydigan insonni “sourd” – “kar” deb, “malentendant”- “qulog'i og'ir” so'zini esa eshitish qobiliyatining biroz qismi yo'qotgan insonlarga nisbatan qo'llaniladi.

- *“Être diminué” – “imkoniyatdan mahrum bo'lgan”* evfemik birligi *“être handicapé”- “nogiron bo'lmoq”* so'zi o'rnida;

- Ortiqcha vaznli, hatto semirib ketgan odamlarga nisbatan *“enveloppée” – “o'ralgan”, “ronde” – “yumaloq”, “fort”, “costaude” – “kuchli”* evfemik so'zlari;

- Harakatlanish qobiliyati pasaygan odamlarga nisbatan ***“Personne à mobilité réduite”*** – ***“Harakatlanish qobiliyati pasaygan odam”*** birligini evfemizm sifatida qo'llash mumkin, ayniqsa bu evfemik birlik, harakatlanish qobiliyati ayrim omillar sababli kamaygan odamlarga nisbatan qo'llaniladi. (Par ex. voyageur chargé de valises(chamadonlar bilan to'lgan sayohatchiga), utilisation de poussette(nogironlik aravachani ishlatish), ou de béquilles à cause d'un plâtre provisoire...(gips tufayli qo'ltiq tayoqda bo'lgan kishilarga)) ;

- Pakana yoki mitti odamlarga nisbatan ***“Personne de petite taille ”*** – ***“Bo'yi past odam ”*** evfemik birligi ishlatiladi. « Personne de petite taille » pour désigner un nain ou une naine.

O'lim

Tilimiz asrlar mobaynida shakllangandir va bugungi kunda qo'llaniladigan so'zlarning aksariyati qadimiy dunyoqarashlarni aks ettiradi. Insonlar ba'zan bir so'zni tilga olish, uni o'ylash qo'rqinchli bir narsani keltirib chiqarishi mumkin degan xavotirda yashaydilar. Insoniyatning eng asosiy qo'rquvlaridan biri bu-o'limdir. Fransuz tilida o'lim mavzusi evfemizmning eng muhim qismlaridan birini hisoblanadi. O'lim shakllari turlicha bo'lib quyida uni ko'rib chiqamiz :

1. Kasallik sababli (la maladie)

- ***“mourir des suites d'une longue maladie”*** - ***“uzoq muddatli kasallikdan vafot etmoq”*** evfemik birligi saraton kasalligi bilan og'rigan bemorga nisbatan (mourir d'un cancer).

2. Og'ir jarohatli bo'lmoq (être gravement blessé)

- ***“pronostic vital engagé”*** evfemizmi tibbiy tildan olingan va ommaviy axborot vositalarida keng qo'llaniladi;

3. “Vafot etmoq”(mourir) ni anglatuvchi evfemizmlar:

1. rejoindre les étoiles
2. disparaître
3. ne plus être
4. s'éteindre

5. nous quitter
6. s'en aller
7. partir dans un autre monde
8. aller vers d'autres soleils
9. passer de l'autre côté
10. passer l'arme à gauche
11. rejoindre (ses aïeux(bobo,buvi), etc.)
12. être fauché(yaroqsiz holga kelmoq) (dans la fleur de l'âge, poncif
13. être emporté
14. prendre congé de la vie
15. manger des pissenlits par la racine

4. “O‘lim”(la mort) ni ifodalovchi evfemizlar :

1. la voyageuse de nuit
2. la disparition
3. le rappel à Dieu
4. la perte cruelle
5. le repos éternel

5. “Qabr” (le cimetière) bildiruvchi evfemizmlar :

1. le boulevard des allongés
2. a demeure d'éternité

Jinslarga aloqador evfemizmlar

Fransuz tilida evfemizlarni tadqiq qilganimizda, jinsga oid aloqalarni bildiradigan evfemizlarni uchratdik. Bular :

1. promiscuité
2. intimité
3. relations intimes
4. être intime de
5. connaître
6. du plaisir

7. payer en nature
8. nuits partagées
9. coucher avec
10. sans tabous
11. ne pas avoir de tabous
12. comportement inapproprié

Urush

- ***“Pacification”- “Tinchlanish”*** harbiy operatsiyani belgilash uchun (bu yerda metonimiya, chunki urush uning taxmin qilinadigan ta'sirlaridan biri bilan belgilanadi);

- ***“Opération” - “harbiy operatsiya”*** tajovuz, suiqasdni bildiradigan evfemizm;

- ***“Théâtre des opérations” – “Operatsiyalar teatri”*** jang maydonini anglatadigan evfemizm;

- ***“Exécuter un otage” – “garovga olmoq”***

- ***“Croiser le fer” – “chiziqni kesib o'tmoq”*** nizo holatida bo'lmoqni bildiruvchi evfemizm ;

- ***“Dommages collatéraux” “yondosh zararlar”*** fuqarolarning halok bo'lishini yoki o'zaro urush olib bormayotgan qo'shni mamlakatlardagi ziyonlarni ifodalovchi evfemizlar ;

- ***“Événements”- “Voqealar”, “insurrection” – “g'alayon”*** zo'ravon janglarni ifodalovchi evfemizmlar ; (Masalan, “les événements d'Algérie” bu yerda Algeriyadagi Urush nazarda tutilmoqda.)

- ***“Balle perdue” - “Yo'qolgan o'q”*** nishonga xato urilgan o'qni (une erreur de tir) bildirish uchun ;

- ***“Feu ami” (ingliz tilidan “friendly fire”) - “do'stona olov”*** o'z qo'shinini yaralaydigan yoki o'ldiradigan nishonga nisbatan qo'llaniladi;

- ***“Munition”- “O'q-dori”*** urush o'q-dorilarini, to'p, bomba va hk larni ifodalash uchun ;

Jinoyat

- *“Solution final”- “oxirgi yechim”* fashistlar kodeksiga ko'ra yahudiylarning genosidi uchun;

- *“Contrat” – “Shartnoma” homiylik qilingan suiqasd uchun;*

Politsiya

- *“Une régulation phonique”- “Fonik tartibga solish”*, bu militsioner tomonidan amalga oshiriladigan va ayniqsa huquqbuzarning qichqiriqlariga javoban ushlash uchun mo'ljallangan evfemik birlikdir.

Xulosa qiladigan bo'lsak, biror tilning rivojlanishida shu millatning madaniyati, urf-odatlar, diniy qarashlari ta'sir ko'rsatadi. Ayni damda bu sohalarining taraqqiy etishida nutq birligi- tilning ahamiyati katta. Har bir millat o'zida ma'lum bir milliy an'analarni aks etadi. Ya'ni har bir xalqning, millatning o'z milliy an'analari, urf-odatlar mavjud. Shu ma'noda har bir inson ana shu milliylikni o'zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo'ladi.

3.3. Fransuz va o'zbek evfemizmlarining gender xoslanishdagi milliy-madaniy jihatlari

Bu bobda fransuz va o'zbek evfemizmlarining gender xoslanishidagi milliy-madaniy jihatlarni qiyosiy tahlil qilishni maqsad qilganmiz. Shu niyatda evfemizmlarning qo'llanilishini fransuz va o'zbek ayollari nutqida kuzatdik.

Asrlar davomida lingvistika dunyoni qabul qilish va uning muloqotda aks etish xususiyatlarini o'rganib kelmoqda. Bunda olimlarning asosiy diqqat markazida jamiyatning turli rivojlanish davrlari turadi. Muloqot jarayonida inson jamiyat tomonidan “yovuz” yoki “yomon” deb qabul qilingan voqea va hodisalarni yumshatib aks ettirishga intilgan. Bular ishsizlik, ocharchilik, kasalliklar, zo'ravonlik, urushlar kabi insonga azob beruvchi holatlarda o'z ifodasini topgan. Jamiyatning ijtimoiy davrlarida inson muloqot jarayonidagi murakkab vaziyatlarni chetlab o'tishga va bu holatlarni evfemizmlar bilan

yumshatib, almashtirishga urinib kelgan. Bu esa nutqni ishonarli va chiroyli ohangda chiqishiga xalaqit bermagan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ayollar nutqida evfemizmlarning ishlatilishi o’ziga xos ahamiyatga ega. Qadim zamonlardan buyon ayollar va erkaklar nutqida ayni bir tushuncha turli xil soʻz va iboralar bilan ifodalanadi. Bugungi kunda gender lingvistikasi shu sohani maxsus keng miqyosda o’rganib kelmoqda. Genderologiya biologik jinslarni sotsial muhitda o’rganuvchi eng yosh fandir. “Gender” termini ko’p ma’noli bo’lib, fanga 1955 yilda buyuk seksolog Djon Mani tomonidan kiritilgan. Ko’rinadiki, dastlab bu termin tibbiy ma’noga ega bo’lgan. Fransuz tilida uning quyidagi nomlarini uchratish mumkin: “catégorie sociale de sexe”, “études de genre” yoki “théorie du genre”. Inson erkak yoki ayol bo’lib tug’iladi, keyinchalik ularda madaniyat ta’sirida maskulinlik va femininlik xususiyatlari shakllana boradi. G’arb tilshunoslari X.Benjamin fikricha, *Le sexe, c’est ce que l’on voit, le genre, c’est ce que l’on ressent*¹²², K. Delfining nazarida, *Le genre, c’est ce que l’on pourrait appeler le sexe social*¹²³. S. de Bovuar¹²⁴ *On ne naît pas femme, on le devient* g’oyasini tasdiqdaydi. Xulosa shuki, jins - biologik, o’zgarishi mumkin, gender - ijtimoiy qurilma, o’zgaradi. Tahlilga tortilgan materiallar androsentrizmning o’ziga xos o’rniga ega ekanligidan darak beradi. J.Rey-Debov fransuz tili lug’atlarini tahlil qilar ekan, “la langue française est très masculinisée”¹²⁵, deya xulosa qiladi, androsentrizm holatini tanqid qiladi, tilda ayolning o’rnini ko’rsatish lozimligini ta’kidlaydi¹²⁶.

Hozirgi kunda esa genderologiya yo’nalishi ijtimoiy fan sifatida bo’y ko’rsatadi. Djon Mani “genderli rol” (“gender role”) tushunchasini ishlatgan. Mani nafaqat yangi termin yaratdi, balki uni oddiy taqqoslash doirasidan chiqarib yubordi. Uning izohlashicha, “gender” tushunchasi ko’pgina belgilarni

¹²² Benjamin H. Gender is located above, and sex below the belt. [www. Genre \(sciences sociales\).](http://www.Genre(sciences%20sociales).)

¹²³ Delphy. *Penser le genre: quels problèmes?* Paris.: CNRS Editions Delphy, 2003. – P. 94-95.

¹²⁴ Beauvoir Simone, de. *Deuxième Sexe, le. II L’expérience vécue* / Gallimard, Folio, 1949. – P. 13.

¹²⁵ Rey-Debove Josette. *Une femme*, de a à z. www.scom.ulaval.ca/Au.fil.des.eveements/2004/01/22/lexico

¹²⁶ Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида АЁЛ концептининг лингвокогнитив тадқиқи: Филол. Фанлар номзоди... дис.автореф. –Тошкент, 2012.

aniqlab beradi, jumladan, jismoniy xususiyatlardan to ijtimoiy rolgacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Gender tushunchasi zamonaviy tilshunoslik paradigmasiga boshqa gumanitar fanlardan kura ancha keyin kirib kelib, o'tgan asrning 60- yillarida atama sifatida shakllana boshladi. 1980-yillarga kelib, uning ilmiy tadqiqot-larda ishlatilishi keskin oshdi. Sotsiolog, professor E. Zdravomislova "gender" atamasini 1968 yilda amerikalik psixolog va psixoanalitik olim Stoller "Gender and sex" kitobida ilmiy muomalaga kiritganini aytib o'tgan. Bu so'z chet tiliga oid bo'lib, lotin tiliga borib taqaladi. Rus tiliga esa ingliz tilidan kirib kelgan. "Gender" termini bundan oldin ham feminist tadqiqotchilar tomonidan ishlatilgan, ammo Stoller bu so'zni ilmiy asoslab qo'llagan olim hisoblanadi¹²⁷. U gender kontseptini ikkiga, ya'ni biologik (jins) va sotsiologik (gender) turlarga bulishni ma'qul ko'rgan¹²⁸. Biologiya va fiziologiya sohalari jins xususiyatlarini, psixologiya va sotsiologiya fanlari esa gender xususiyatlarini o'rganadi. Stollerning taklifi zamonaviy gumanitar bilimlar orasida gender tilshunosligi deb nomlangan alohida yo'nalishning yuksalishiga olib keldi.

G.A.Brandt gender - madaniyat ta'siri ostida bo'ladigan, ma'naviy jihatdan ayol va erkaklarning nutqiy, xulk-atvoriy tomonlarini baholay oladigan xususiyatlar majmuidir, deb qaraydi¹²⁹.

N.L.Pushkaryova esa ushbu terminni quyidagicha izohlaydi: gender - jamiyatning hukmronlik o'tkazadigan va bo'ysunduradigan xususiyatlardan iborat bo'lgan munosabatlar va o'zaro harakatlar tizimidir¹³⁰.

Gender munosabatlari jamiyat ijtimoiy uyushmasining muhim elementi hisoblanadi. U kishilar orasidagi munosabatlarni aniqlaydi. Dunyo madaniyatlarida shaxsning xulk-atvori qonuniyatlarga ayollar va erkaklarning

¹²⁷ <https://m.colta.ru>.

¹²⁸ Stoller R.Y. Presentations of Gender. New Heaven, 1985. – P.45.

¹²⁹ Брандт Г.А. Природа женщины как проблема: Концепция феминизма. «Общественные науки и современность», 1998, № 2. – С. 167-189.

¹³⁰ Пушкарёва. Н.Л. Что такое гендер? // Гендерная теория и познание: материалы научно-практической конференции. Сыктывкар. 2005. – С. 9. Lakoff G. Language and woman's place. New York: Harper and Row, 1975.

rioya qilishlarini bildiradi.

E.I.Goroshko gender xususiyatlar nutq, xulk- atvor, ayol va erkaklarning jamiyat modellarini qabul qilishda o'z aksini ko'rsatadi, deb ta'rif beradi¹³¹.

O.A.Voronina Goroshkoning fikrini boshqa so'zlar bilan ifodalab, quyidagi ta'rifni qo'shib qo'yadi: gender tadqiqotlarining asosiy uslubiyati ayol va erkaklarning jamiyatdagi genderlik roli va munosabatlari orqali tasdiqlangan hukmronlik va ustunlik tahlili hamdir¹³².

J.Lakoffning ta'kidlashicha, muomala jarayonida ayollar yuqori darajadagi empatiya va o'z suxbatdoshiga nisbatan moslashib ketish kabi xislatlar bilan farqlanadi, o'z suxbatdoshining mulohazalarini diqqat bilan tinglab, muloqot jarayonida ustun bo'lishga harakat qilmaydi. Erkaklar esa suhbat chog'ida yana ham jizzakirok, sharoitni nazorat qilishga intiladilar, o'zaro kelishishga harakat qilishadi, deb biladi. U shuni ham ta'kidlaydiki, ingliz tilida qayd etilgan xususiyatlarga qo'shimcha qilgani holda, ayollar tasdiq so'roq gapga tushuvchi intonatsiya qo'llash o'rniga ko'tariluvchi intonatsiyadan, semantik jihatdan chuqur ma'noga ega bo'lmagan leksika, odatiy ayollar faoliyatini tasvirlaydigan maxsus o'zlashtirma so'zlardan, so'zlayotgan nutqni kuchli his-hayajon ma'nolarni ifodalovchi til vositalari va modal yuklamalardan keng foydalanishadi. Erkaklar esa undov so'zlar qo'llamasliklari, stilistik bo'yoq darajasi kam va xaqorat ma'nosi kelib chiqadigan jargonli leksikani juda ko'p ishlatishlarini ham qo'shib qo'yadi¹³³.

Muloqot uslubidagi farqlar ayollar va erkaklar orasidagi munosabatlarda paydo bo'ladigan muammolarni aniqlashtirmaydi. Ya'ni, munosabatlarda ruhiy muammolar, ya'ni sevgidagi yoki e'tibordagi omadsizlik, chin dillik, xudbinliklar ba'zan aks etadi. Va ular siyosiy va iqtisodiy tengsizliklarning

¹³¹ www.textology.ru.

¹³² Воронина О.А. Социокультурные детерминанты развития гендерной теории в России и на Западе. «Общественные науки», 2000, № 4. – С. 12-14.

¹³³ Lakoff G. Language and woman's place. - New York: Harper and Row, 1975.

natijasidir. Ammo aytib o'tilgan xususiyatlar asossiz ifodalanishi ham tez-tez uchrab turadi.

Demak, ayol va erkak borliqni turlicha qabul qiladi va baholaydi. Nutqiy muomalaning gender o'zgaruvchanligi tilning turli sathlarida, ya'ni fonetik, leksik, grammatik, semantik sathlarda namoyon bo'ladi. Gender munosabatlar faqatgina kodlangan ko'rinishda ishlatilmay, balki nutq, hodisasining mavzular majmui va xususiyatini yuzaga keltiradi. Ko'plab tilshunoslar ayollar va erkaklar nutqi bo'yicha tadqiqotlar olib borib, ular nutqidagi asosiy farq bu ayollarning nutq jarayonida xushmuomalalikka intilishi va suhbatdoshi bilan hamkorlikni kuchaytirish istagida ekanligi haqidagi xulosaga kelishdi. O. Espersen ayollar va erkaklar nutqini amaliyotda kuzatib shunday xulosaga keldi: "Ayollar va erkaklar ayni bir mavzuda turli xil fikrlashib, bu mavzuni ifodalash uchun turli xil til unsurlaridan foydalanishadi"¹³⁴.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollar o'z nutqida evfemik birliklarni qo'llab, erkaklardan farqli o'laroq salbiy holatlarda qo'pol, dag'al, so'kish iboralarini disfemizm shaklida qo'llar ekan. Olim R. Lakoff o'zining "Til va Ayollar o'rni" nomli tadqiqotida ayollarning til axloqiga oid xususiyatlarini o'rganadi. Olim shuni ta'kidlaydiki, ayollar nutqidagi o'ziga xoslik barcha nutq jabhalarini, jumladan, leksik, sintaktik, ohang va boshqalarni qamrab oladi. Muallif yana shuni ta'kidlaydiki, ayollarning muloqot jarayonidagi o'ziga ishonmaslik va o'ta xushmuomalalilik ijtimoiy tengsizlikning asoratidir¹³⁵. S. Debraning fikricha, ayollar faqatgina jamiyatga tegishli bo'lishni xoxlabgina qolmay, balki jamiyat tomonidan o'zlarining tan olinishlari, qo'llab-quvvatlanishlarini istar va shunga harakat qilar ekanlar. Shuning uchun ular tilga shunchaki muloqot vositasi sifatida qaramay, muloqot jarayoni davomida suhbatdoshi bilan iliq munosabatlar o'rnatishga va bu orqali hamkorlikni

¹³⁴ Есперсен О. Язык: его суть, происхождение и развитие. М.: Наука, 1990. –С . 254.

¹³⁵ Лакофф Р. Язык и место женщины. СПб.: Алетея, 2001. 184.

kuchaytirishga intilishar ekan¹³⁶. A.V. Kirillina ayollarni evfemizm bo'yicha haqiqiy mutaxassislar deb ta'riflab, ayollar nutq jarayonida nazokatsiz, odobdan tashqari so'zlarni qo'llamasliklarini ta'kidlaydi¹³⁷.

Bilamizki, ayollar nutqida muloyimlik, mulohazakorlik kabi sifatlar ustovor bo'lib, aynan mazkur jins vakillari suhbatdoshining fikriga qo'shilish yoki qo'shilmaslik hamda shaxsiy munosabatlarini ifodalar ekan, suhbatdoshini xafa qilib qo'ymaslik uchun ehtiyot bo'lib jumla quradi, ya'ni o'z e'tirozlarini, noroziliklarini ifodalash uchun tilning sintaktik qurilishida mavjud bo'lgan neytralroq konstruksiyalardan, qoliplardan foydalanadi. Biz tadqiq jarayonida fransuz tilida yozilgan *"Elle"* va *"Marie Claire"* jurnallariga, shuningdek, o'zbek tilida yozilgan asarlarga murojaat qildik. Fransuz tili sohiblari uchun ayol kognitiv maydonida intellekt, ruhiyat, ijtimoiy mavqe, o'zaro munosabat, samimiyat, joziba kabi tushunchalar asosiy ma'no kasb etgan holda, o'zbek tili va madaniyatida ayol konsepti zahirida or-nomus, iffat, hurmat, hayo, farzandga, elga fidoyilik, iroda, mehnatsevarlik, uyatchanlik, tashqi va ichki go'zallik kabi kognitiv belgilarning fikran yonma-yon kelishini ko'rish mumkin.

Fransuz ayollari nutqini mavzular bo'yicha tadqiq qilish jarayonida fransuz ayollarining o'z suhbatdoshi bilan hamkorlikni kuchaytirishini va muhokama jarayonida xushmuomalalik mezoniga amal qilgan holda evfemizmlardan foydalanishini kuzatish mumkin. Bu mavzular qatoriga ***tashqi qiyofa, ortiqcha vazn, teridagi muammolar, yosh, onalik bilan bog'liq*** bir qancha savollarni kiritish mumkin.

Evfemik guruhlar tahlil qilinganda, eng katta guruh turli xildagi jismoniy nuqsonlarni berkitadigan, niqoblab ko'rsatadigan evfemik guruhlariga to'g'ri kelar ekan. Bu holat fransuz ayollarining o'z tashqi qiyofasiga, qaddi- qomatiga, yaxshi ko'rinishni istashiga oid e'tiborining yuqori darajada ekanligi bilan

¹³⁶ Debras S. Des journaux et des femmes // Communication et langage. 1999. № 122. – P. 58-71.

¹³⁷ Кириллина А. В. Развитие гендерных исследований в лингвистике // Филологические науки. 1998. № 2. –С. 51-58.

izohlanadi. Hamma davrlarda ham ko'pchilik ayollarda ularning tashqi ko'rinishini muhokama qilish dolzarb masala bo'lib kelgan. O'zi haqida gapirayotib ayol o'z ko'rinishini yuqori cho'qqiga ko'targan bo'lsa, aksincha boshqa ayollar haqida gap ketganda ularning kamchiliklarini yashirin shamalar orqali bildirgan. Ortiqcha vazn muammosi fransuz ayollari nutqida juda muhim muammo hisoblanadi. Fransuzlarning ayollar uchun mo'ljallangan jurnallarida ayollarga nisbatan "semiz" so'zini qo'llashda bu so'zning turli so'z qurilmalari yoki iboralar bilan o'zgartirilgan holatda ifodalanganligini ko'rish mumkin.

"Semizlik, semiz bo'lmoq" iborasini tog'ridan- to'g'ri aytish o'rniga ular bu so'zni har xil o'rindosh so'zlar orqali ifodalashadi :

prendre un kilo «vazn orttirish» = engraisser «to'lishmoq»,

avoir quelques centimètres en trop «ortiqcha santimetrta ega bo'lmoq» = être grosse «semiz bo'lmoq»,

les volumes se sont déplacés «hajmning o'zgarishi» = devenir grosse «yo'g'onlashmoq»:

- Depuis je ***prends un kilo*** tous les quinze jours (Elle, 11 juin 2007, p. 208).

(O'shandan beri men har ikki haftada vazn orttiram.)

- ***J'ai quelques centimètres en trop*** dont mon régime ne vient pas à bout (Marie Claire, mai 2007, p. 277).

(Mening parhezim bajara olmaydigan bir necha santimetr bor.)

- ***Les volumes se sont déplacés*** et les contours ne sont plus aussi nets (Marie Claire, mai 2007, p. 278).

(Hajmlar o'zgardi va konturlar shu qadar ravshan bo'lmay qo'ydi.)

Bu semantik guruh faol tarzda fransuz reklamalarida xaridorlarni mahsulot olish uchun jalb etish maqsadida ishlatiladi. To'lachadan kelgan ayollarni ranjitmaslik uchun muloyim evfemik ifodalarning ishlatilishini ko'rish mumkin :

un corps n'est pas adapté aux vêtements «kiyimlar gavgaga mos kelmaydi» = elle est grosse «u baqaloq» yoki

n'importe quelle silhouette «siluetning ahamiyatsizligi» = les grosses femmes «semiz ayollar»:

- *Cessons de faire croire à la plupart des femmes que leur corps n'est pas adapté aux vêtements* (Elle, 12 mars 2007, p. 10).

(Keling, aksariyat ayollarning tanalari kiyimga mos kelmaydi deb o'ylashlarini to'xtatsak.)

- *Ce pantalon large convient à n'importe quelle silhouette et permet aussi bien le style marin que bohème* (Marie Claire, mai 2007, p. 226).

(Ushbu keng oyoqli shimlar har qanday siluetga xoh dengizchi, xoh daydi bo'lsin mos keladi.)

Tahlil davomida teri nuqsonlarini ifodalash uchun qo'llaniladigan evfemik birliklarni ham uchratish mumkin.

Masalan, ayol terisining so'lishini bildirish uchun bu holatni apelsin yoki mandarin po'stlog'iga qiyoslash orqali ifodalanishini kuzatamiz:

une peau d'orange, une peau de mandarine «mandarin yoki apelsin terisi» = *une peau qui a de la cellulite* «sellyulit teri»:

- *J'ai quelques centimètres en trop et une peau d'orange* (Marie Claire, mai 2007, p. 277).

(Men bir necha qo'shimcha santimetr va apelsin terisiga egaman.)

- *A la moindre émotion ma peau ressemble à celle d'une mandarine* (Marie Claire, mai 2007, p. 274).

(Kichkina emotsiyada ham terim mandarin terisiga o'xshayapti.)

Keyingi evfemik guruh kosmetologiya va plastik jarrohlik jarayoniga aloqador bo'lib, bu guruh oldingi sanab o'tilgan guruhlar bilan chambarchas bog'liq. Chunki ayollarning aynan yaxshi ko'rinishga, soch turmagini, qaddi-qomatini yaxshilashga intilishi ularni turli-tuman kosmetik davolash tadbirlariga borishga undaydi. Chiroyli bo'lmagan, yohud keksayotgan qiyofa va qaddi-qomatni tasvirlash uchun evfemik o'rindoshlar qo'llaniladi.

Ayollarni haqorat qilmaslik maqsadida :

avoir besoin d'éclat «nurga muhtoj»,

la peau à bout de souffle «terining oxirgi nafas olishi» =

avoir besoin de l'aide de dermato «teri kasalliklari shifokoriga muhtoj bo'lmoq»,

un sérieux coup de jeune «yoshartirishga muhtoj»,

un sérieux coup de fouet «jiddiy qamchiga (tanbehga) muhtoj» =

rajeunir la peau «terini yoshartirmoq»:

- *Ma peau a besoin d'éclat mais j'opte pour une manière douce et naturelle* (Marie Claire, mai 2007, p. 281).

(Mening terim nurga muhtoj, lekin men yumshoq va tabiiy usulni tanlayman.)

- *J'ai les traits fatigués, ma peau terne, fripée à bout de souffle* (Marie Claire, mai 2007, p. 278).

(Mening ko'rinishim charchagan, terim nursiz, nafas olishim bilan burishib ketadi.)

- *Pas de temps d'aller chez le dermato, pourtant ma peau a besoin d'un sérieux coup de jeune* (Marie Claire, mai 2007, p. 278).

(Dermatologga borishga vaqt yo'q, ammo terim jiddiy yoshartirishga muhtoj.)

- *Ma peau terne à besoin d'un sérieux coup de fouet* (Marie Claire, mai 2007, p. 278).

(Mening xiralashgan terim jiddiy qamchiga muhtoj.)

Alohida evfemik guruhga ortiqcha vazn yo'qotish uchun har xil usullarga tayyor turadigan ayollarni xarakterlovchi evfemik birliklarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ba'zida bu evfemizmlar kinoyali xususiyatga ega bo'lib, bu muammoga salbiy munosabat bildirishni taqozo etadi. So'nggi paytlarda, uzoq muddat mavjud bo'ladigan go'zalikka munosabat o'zgaryapti. Endilikda go'zal qomatga ega bo'lish uchun modellarning turli-tuman parhezlar orqali o'zini

toliqtirishi yoki zaiflantirishi hech qanday zavqlanish uyg'otmaydi. Bu holatlarga bo'lgan salbiy munosabat disfemizm ko'rinishida o'z ifodasini topadi:

les filles ont faim «och qolgan qizlar»,
une fille anorexique «anoreksiyaga uchragan qiz» (ishtahaning yo'qolishi, ishtahadan qolish bilan bog'liq kasallik),
les filles maigres «ozg'in qizlar»,
les maîtresses sado-maso «o'z-o'zini qiynaydiganlar»,
les mannequins «manekenlar» (kiyimlarni namoyish qilish yoki o'lchab ko'rish uchun gavda qolipi):

- *Je ne crois pas que les filles qui ont faim soient sexy, au contraire (Elle, 12 mars 2007, p. 108).*

- *Les maîtresses sado-maso peuplent si souvent les podiums (Elle, 12 mars 2007, p. 13).*

(O'z-o'zini qiynaydiganlar tez-tez minbarda.)

- *Pour une fois, une femme non anorexique ose montrer ses formes (Elle, 31juillet 2007, p. 62).*

(Bu safar, anoreksiya bo'lmagan ayol o'z shaklini ko'rsatishga jur'at etdi.)

Yana bir evfemik guruh onalik bilan bog'liq turli xil savollarni yumshatib ifodalash maqsadida ishlatiladi. Bu guruh o'z ichiga «homiladorlik» va «tug'ruq jarayoni» ni qamrab oladi. Evfemizmning yaratilish va ishlatilish asosini umume'tirof etilgan axloqqa oid qoidalar, jumladan uyatchanlik kategoriyasi tashkil etadi. **“Tug'mas xotin”** ni ifodalash uchun quyidagi iboralar qo'llaniladi: *ça n'a pas l'air de marcher «nimanidir muvofiq kelmasligi»,*

rien ne marche dans le ventre «qorinda hech nima o'zgarmayapti»,

elle ne peut avoir un bébé «u bola ko'ra olmaydi»:

- *Je lui ai dit que le bébé ça n'avait pas l'air de marcher et que j'avais besoin de médicaments pour stimuler mon ovulation (Elle, 11 juin 2007, p. 140).*

(Men unga bola bo'lishi uchun nimadir muvofiq emasligini va ovulyatsiyamni rag'batlantirish uchun dori-darmonlar kerakligini aytdim.)

- *Je lui ai expliqué que je voulais un bébé mais rien ne marchait dans mon ventre (Elle, 11 juin 2007, p. 141).*

(Men unga bola xohlashimni, ammo qornimda hech nima o'zgarmayotganligini tushuntirdim .)

Homiladorlikni ifodalash uchun quyidagi konstruksiyalardan foydalaniladi : *mon ventre a vécu une vraie petite révolution* «**mening qornim haqiqiy inqilobni kechirmoqda**» ,

elle est enceinte «u og'iroyoq»:

- *Les jours qui ont suivi, mon ventre a vécu une vraie petite révolution (Elle, 11 juin 2007, p. 141).*

(So'nggi kunlarda qornim haqiqiy, kichkina inqilobni boshdan kechirdi.)

Agar ayol tug'ruqdan keyin juda to'lishgan va oldingi holatiga qayta olmasa, evfemistik ifodalar quyidagi ko'rinishda ishlatilishi mumkin:

retrouver sa silhouette «oldingi holatni qaytarmoq»,

ne pas pouvoir maigrir «oza olmaslik, ozish imkonsiz bo'lmoq»:

- *Après mon accouchement je n'arrivais pas à retrouver ma silhouette (Marie Claire, mai 2007, p. 313).*

(Tug'ruqdan so'ng, oldingi holatimni(shaklimni) qaytara olmayapman.)

Homiladorlik davrida ayol o'zining tana vazniga e'tibor bermaydi. Ayol uchun eng ahamiyatlisi bu uning bo'lajak bolasining sog'ligi hisoblanadi. Shunga qaramay, ayollarning tashqi ko'rinishini ifodalash uchun yumshatish iboralarini qo'llash o'ziga xos ahamiyatlidir.

Masalan "semirmoq" so'zini o'zgartirish uchun ular ishlatilishi mumkin bo'lgan barcha sinonimlarni qo'llashadi(o'ylab topishadi):

«vazn to'plamoq», (*prendre un kilo = engraisser*):

- Voici le meilleur moment **pour prendre un kilo sans regretter** (Elle, 12 mars 2007, p. 208).

(Bu qayg'urmasdan vazn to'plash uchun eng yaxshi vaqt.)

Keyingi dolzarb muammo bu ayollarning yosh muammosidir. Ular yoshlarini har qanday yo'llar, jumladan kosmetik vositalar, yohud jismoniy mashqlar yordamida berkitishga harakat qilishadi. "Qarimoq" fe'lining o'rniga ular "40 yosh chegarasidan o'tmoq" konstruksiyasidan foydalanishadi. (passer les 40 ans = devenir vieille = être âgée):

- Si vous avez passé les 40 ans et si vos cheveux sont fins... (Elle, 12 mars 2007, p. 191). **(Agar siz 40 yoshdan oshgan bo'lsangiz va sochingiz yaxshi bo'lsa ...)**

Birgina salbiy bo'yoqdorlikka ega "qarilik alomatlari" degan tushunchani ayollar nutqida uning yumshatilgan shakli, "yoshga oid ilk alomatlar" ko'rinishida ifodalanishini kuzatish mumkin.

Masalan, nafaqa yoshida bo'lgan, lekin yaxshi ko'rinishga ega bo'lgan ayollarga ta'rif berish uchun quyidagi evfemik iboralar ishlatiladi:

troisième âge «uchinchi davr» = vieille «qari»:

- Miami, comme toutes les villes ensoleillées de bord de mer, mène ma vie dure aux coquettes du **troisième âge** (Marie Claire, mai 2007, p. 18).

(Mayami, barcha quyoshli qirg'oq shaharlari singari, og'ir hayotimni uchinchi davrda bo'lgan tannoz ayollarga olib boradi.)

O'z yoshini aniq aytmaslik uchun ayollar quyidagi evfemizmlardan foydalanishadi:

les premiers signes de l'âge «yoshning ilk belgilari»,

les premiers signes de la vieillesse «qarilikning ilk alomatlari»,

passer la quarantaine «umrning qirqinchi bahori» ,

devenir vieille «qari bo'lmoq»:

- Jour après jour, votre peau est plus ferme, elle est efficacement protégée contre **les premiers signes de l'âge** (Elle, 12 mars 2007, p. 81).

(Kun sayin teringiz taranglashib boradi, u qarishning dastlabki belgilaridan samarali himoya qilinadi.)

- J'ai passé la quarantaine et je vois bien que les contours de mon visage ne sont plus aussi nets (Elle, 12 mars 2007, p. 277).

(Men qirqdan oshganman va yuzimning konturlari endi unchalik ravshan emasligini ko'ryapman.)

O'zbek ayollaridagi eng buyuk fazilatlar bo'lmish uyat, hayo, ibo, or-nomus birinchi o'rinda turib, yuksak qadrlanadi. Bu me'zonlar A.Navoiy asarlarida, Z.M.Bobur she'rlarida, A.Qodiriy, A.Qahhor, S. Ahmad, Cho'lpon asarlarida o'z aksini topgan. O'zbek ayollari nutqini tahlil qilish jarayonida shu narsa aniq bo'ldiki, yuqorida sanab o'tilgan, aynan o'zbek ayollariga xos qadriyatlar nutq jarayonida ham o'zining go'zal namunasi topgan. Sharqda oila va farzand ko'rish, bola tarbiyasi eng avvalo ayol bilan bog'liq deb tushuniladi. Mazkur jarayon, ya'ni **bola ko'rish** yoki ayollardagi Yaratganning tuhfasini bo'lmish **“homiladorlik” jarayoni** “uyatchanlik” libosi bilan o'ralib, evfemik iboralar bilan go'zal ifodalanishini quyidagi misollarda ko'rish mumkin:

Bosh qorong'u bo'lmoq. Odamlarday gultaga, tuzga, kesakka boshqorong'i bo'lsamchi! (A.Qahhor., 1-t., 285-b)

Bo'yida bo'lmoq. Hozir yana uning bo'yida bo'lgan, uch oydan keyin farzand tugilishi kerak (P. Qodirov., “Avlodlar dovoni”, 177-b.).

Vujud. O'n kundan so'ng 25 yoshda tul qolgan kelinchak ko'ksi ostida qimirlagan vujudni his etdi («Saodat», 1989, №10,31-b.).

Gumon. Bunday yovuzlikdan to'ldi paymona,

Biroq vujudimda baxtsiz gumona (SH.Solieva).

Uchinchi kishi. Oramizda yana uchinchi bir kishi bor (“Saodat”, 1992, №6, 12-b.).

Yuzida dog'i bor. Yuzingda dor ko'rdim... muborak bo'lsin (“Oila va jamiyat”, 1989, 6 yanvar.)

Qornida bir nimani sezmoq. Salima birdan ketdi, qornida bir nimaning ancha sezilarli ravishda urganini sezdi (*G'afur G'ulom.*, 4-t., 18-b.).

Yoki mazkur jarayonning uzviy davomi sifatida **“tug'moq”** so'zi ham bir qancha evfemik birliklar orqali ifodalanadi:

Bola ko'rmoq. Niso buvi to'rt bola ko'rdi (*A.Qahhor.*, 1-t., 208-b.).

Bolali bo'lmoq. Qizim olti yil deganda bolali bo'ldi (*“Saodat”*, 1992, №3, 21-b.).

Bo'shalmoq. Bu kasallik qari bemorlarda, yaqinda bo'shalgan ayollarda kuzatiladi (*I.M.Gryaznova*, *“Yengiltaklik oqibati”*, 65-b.).

Bo'shalib olmoq. Kelinim eson-omon bo'shalib olgandan so'ng ... (*“Ayol va zamon”*, 1999, 21 may).

Yengil bo'lmoq. Agar kelingiz eson-omon yengil bo'lsa borku... Keling, yaxshisi, aytib o'tirmang (*Ne'mat Aminov*, *“Yelvizak”*, 33-b.).

Ko'zi yorimoq. O'sha yerda aytdim-ku, yo bugun, yo ertaga kennoyimning ko'zlari yoriydi deb (*Ne'mat Aminov*, *“Yelvizak”*, 33-b.).

Ko'paymoq. Qutlug' bo'lsin kelin, eson-omon ko'payib oldingizmi? (*“Saodat”*, 1992 №3, 10-b.).

Farzandli bo'lishni orzu qilmoq. Bitta qizim bor, yana farzandlarim bo'lishini orzu qilaman (*“Oila va jamiyat”*, 1992, 2 yanv.).

O'zbekona milliy tarbiyada er va xotin munosabati o'z o'rnini bilan qadrlanadi. Ayniqsa ayollarni sabr-qanoatli bo'lishi, boriga shukr qilib yashashi, erga itoat qilishi, ayol kishini saramjon-sarishta bo'lishi, erining moli va ashyosiga e'tiborli bo'lishi, erning qarindosh-urug' va yaqinlariga hurmat bajo keltirishi, ovqatni o'z vaqtida tayyorlashi, pazanda hamda chevar bo'lishi, erining ko'ziga xush ko'rinishlik, iboli bo'lish kabi sifatlar oilada bola tarbiyasiga, ayniqsa, o'smir yoshidagi farzandlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra yaxshi xotin oilaning taxti va davlati sifatida alohida qadrlanadi. Uyning ozodaligi, har bir narsaning o'z joyida bo'lishi ham joy qadriyat tushunchasini anglab, ro'zg'orda tartib-intizom, tejamkorlik, xonadon egalariga

alohida huzur bag'ishlaydi, charchoqni oladi, ishda unum va barakot bo'ladi. Ayniqsa, o'zbek ayolining o'z turmush o'rtog'iga murojaatida uning ismini qo'llamasligi, o'zbekona milliy tarbiyaning yaqqol namunasidir. Bu jarayonda ham ayollar evfemik birliklardan mohirona foydalanishi ko'zga tashlanadi:

Adasi. - *Uzr, uyda adasi yo'q edilar, -deb trubkani qo'ydi (Ne'mat Aminov, "Yelvizak", 216-b.).*

Bag'rim. *Qancha sevar eding, bag'rim, bu bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni (Zulfiya "Bahor keldi, seni so'roqlab", 204-b.)*

Begim. *Uzr begim, - Rayhon uyalib, qizarib erining ko'ksiga yuzini bekitdi (E.Turon, "Bu tog'lar ulug' tog'lar", 213-b.).*

Boyim. *Ichay desam choyim yo'q, Haq do'st, yo Ollo!
O'ynay desam, boyim yo'q, Haq do'st, yo Ollo! (Folklyor)*

Bolalarimning otasi (dadasi, adasi) ...bolalarimning otasi butunlay boshqa soha kishisi ("Saodat", 1989, №10, 20-b).

Dadasi. ...Meni tabriklang, dadasi! - dedi entikib (Sa'dulla .Siyoyev., "Hurmatli o'rtoq rafiqam", 210 -b .).

Yor. *Shunda go'zal Mumtoz Mahal,
Tinglab shohning zorini,
O'qib har gal bitta g'azal,
Ovutardi yorini (E.Vohidov., "Sadoqatnoma", 314-b.).*

Yostiqdosh - Endi nima buladi? Eng ishongan kishing, bir umr niyat qilib bir yostuqqa bosh qo'ygan yostuqdoshing sendan shubhalansa... ("Oila na jamiyat", 1998, 19 mart).

Jonim. *Alvido, qadrdon, jonim, alvido! (Zulfiya, "Bahor keldi seni so'roqlab", 204-b.).*

Juft. -*Nahotki, shu odam menga hayotda juftim bo'lsa... ("Ayol va zamon", 1999, 22 noyabr).*

Jufti halol. *Nustratullo Netayxonning jufti haloli (A.Qahhor, 4-t, 161-b.).*

Kishi. - *Qo'ylaringiz ham ko'pdir-a?! Biron yuzta bordir?*

- *Bilmadim, kishim biladi. -Chaqiring-da kishingizii! (Sa'dulla .Siyoyev., "Tuya lo'k-lo'k etadi", 169-b.).*

Ko'z ochib ko'rganim. *Ko'z ochib ko'rganim, to o'lguncha shu bilan birga bo'laman (Ne'mat Aminov, "Yelvizak", 59-b.).*

Otasi. -*Qaydam, otasi, juda qo'rqib ketayapman (Mirmuhsim., "Umid" 211 -b.).*

Sohib. *Sizdek sohibni mening taqdirimga bitgan xudoyimga shukur. (P. Qodirov., "Avlodlar dovoni", 143-b.).*

Turmush o'rtoq. *Taqdir taqozosiga ko'ra, turmush o'rtog'im bilan ajrashib ketgan edik... ("Oila va jamiyat", 1992, 2 yanvar).*

To'ram. *Ixtiyori, to'ram, mening qo'limda ("Misqol pari", 23-b.).*

Umrdoosh. *Yana bilmadim, umrdoshimizdan so'rang... (M., "Umid", 164-b.).*

Umr yo'ldosh. *Shunda onaxonimiz ham umr yo'ldoshlariga muloyimgina mayin tovushda so'zladilar ("Fan va turmush" jurnali, 1997, №3, 18-b.).*

Xo'jayin. -*Xo'jayinim vafot etgandan so'ng, farzandlar tarbiyasi, ro'zg'or tashvishi zimmamga tushdi ("Oila va jamiyat", 1998, 19 yanvar).*

Erkak. *Erkagimiz uyda bo'lmagan paytlarda... ("Saodat", 1997, №4, 31-b.).*

Yuragim. *Qayga ketding, yuragim,*

Bitdi bardosh va toqat (Zulfiya., "Kuylarim sizga", 201-b.).

Qimmatligim. *Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,*

Seni izlab yurdi, kezdi sarsari (Zulfiya., "Bahor keldi seni so'roqlab", 204-b.).

Oilaviy munosabatlarni A. Fitrat, «Bani Odam madaniyatining asosi»,¹³⁸ «manzil tadbiri (ro'zg'or tebratish tadbiri)»¹³⁹ ni esa oila, ahil, tinchlikda

¹³⁸ Фитрат А. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. -Т.: Маънавият, 2000. – Б. 7 .

¹³⁹ Фитрат А. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. -Т.: Маънавият, 2000. – Б.8.

yashash sharti deb atagan. Axloqiy - ma'naviy tarbiya "odamning fe'l va harakatida yaxshi fazilatlarni shakllantirmoq demakdir."¹⁴⁰ O'zbek ayollari oilasi va farzandlari uchun yashaydi. Ular jamiyatdagi islohotlarning ma'nisini oilasi va farzandlari tarbiyasi bilan o'lchaydi. Axloq, odob ular uchun asosiy komillik, madaniyat o'lchovidir. Anbar Otin yozadi:

Ulg'ayursan, senda bor bo'lsa adab,
Ulg'ayursan, senga yor o'lsa adab,
Odam ersang, tashqi surata berma zeb,
Ona yurtningni hamisha ayla zeb.¹⁴¹

Demak, ayol komillikni faqat o'z oilasi va farzandlari bilan cheklab qo'ymaydi, u ona yurti taraqqiyotini ham o'ylaydi. Oila mavzusi haqida so'z yuritar ekanmiz, o'zbek xalqi oilalarida oila qurish bilan bog'liq go'zal an'analar borligini ta'kidlashimiz darkor. Bular **"sovchilik"**, **"unashtirmoq"** kabi o'zbek xalqiga xos an'analar bo'lib, bu kabi urf – odatlarni o'zi o'rnida bajarish aynan ayollarimizning zimmasiga tushar ekan. So'fi Oллоhyor hazratlari aytib o'tganlaridek, qattiq so'z bo'lar ishni bo'lmas qiladi. Mazkur hikmatga amal qilgan holda, o'zbek ayollari **sovchilikka** borganlarida nihoyatda nozik va latif jummalarni qo'llab, qiz tomonning ko'ngil qulfiga kalit solib, ijobiy javob olishga harakat qiladilar. Shuning uchun ham bu vazifani ado etish uchun dono, gap-so'zi mantiqli kishi tanlanadi. Quyida ayollarimiz tomonidan sovchilikka borganda qo'llaniladigan iboralar ketma ketligini keltirib o'tamiz. Avvalo ko'z ostilariga olib qo'yilgan, **"balog'atga yetgan qiz"** haqida so'z borganda quyidagilar ishlatiladi:

Bo'yi yetib qolmoq. Endi Zaynabning ham bo'yi yetib qoldi (H.Olimjon., "Zaynab va Omon", 16-b)

Balog'atga yetmoq. Qizimiz balog'atga yetib qolgan. Uning ertasini o'ylayman("Saodat", 1990, №4, 25-b)

¹⁴⁰ Фитрат А. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. -Т.: Маънавият, 2000. – Б.84.

¹⁴¹ Анбар Отин. Юртингни хамиша айла зеб. // Оила, 2004, 1-сон. – Б.90.

Ostona xatlab o'zga xonadonga kirilganda esa salom alikdan so'ng **“ostonangizni supurgani keldik”, “qulchilikka keldik”** singari evfemizmlar ishlatiladi. Sovchilik masalasida ma'lum bir holatlarni ifodalovchi so'z quloqqa qo'polroq eshutilgani uchun aksar hollarda ramzlardan foydalanib fikr ifoda qilinadi. Masalan, sovchilar quda bo'lmish tomonga, **qizingizni so'rab keldik**, o'rniga aksar hollarda **“Sizda bir gul bor ekan, bizda bir bulbul”** deya shoirona tarzda so'z boshlaydilar. Bordiyu yoshlar bir-biriga ko'ngil qo'ygan bo'lsalar, sovchi ayollar bu holatni yumshoqlik bilan mezbonlarga tushuntirish maqsadida **“sevishmoq”** fe'lini emas balki uning evfemik ekvivalenti bo'lmish **“ahdu paymon qilmoq”** so'zini, va yoki **“o'g'limiz qizingizni deb halovatidan ayrilgan”, “ko'ngil bergan”** kabi evfemik so'z- iboralar qo'llaniladi.

Xalqimiz fitratida latif so'zlamozlikka intilish bor. Latif so'zlar barcha davralarda qadrlanadi. Oila masalasi bilan bog'liq **“unashtirmoq”** so'zini ham go'zal tarzda evfemik birliklar bilan qo'llanishini ko'rish mumkin:

Aytilmoq. *Meni hech nimadan xabarim yo'q, yoshligimda qo'shnimizning Mahmud ismli o'g'ligi aytilgan ekanman.*(“Saodat”, 1996, №:2, 13-b)

Atalmoq. *Men boshqa yigitga atalganman.*(“Ayol va zamon” 1998, 4-may)

Beshikkerti qilinmoq. *Ular tug'ilishlari bilanoq beshikkerti qilingan edilar*(“Yosh kuch”, 1997, №:5, 41-b)

Patir ushatmoq. *Tunov kun kenjamizgayam patir ushatib qo'ydik, ko'klamda to'yi*(“Ayol va zamon”, 1999, 28-noyabr)

Bundan tashqari, o'zbek xonadonlarida qiz farzandni **“uzatmoq”**, **“erga bermoq”** so'zlarining bir qancha evfemik o'rindoshlari bor:

Nasibasi qo'shilmoq. *Mening nasibam boshqa bir yigitning nasibasiga qo'shildi, dedi Muattar* (A.Qahhor., 3-t., 351-b.).

Oila qilmoq. *Oila qilgan qizlar boshda do'ppi, atlas ko'ylak... bilan ajralib turadi* (“Chimildiq”, 1999, 10 fevral).

Oila qurmoq. *Singlim, oila qurganlaringizga qancha bo'ldi?* (“Chimildiq”, 1999, 10 fevral).

Turmush qilmoq. Muhayyoning turmush qilganini eshitib, yeru ko'k ko'zimga qorong'u bo'lib ketdi ("Saodat", 1989, №9, 21-b.).

Turmush qurmoq. Qiz bola turmush qurgandan keyin birovning xasmi bo'ladi ("Surxon tongi", 2001, 3 fevral).

Turmushga bermoq. "Meni ota-onam turmushga berayotir ..."
(A.Jumaqul, "Yurakka sig'magan gaplar", 34-b.).

Turmushga uzamoq. Qizimizni turmushga uzatdik ("Saodat", 1992, №3, 29-b.).

Turmushga chiqarmoq. Domla kichik qizlarini turmushga chiqarmoqchi bo'ladilar (Ne'mat Aminov, "Yelvizak", 87-b.).

To'y bo'lmoq. O'g'lim, Saida ham to'y bo'lib ketdi ("Ayol va zamon", 1990, 18-noyabr).

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, shu aniq bo'ldiki, farang ayollarini tashqi qiyofa, qaddi-qomat, pardoz, xullas, go'zallikka oid mavzular qiziqtirar va bu mavzularda gapirayotib, fransuz ayollari o'ta ehtiyotkorlik, shu bilan birga mahorat bilan evfemizmlardan foydalanishar ekan. O'zbek ayollari nutqining tahlil jarayoni shuni ko'rsatadiki, o'zbek madaniyatida **ayol** uchun zarur hisoblangan ruhiy sifatlar, iffat, ibo, hayo, uyat kabilar nutq jaroyonida ham ustuvor bo'lib, yuqoridagi misollarda o'z aksini topgan.

III bob bo'yicha xulosa

Ushbu bobda zamonaviy fransuz va o'zbek tilshunosligida evfemizmlarining milliy-madaniy jihatlarini ko'rib chiqdik. Ma'lumki, lingvokulturologiya fanining obyektini xalq madaniyatining tilda yorqin ifodasini o'zida namoyon etuvchi noekvivalent leksika va lakunlar, tilning stilistik jamlanmasi, til birliklarning miflashgan ko'rinishlari: arxitip va miflar (asotir va rivoyatlar), tilda o'z aksini topgan rasm-rusum va odatlar, tilning paremiologik fondi, til etalonlari, imo-ishora va ramzlar, tildagi o'xshatish va metaforalar hamda o'zbek nutq odatlari va nutqiy etiket shakllari tashkil etadi. Shuningdek, lingvokulturologiyaning asosiy tushunchaviy apparatiga mentalitet, mentallik, taomil, rasm-rusumlar, madaniyat doirasi, madaniyat turi, tamaddun, majusiylik va boshqalar kiradi. Mazkur bobda milliy til hodisasi hisoblangan lingvokulturemalar sifatida evfemizmlar, xususan, o'zbek va fransuz tilidagi evfemizmlarning tahlili, ularning o'ziga xos xususiyatlari, evfemizmlarning gender xususiyatlari, fransuz va o'zbek evfemizmlarining gender xoslanishdagi milliy-madaniy jihatlar haqida fikr yuritildi.

Shunday qilib, tilning lisoniy imkoniyatlari nutqiy voqelanishning o'ziga xos ko'rinishi bo'lgan evfemizmlarda til va ma'naviyat, til va ruh mushtarakligi yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun milliy ma'naviyat muammosi global ahamiyat kasb etgan bugungi kunda milliy mentalitetni yaqqol namoyon qiladigan evfemik vositalarni ilmiy tadqiq qilish, ulardan foydalanishda shaxsning roli va o'rnini ochib berish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

UMUMIY XULOSALAR

O'zbek va fransuz tilshunosligida evfemizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tabu va evfemizmlar til lug'at tarkibining, jumladan o'zbek va fransuz tili leksikasining ham alohida qatlami hisoblanadi. U xalqning ijtimoiy hayoti, milliy urf-odatlari, mentaliteti bilan bog'liq holda mavjud bo'ladi. Mazkur ikki tushuncha madaniyat va til manbalaridan tarkib topgan etnolingvistik atamalardir.

2. O'rganish va tahlillardan ko'rinadiki, evfemizmlar diniy e'tiqoddan paydo bo'lishi bilan birga jamiyatdagi odob axloq qoidalari asosida shakllangan.

3. Tabu va evfemizmlar tilning lug'at boyligini oshiruvchi unsurlardan biridir. Ular so'zlarni manosini o'zgartirishda, kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Evfemizmlar asosan insoniyat munosabati, madaniyati shu va boshqa jamiyat hodisalarida qo'llaniladi. Evfemizmlar uzoq tarixga borib taqaladi. Evfemizm tushunchasi tabu tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir.

4. Suhbatdoshda suhbat chog'ida noqulay sharoit tug'dirmaslik, suhbatda nizolardan qochishga harakat qilish, ishni niqoblamoq, berkitish kerak bo'lgan so'zni ta'riflashda umumlashtirish, ma'lumotni yashirmoq, shifrlamoq evfemizmlarning keng qo'llanilishi kabi bir necha omillar bilan bog'liq bo'ladi.

5. Evfemizm jarayonining o'ziga xosligi gapirilayotgan narsa qo'pol, noqulay so'z deb baholanishi, so'zlovchi vaziyatni yumshoqroq ibora tanlab niqoblab gapirganida ko'rinadi. Ko'pchilik evfemizmlar uyalish hissidan vujudga keladi, va ular xulq-atvor qonun va normalar sistemasini vujudga keltiradi. Va albatta aytish joizki, evfemizmning qo'llanishi nutq usuliga bog'liq bo'ladi.

6. Evfemizm tasniflashida ular mayda qismlari bilan farq qilsa ham, ularning hammasi evfemizmning umumiy sababini ochadi - muomala mobaynida vujudga keladigan mojarolardan qochishga intiladi.

7. Evfemizmlar ham davrlarga qarab o'zgaradi. Ya'ni qaysidir davrda evfemizm bo'lgan so'z va ibora boshqa davr uchun tabu so'z hisoblanadi.

8. Ishchilar sinfi mavqeini ko'tarish, ularning o'ziga nisbatan ishonchini kuchaytirish, yoki ijtimoiy hayotda demokratik muhitni ta'minlash, "quyi kasb" egalarini kamsitmaslik maqsadida evfemizmning mohirona qo'llanilishini tadqiqot ishimizning fransuz tilshunosligida evfemizmning paydo bo'lish guruhlari bo'limida kuzatilganida nafaqat kasbga bo'lgan layoqatni o'stirish, balki ijtimoiy tizimning demokratiyalashuvini keltirib chiqarish uchun muhim o'rin tutadi. O'ziga xos uslub, ya'ni "quyi kasblar" nomlarini evfemizm orqali qo'llash juda samarali bo'lib, "haqoratli", "obro'ni to'kadigan" deb hisoblangan so'zlar o'rniga yangi, "hurmatni oshiradigan", "jozibali" so'zlarni qo'llash natijasida mazkur kasb egalarining o'z kasbiga bo'lgan ishtiyoq, qiziqishi ortadi. Bunda semantik ko'chish sodir bo'lib, bu esa kasb nomlarining evfemizm orqali paydo bo'lgan o'ziga xos yangi, ulug'vor ko'rinishini keltirib chiqaradi.

9. Lingvokulturologiya – "til va madaniyat"ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar - til-madaniyatni birgalikda o'rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo'lib, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan ko'proq shug'ullanishi kuzatildi.

10. Tilning lisoniy imkoniyatlari nutqiy voqelanishning o'ziga xos ko'rinishi bo'lgan evfemizmlarda til va ma'naviyat, til va ruh mushtarakligi yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun milliy ma'naviyat muammosi global ahamiyat kasb etgan bugungi kunda milliy mentalitetni yaqqol namoyon qiladigan evfemik vositalarni ilmiy tadqiq qilish, ulardan foydalanishda shaxsning roli va o'rnini ochib berish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

11. Evfemizm inson nutqida eng muhim birlik hisoblanadi. Evfemik hodisalar o'zida til va madaniyat mushtarakligini aks etadi. Odamning nutq faoliyati axloqiy normalarga rioya qiladi. Shubhasiz, muloqot madaniyati darajasini, nutqiy madaniyat saviyasini ko'rsatuvchi muhim vositalardan biri evfemistik ifodalardir. Evfemizmlarni lingvokulturologik fenomen sifatida tahlil qilganimizda, ayniqsa, fransuz va o'zbek tilshunosligida evfemizlarning o'rni, ularning mohiyatini ko'rib chiqqanimizda, bu ikki tilda evfemizmlar madaniyat jihatdan tubdan farq qilishini guvohi bo'ldik. Bu ayniqsa, milliy mentalitet, madaniy o'ziga xoslik bilan chambarchas bog'liqdir.

12. Misollar orqali ayollar nutqida evfemik ifodalarning jozibador, yumshatilgan holga tus berilishini, ayniqsa ayol zoti nutqni yumshatishga va o'zining hamkorlikdagi faoliyatida evfemistik birliklarni ishlatishga harakat qilishi fransuz va o'zbek misollari yordamida tahlil qilindi.

13. Yuqoridagi ma'lumotlardan shuni ko'rsatdiki, farang ayollarini tashqi qiyofa, qaddi-qomat, pardoz, xullas, go'zallikka oid mavzular qiziqtirar va bu mavzularda gapirayotib, fransuz ayollari o'ta ehtiyotkorlik, shu bilan birga mahorat bilan evfemizmlardan foydalanishlarini aytish mumkin.

14. Fransuz tili sohiblari uchun ayol kognitiv maydonida intellekt, ruhiyat, ijtimoiy mavqe, o'zaro munosabat, samimiyat, joziba kabi tushunchalar asosiy ma'no kasb etgan holda, o'zbek tili va madaniyatida ayol konsepti zahirida or-nomus, iffat, hurmat, hayo, farzandga, elga fidoyilik, iroda, mehnatsevarlik, uyatchanlik, tashqi va ichki go'zallik kabi kognitiv belgilarning fikran yonma-yon kelishini ko'rish mumkin.

15. Fransuz tili sohiblari uchun ayol kognitiv maydonida intellekt, ruhiyat, ijtimoiy mavqe, o'zaro munosabat, samimiyat, joziba kabi tushunchalar asosiy ma'no kasb etgan holda, o'zbek tili va madaniyatida ayol konsepti zahirida or-nomus, iffat, hurmat, hayo, farzandga, elga fidoyilik, iroda, mehnatsevarlik, uyatchanlik, tashqi va ichki go'zallik kabi kognitiv belgilarning fikran yonma-yon kelishini ko'rish mumkin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent – “O'zbekiston” – 2017. 50 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.-T.: “Adolat”, 2017. -25-b.
3. Ш.Мирзиёев. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016. 156 б
4. Ш.Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. 145 б
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miziyoeyvning “Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzusida O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi/ Xalq so'zi. – Toshkent, 2017, 4 avgust.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar.

6. Агаян Э.А. Введение в языкознание. – Ереван: Ун-т, 1960. – 271 с.
7. Античная теория языкознания и стиля / Под ред. О.М. Фрейденберга. – СПб.: Питер, 1996. – 447 с.
8. Артюшкина Л.В. Семантический аспект эвфемистической лексики в современном английском языке: дисс...канд. филол. наук. – М., 2002. – 157 с.
9. Атаев С. Эвфемизмы в туркменском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ашхабад, 1955. – 21 с.
10. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Сов. энциклопедия, 1969. – 607 с.

11. Abdurahmonov G'. Hozirgi zamon o'zbek tilining adabiy usullari haqida//O'zbek tili va adabiyoti.1992. - N 5-6, -28-36-b
12. Баскаков Н.А. Пережитки табу и тотемизма в языках народов Алтая // Советская тюркология. – Баку, 1975, – № 2. – С. 3-9.
13. Бердова Н.М. Эвфемизмы в свете теории вторичной номинации. Дисс... канд. филол. наук. – М., 1998. – 148 с.
14. Бобониёзов А. А.Қодирийнинг «Ўткан кунлар» романида тасвирий воситалар ва тил бадиияти: Филол. фанлари номзоди... дисс. – Т., 1995. – 122 б.
15. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Т., 1997. – 51б.
16. Бойко Т.В. Эвфемия и дисфемия в газетном тексте: Автореф. дисс...канд. филол. наук. – М., 2005. – 26 с.
17. Будагов Р.А. Введение в науку о языке. – М.: Индрик, 2003. – 442 с.
18. Булаховский Л.А. Введение в языкознание. Часть II. – М.: Учпедгиз, 1953. – 178 с.
19. Бушуева Т.С.Прагматический аспект эвфемизмов и дисфемизмов в современном английском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Смоленск, 2005. – 25 с.
20. Вандриес Ж. Язык. – М.: Учпедгиз, 1937. – 197 с.
21. Ванштейн С.П. Личные имена-термины родства и прозвища у тувинцев // «Ономастика». – М.: Наука, 1969. – С. 128-131.
22. Васильева А.Н. Художественная речь. – М.: Рус яз., 1983. – 256 с.
23. Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – М.:Высш.школа, 1991. – 447 с.
24. Вопросы современной русской литературы. – М.: Моск. ун-т, 1972. – 119 с.

25. Гореликова М.И., Магомедова Д.И. Лингвистический анализ художественного текста. — М.: Русский язык, 1989. —124 с.
26. Горшков А.И. Язык предпушкинской прозы. — М.: Наука, 1982. — 244 с.
27. Дарбакова В.П. Оронимия, МНР, «Ономастика» — М.: Наука, 1969. — С. 199-200.
28. Джалолова Л.О. Абдулла Қодирийнинг «Ўткан кунлар» романига лингвистик таҳқиқи: Филол. фанлари номзоди... дисс. Автореф. — Т., 2007. — 22 б.
29. Дониёров Ҳ., Мирзаев С. Сўз санъати. — Т.: Ўздавнашр, 1962. — 216 б.
30. Ефимов А.И. О языке художественных произведений. — М.: Учпедгиз, 1954. — 288 с.
31. Жўраева М.М. Француз ва ўзбек тилларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фанлари доктори... дисс. — Т., 2017. — Б.15
32. Исматуллаев Н. Ўзбек тилидаги эвфемизмлар ва уларнинг классификациясига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1964, — № 1. — Б. 57.
33. Исматуллаев Н. Ҳозирги ўзбек тилида эвфемизмлар // ТошДПИ илмий асарлари, 1963. 1-китоб. Т. 42. — Б. 8, 19-28, 3-59.
34. Исматуллаев Н. Эвфемизмларнинг луғат составини ва сўз маъноларини бойитишдаги аҳамияти // ТошДПИ илмий асарлари, 1964. 2-китоб. — Б. 3-12.
35. Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дис... канд. филол. наук. — Т., 1963. — 19 с.
36. Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. Омск: Изд-во Омск. гос. ун-та, 1999. — 284 с.
37. Колесникова С.М. Категория градуальности в современном русском языке: дисс. ...д-ра.филол.наук. — М., 1999. — 58 с.

38. Крысин Л.П. Эвфемизмы с современной русской речи. Русский язык конца столетия. – М.: ЭКСМО, 1996. – 432 с.
39. Кужим Г.Г. Универсальный лингвистический закон триады: Дисс... канд. филол. наук. – Армавир, 2003. – 137 с.
40. Ларин Б.А. Об эвфемизмах // Учёные записки ЛГУ, 1961. – С.
41. Лингвистический энциклопедический словарь / Под.ред. В.М.Ярцевой. – М.: Сов.энцикл., 1990. – 682 с.
42. Лоуренс Д. Порнография и непристойности. – М.: Азбуковник, 2003. – 392 с.
43. Мирзаев И. Абдулла Қодирий: [адабий портрети]. – Т.: Фан, 1975. – 68 б.
44. Москвин В.П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка. –М., 2007. – 264 с. // <http://urss.ru/cgi-bin/db>.
45. Насриддинов Ф. Адибнинг йўли. – Т.: Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъати нашриёти, 1971. – 119 б.
46. Омонтурдиев А. Ўзбек нутқининг эвфемик асослари. – Термиз: НС, 2000. – 128 б.
47. Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси (Чорвадорлар нутқи мисолида): Филол.фанлари.д-ри. ...дис. – Т., 2009. – 252 б.
48. Омонтурдиев А.Ж. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. – Т.: Фан, 2006. – 134 б.
49. Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси. – Т.: Фан, 2006. – 138 б.
50. Омонтурдиев А.Ж. Эвфемик воситаларнинг функционал хусусиятлари: Филол. фанлари. номзоди... дисс. – Т., 1997. – 176 б.
51. Омонтурдиев А.Ж. Эвфемик омонимияга доир // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. 1-қисм. – Т.: Университет. 2002. – Б. 70-73.

52. Омонтурдиев А.Ж. Бир сўз луғати. – Термиз: Жайхун, 1996. – 45 б.
53. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Т., 1996. – 19 б.
54. Паршина О.Н. Стратегия и тактика речевого поведения современной политической элиты России. Астрахань: БИ, 2004. – 196 с.
55. Потапова Н.М. Краткий обзор некоторых исследований эвфемизмов. Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв.ред. В.В.Красных, А.И.Изотов. – М.: МАКС Пресс, 2007. – Вып. 34. – с. 108-110.
56. Потапова Н.М. Эвфемизмы в языке и речи (на материале англоязычного делового дискурса): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – М., 2008. – 18 с.
57. Потапова О.В. Языковые этнические стереотипы и их представление в белорусской, русской и польской лексикографии XIX века: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Минск, 2005. – 24 с.
58. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – 406 б.
59. Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М.: РАН, 2005. – 358 с.
60. Рождественский Ю.В. Блинов А.В. Введение в языковедение: Учебное пособие для студ. филол. фак. высш. учеб. заведений. – М.: АCADEMIA, 2005. – 336 с.
61. Самойлович А.Н. Женские слова у алтайских турков // Язык и литература. – Л., 1929, Т. III. – С. 124-126.
62. Самойлович А.Н. Запретные слова в языках кизах-киргизской замужной женыны. – СПб: Рус. восточ. отделение общества, 1915. – С. 167.

63. Сат Ш.Ч. Табу и эвфемизмы в тувинском языке // Советская туркология. – Баку, 1981. – С. 266-268.
64. Сафонова С.С. Местоименно-союзные предложения с семантикой интенсивности в языке современной прессы: Автореферат дисс. ...канд.филол.наук. – Казань, 2002. – 25 с.
65. Сущинский И.И. Словарь усилительных словосочетаний русского и немецкого языков. – М.: Русский язык, 1997. – 384 с.
66. Тожиев Ё. ва б. Ўзбек нутки маданияти ва услубият асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1974. – 148 б.
67. Торопцева Е.Н. Эвфемистические наименования в аспектах языка, истории и культуры: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – М., 2003. – 24 с.
68. Ҳомидий Ҳ. Абдуллаева Ш., Ибрагимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Т.:Ўқитувчи, 1970. – 298 б.
69. Чориева З.Т. Абдулла Қодирийнинг «Ўткан кунлар» романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди... дисс. – Т., 2006. – 172 б.
70. Шамсиддинов Ҳ. Сўзларнинг эвфемик функционал-семантик синонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997. – Б. 22-25.
71. Шахжури К.К. Эвфемизмы и их роль в изменении значения слов: Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Тбилиси, 1956. – 17 с.
72. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. — Т.: Ўқитувчи, 1983. – 248 б.
73. Языковые процессы современной русской художественной литературы. –М.: Наука, 1977. – 336 с.
74. Эркаев А. Тафаккур эркинлиги. – Т.: Маънавият, 2007. – 160 б.
75. Ўзбек тилининг изоҳли Луғати. 2 томли. 1–том. –М.: Русский язык, 1981. – 631 б.

76. Ўзбек тилининг изоҳли Луғати. 2 томли. 2-том. –М.: Русский язык, 1981. – 715 б.
77. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 2-том. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 671 б.
78. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 3-том. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 688 с.
79. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 4-том. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 608 с.
80. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1985. –144.
81. А. DAUZAT, *Les noms de personnes*, Paris, 1955, p. 45.
82. Benjamin H. Gender is located above, and sex below the belt. [www. Genre \(sciences sociales\).](http://www.Genre (sciences sociales).)
83. Beauvoir Simone, de. Deuxième Sexe, le. II L'expérience vécue / Gallimard, Folio, 1949. – P. 13.
84. Bolinger D. Degree words. – Paris: Lions, 1972. – 171 p.
85. Burchfield R. Histori of English Language. – London, 1991. – 211 p.
86. Brunet S. Les mots de la fin du siècle. Paris: Edition Bélin, 1996. 254 p.
87. Cfr. Kr. Nyrop, Grammaire historique de la langue française, Copenhague, 1913, vol. IV, p. 300.
88. Cfr. BLOOMFIELD, *op. cit.*, p. 156 ;
89. Cfr. H. PAUL, Prinzipien der Sprachgeschichte, Halle, 1893, III^e éd., p. 93; Mi- GLIORINI, Conversazioni, p. 65 ; BLOOMFIELD, *op. cit.*, p. 401 ; Kr. NYROP, Linguistique et histoire des mœurs, trad. française, Paris, 1934, p. 13 ss.
90. Cfr. PAUL, *op. cit.*, p. 93 ; BLOOMFIELD, *ibid.* ;Contributions à l'étude des formules de politesse en ancien français. I., *in* Acta Lingüistica Academiae Scientiarum Hungaricae, V, 1955, pp. 295-367 ; v. aussi les articles de MAROUZEAU.

91. Cfr. **B. MIGLIORINI** - **F. CHIAPPELLI**, *Elementi di stilistica e di versificazione italiana*, Florence, 1948, II* éd., p.111 ss.
92. Debras S. *Des journaux et des femmes // Communication et langage*. 1999. № 122. P. 58-71.
93. Delphy. *Penser le genre: quels problèmes?* Paris.: CNRS Editions Delphy, 2003. – P. 94-95.
94. “Encyclopédie ou dictionnaire raisonné des sciences, des art et des métiers recherche”, accueil mises en garde, 1997, page 6:207.
95. Holder R.W. *Dictionare of Euphemisms*. — Oxford, 1995. – 172 p.
96. Widlak Stanislas. *L'interdiction linguistique en français d'aujourd'hui*. In: *Revue belge de philologie et d'histoire*, tome 43, fasc. 3, 1965. *Langues et littératures modernes - Moderne taal- en letterkunde*. pp. 932-945;
97. Tabou, totémisme et méthode comparative, *ibid.*, 2^e série, Paris, 1909 ; **A. NICEFORO**, *Le génie de l'argot*, Paris, 1912 ; **R. DE LA GRASSERIE**, *op. cit.* ; **MANSUR GUERIOS**, *op. cit.* ; **Ch. BRUNEAU**, *Euphémie et euphémisme*, in *Festgabe E. Gamillscheg*, Tubingue, 1952, pp. 12-13.
98. *Op. cit.*, chap. *Les origines magiques de la pudeur*, pp. 268-277 ; cfr. aussi : Freud, *op. cit.* ; W. Wundt, *Völkerpsychologie*, vol. II, *Mythus und Religion*, 1906 ; J. G. Frazer, *Tabou et les périls de l'Ame*, trad, française, Paris, 1927 ; J. de Castro, *Fisiologia dos Tabus*, 1938, cité par M. Guérios, *op. cit.*
99. Lakoff G. *Language and woman's place*. - New York: Harper and Row, 1975.
100. M. LEROY, *Les grands courants de la linguistique moderne*, Bruxelles et Paris, 1963, II^e éd., p. 166 ss..
101. Rey-Debove Josette. *Une femme , de a à z*.
www.scom.ulaval.ca/Au.fil.des.eveements/2004/01/22/lexico.

III. **Foydalanilgan boshqa adabiyotlar:**

Internet saytlari:

102. <https://www.espacefrancais.com>

- 103. <https://ru.m.wikipedia.org>
- 104. Google.uz
- 105. Google.fr.
- 106. Wikipediya.uz